

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**M. B. KALONOV, A.T. MAXKAMBOYEV, F.T. TEMIROV**


**BOSHQA TARMOQLARDA  
BUXGALTERIYA HISOBINING  
XUSUSIYATLARI**

**(O‘quv qo‘llanma)**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan 5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar  
bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma  
sifatida chop etishga tavsiya etilgan*

**Toshkent -2021**





***Toshkent davlat iqtisodiyot  
universitetining  
90 yilligiga  
bag'ishlanadi.***

**UO‘K 657.02**  
**KBK 65.052ya73**  
**K 18**

Kalonov M.B., Maxkamboyev A.T., Temirov F.T.  
**Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari.** O‘quv qo‘llanma. – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. –180 b.

O‘quv qo‘llanma bakalavr va magistrnlarni tayyorlash bo‘yicha Davlat standartlari talablari asosida tayyorlangan. Qo‘llanmada boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritishning qonuniy, me‘yoriy-huquqiy va nizomlarga mos nazariy, uslubiy va amaliy masalalari to‘liq yoritilgan. O‘quv qo‘llanma talabalar, magistrnar, iqtisodiy mutaxassislik o‘qituvchilari, malakali buxgalterlar tayyorlash bo‘yicha o‘quv-uslubiy markazlar tinglovchilari uchun mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrir:**

**R.O. Xolbekov** – i.f.d., prof.

**Taqrizchilar:**

**Qo‘ziyev I.N.** – TMI “Audit” kafedrası mudiri, i.f.d., professor;

**Xolbekov R.O.** – TDIU Buxgalteriya hisobi kafedrası professori, i.f.d.

**UO‘K 657.02**  
**KBK 65.052ya73**

**ISBN 978-9943-7213-3-3**

© **Kalonov M.B., Maxkamboyev A.T., Temirov F.T.**  
© « **Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi**», 2021.

## KIRISH

Respublikamiz oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlarida oʻqitilayotgan iqtisodiy fanlar ichida “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari” fani ham muhim hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning koʻlamini kengaytirish bilan bogʻliq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini oʻrganishda “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari” fani muhim ahamiyat kasb etadi. Xoʻjalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xoʻjalik faoliyatini tubdan yangilash, oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida korxonalar faoliyatini toʻliq aks ettiruvchi ishonchli va barqaror axborot manbaiga boʻlgan ehtiyojning yanada ortishi “Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari” fanini chuqur oʻrganishni taqozo etadi.

“Buxgalteriya hisobi va audit” taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha taʼlim olayotgan talabalar uchun bu fan tayanch kurs sifatida oʻqitiladi. Eʼtiboringizga havola etilayotgan oʻquv qoʻllanma ushbu fanning oʻquv dasturiga muvofiq tayyorlangan boʻlib, unda fanning jamiyatda tutgan oʻrni, metodologiyasi, tashkil etish boʻyicha nazariy va amaliy masalalari yoritilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil 7-fevralda “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi” farmoni tasdiqlandi. Ushbu farmonga asosan Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy oʻsish surʼatlarini saqlab qolish:

– qabul qilingan oʻrta muddatli dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institutsional oʻzgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash;

– soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yoʻlini davom ettirish, soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish va ragʻbatlantirishning tegishli choralarini kengaytirish;

– yo‘l-transport infratuzilmasini yana-da rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish;

– qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish: tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yana-da mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish kabi maqsadlar ustivor vazifalarimizdandir.

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy ustivor yo‘nalishlarini puxta o‘zlashtirishlari, mavjud resurslardan samarali foydalanishlari hamda ularga ijodiy yondashishlarini ta‘minlash fanning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

“Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari” fanining asosiy maqsadi buxgalteriya hisobini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini, iqtisodiyotni boshqarish hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda buxgalteriya hisobi tizimining o‘rni, ahamiyati borasidagi g‘oyalarni talabalar ongida shakllantirishdan iborat.

Shularni hisobga olganda o‘quv qo‘llanmada joy olgan har bir mavzu nazariy yoritilgan, hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun testlar berilgan, amaliy masalalar keltirilgan.

## **I BOB. QURILISH KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI**

### **1. Qurilish tashkilotlarining buxgalteriya hisobi subyekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari**

Qurilish tashkilotlari iqtisodiyotning “Qurilish” deb atalgan tarmog‘i quyi bo‘g‘inini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan belgilangan xalq xo‘jaligi tarmoqlari klassifikatoriga muvofiq qurilish tashkilotlarining alohida turlariga quyidagi tarmoq kodlari ajratilgan:

- **60000** – Qurilish;
- **61000** – pudrat va xo‘jalik usulida qurilish, montaj va boshqa ishlarni olib boruvchi umumqurilish va ixtisoslashgan tashkilotlar;
- **62000** – Ishlab chiqarish maqsadidagi bino va inshootlarni kapital ta‘mirlashni bajaruvchi tashkilotlar;
- **63000** – Noishlab chiqarish maqsadidagi bino va inshootlarni ta‘mirlash, aholi buyurtmasiga ko‘ra yashash joylarini ta‘mirlash va qurish ishlarini bajaruvchi tashkilotlar;
- **65000** – Burg‘ulash ishlarini bajaruvchi tashkilotlar;
- **66000** – Loyiha, loyiha-qidiruv va qidiruv tashkilotlari;
- **69000** – Qurilish xo‘jalik boshqarmalari.

Qurilish tashkilotlarini xo‘jalik yurituvchi subyektlar sifatida turli belgilari bo‘yicha tasniflash mumkin.

*Mulkiy shakli va yuridik maqomiga ko‘ra qurilish tashkilotlari ochiq aksiyadorlik jamiyatlari (AJ), mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar (MChJ), xususiy korxonalar (firmalar) va davlat unitar korxonalarini bo‘lishi mumkin. Ushbu maqomdagi qurilish tashkilotlarini tuzish va ular faoliyatini yuritish respublikamizda bu turdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi qonun va*

qonunosti hujjatlari, shuningdek ushbu tashkilotlarning ta'sis hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

*Nomlanishiga ko'ra* ham qurilish tashkilotlari turlichadir. Chunonchi, ularning eng keng tarqalgan nomi harakatlanuvchi mexanizatsiyalashgan kolonna (XMK–PMK) hisoblanadi. Qurilish tashkilotlariga bunday nom berilishi negizida ularning qurilish, qurilish montaj va boshqa ishlarga doir o'z faoliyatini bevosita buyurtma berilgan joylarda maxsus harakatlanuvchi texnik vositalar, mashina va mexanizmlar yordamida amalga oshirishlari yotadi. Bundan tashqari, qurilish tarmog'ida xususiy qurilish firmasi, sho'ba qurilish korxonasi, qurilish kompaniyasi, qurilish trestlari kabi nomlardagi xo'jalik yurituvchi subyektlar ham mavjud.

*Faoliyat yuritish doirasiga ko'ra* qurilish tashkilotlari tarmoq va tarmoqlararo qurilish tashkilotlariga bo'linadi. Tarmoq qurilish tashkilotlari xalq xo'jaligining alohida olingan tarmoqlarida o'z faoliyatini yuritadilar.

*Ixtisoslashganligiga ko'ra* qurilish tashkilotlari maxsus va universal tashkilotlar hisoblanadi. Masalan, qurilish tashkilotlarining metro qurilishi, uy qurilishi, yo'l qurilishi, ko'priklar qurilishi va boshqa shu kabi maxsus ixtisoslashgan turlari mavjud. Ayrim qurilish kompaniyalari (trestlari) ko'p tarmoqli, ya'ni universal tashkilotlar hisoblanadi.

## **2. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari**

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifalari bevosita ular tomonidan bajariladigan qurilish, qurilish-montaj, jihozlarni o'rnatish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu ishlarni loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq olib borilganligi va bunda belgilangan me'yor va tartiblarga amal qilingan-ligini nazorat qilish, qurilish ishlariga ketgan sarf-xarajatlarni to'g'ri va o'z vaqtida hujjatlashtirish, ular asosida qurilish jarayonlari sintetik va analitik hisobini yuritish,



tugallanmagan qurilish ishlari qiymatini to'g'ri aniqlash, tugallangan ishlar qiymatini aniq baholash va kalkulyatsiya qilish, ularni hisobot davri daromadlariga hisoblash tamoyiliga asosan kiritish, o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirishini ta'minlash buxgalteriya hisobi oldida turgan eng muhim vazifalardir.

Qurilish ishlarining xususiyatlari qurilish tashkilotlarida ularning mulki hamda bu mulkni tashkil qilish manbalari hisobi oldiga ham muhim vazifalarni qo'yadi. Chunonchi, asosiy vositalar hisobi va hisobot tizimi ushbu aktivlar tarkibidagi qimmat turadigan maxsus texnika turli mexanik va elektr jihozlar, yuk tashish mashinalari, maxsus bino va inshootlarning holati va harakati, ularning ish faoliyati, amortizatsiyalanishi va boshqa jihatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarni berishi lozim.

Qurilish ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishi tegishli qurilish materiallarining qurilish maydonchalariga o'z vaqtida kelib tushishiga, ular bo'yicha tasdiqlangan limitning mavjudligi, butligi va sifatiga bevosita bog'liq. Bundan tashqari, kelib tushayotgan materiallar qiymatini (tannarxini) to'g'ri baholash, ular hisobini baholashning u yoki bu usulda yuritilishi qurilish ishlarining tannarxiga, ularni bajarishdan olinadigan daromad va to'lanadigan soliqlarga, qurilish tashkilotining sof foydasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi qurilish tashkilotlarida materiallar hisobi oldiga ular qiymatini to'g'ri baholash, materiallar holati va harakati ustidan uzluksiz nazoratni olib borish, kirim va chiqimiga doir hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish, ushbu boyliklar ombor va buxgalteriya hisobi registrlarini belgilangan tartibda yuritishdek muhim vazifani qo'yadi.

Qurilish ishlari hajmi va qiymatiga ko'ra katta miqdorda mablag' talab qiladigan faoliyat hisoblanadi. Shu bois ham qurilish ishlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ularni moliyalashtirish manbalarining mavjudligiga bevosita bog'liq. Qurilish ishlari, odatda, buyurtmachidan olingan oldindan to'lov va keyingi to'lovlar, shuningdek pudratchi tashkilotning o'z mablag'lari yoki ular tomonidan olingan bank kreditlari evaziga amalga oshiriladi. Qurilish ishlari moliyalashtirilishining ushbu xususiyatlari pudratchi tashkilotlarda pul mablag'larini maxsus schyotlarda akkumulyatsiya

qilish (to‘plash)ni, ulardan oqilona foydalanishni, oldindan to‘lov va keyingi to‘lov summalarini buyurtmachilardan o‘z vaqtida kelib tushishini, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lar olish va qaytarish muomalalarini uzluksiz nazorat qilishni, ularni to‘g‘ri va o‘z vaqtida rasmiylashtirishni, pul mablag‘lari, debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobini belgilangan tartiblarga rioya qilgan holda olib borishni toqozo qiladi.

### **3. Qurilish tashkilotlari hisob siyosatining xususiyatlari**

Qurilish tashkilotlarining hisob siyosati ichki va tashqi foydalanuvchilarga ular faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarni tegishli shakl va mazmunda yig‘ish, qayd etish, guruhlash va jamlash hamda ularni o‘z vaqtida yetkazib berish talablariga javob berishi kerak.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi respublikamizning “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni (7-modda)da ko‘rsatilgan to‘rtta shakllardan birida tashkil etilishi mumkin.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining tashkiliy shaklini belgilashda bu tashkilotlarning katta-kichikligi, ularning maqomi muhim rol o‘ynaydi. Yirik qurilish tashkilotlarida bajariladigan hisob-kitob ishlari hajmi katta bo‘lganligi uchun buxgalteriya tarkibi alohida bo‘limlardan, masalan, moddiy boyliklar hisobi bo‘limi, mehnat va unga haq to‘lash hisob-kitobi bo‘limi, qurilish ishlari hisobi bo‘limi, moliyaviy hisob-kitoblar bo‘limi va boshqalardan tashkil topadi. Buxgalteriya bo‘limlari ish faoliyatiga bosh buxgalter rahbarlik qiladi.

Qurilish tashkilotlarining hisob siyosatida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning tanlab olingan shakli, shuningdek ushbu shaklda hisob ishlarining bajarilishini tartibga solib turuvchi ichki me‘yoriy hujjatlar tizimi belgilanadi. Ichki me‘yoriy hujjatlar odatda, buxgalteriya to‘g‘risida Nizom, bosh buxgalter va buxgalterlarning kasbiy mahoratiga qo‘yiladigan talablar, buxgalterlar o‘rtasida funksional majburiyatlarning taqsimoti, mehnat shartnomalari, ixtisoslashgan buxgalterlik firmalari yoki auditorlik tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar hisoblanadi. Ushbu ichki me‘yoriy

hujjatlarning mavjudligi va ularga amal qilish buxgalteriya hisobining to‘g‘ri tashkil qilinishi va yuritilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobi jurnal-order, memorial-order, bosh-jurnal va ixchamlashtirilgan shakllardan birida qo‘lda yoki zamonaviy kompyuterli texnologiyalarga asoslanilgan holda yuritilishi mumkin. Hozirgi paytda aksariyat qurilish tashkilotlarida qo‘llanilayotgan hisob shakli bo‘lib jurnal-order shakli hisoblanadi.

### 1-masala

Masalani bajarish uchun ma’lumotlar asosida asosiy vositalarni turlari bo‘yicha guruhlashtirish.

Dastlabki ma’lumotlar

#### “Baland ulkan qurilish” MChJning asosiy vositalari ro‘yxati

№	Asosiy vositalarning nomi	Umumiy qiymati, ln.so‘m
1	Qozonxona qurilmalari	50
2	Parparaklar	5.2
3	Kontora javonlari	6.6
4	Ichki yonilg‘i dvigatellari	4.5
5	Havo elektr uzatkichlari tizimi	4.2
6	Zavod boshqaruvi binosi	80
7	Bug‘ quvur agregatlari	10.2
8	Kompyuterlar	4.3
9	Sement quvuri	5.2
	Energetika qurilmalari	7.2
	Otboyli bolg‘alar	2.8
2	Elektrkaralar	4.6
3	Kabelli aloqa tizimlari	2.3
4	Metall konteynerlar	8.6
5	Magistral yo‘l	45
6	Yo‘nalish nazorati qurilmasi	12
7	Payvandchi dastgoh	2.4
8	Temir beton ko‘prik	22.5
9	Suv agregatlari	4.6
0	Avtodrezina	4.2

1	Yo'lovchi vagonlari	11.7
2	Nazorat-o'lchov apparaturasi	3.4
3	Avtoyuklovchilar	60.8
	Haroratni aniqlash uchun asboblari	2.4
5	Bug' so'rgich	8.2
6	Yig'ish korpusi binosi	80
7	Quvurlar tarmog'i	96
8	Mexanik sex binosi	120
9	Temirni presslovchi avtomat	52
0	Vibratorlar	19
1	Universal metallni kesuvchi dastgoh	8.32
2	Temir yo'l ko'prigi	38.3
3	Tayyor mahsulot ombori binosi	78.2
4	Turli asboblari	12.3
5	Mebel	24.1

Asosiy vositalarning guruhlanishini quyidagi shaklda amalga oshirish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Asosiy vositalarni turlari bo'yicha guruhlar

№	Asosiy vositalarning turi	Asosiy vositalarning nomi	Umumiy qiymati, mln.s.
1	Bino		
2	Inshootlar		
3	Uzatuvchi qurilmalar		
4	Mashina va jihozlar		
5	Transport vositalari		
6	Vositalar		
7	Xo'jalik inventari		
8	Ishchi qoramol		
9	Ko'p yillik ekinlar		
10	Yerlarni yaxshilash bo'yicha kapital xarajatlar		
11	Yer maydonlari qiymati		
12	Boshqalar		

## 2-masala

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida 1-jadvaldan foydalangan holda asosiy vositalarni turlari bo'yicha guruhlashtiring.

Dastlabki ma'lumotlar

### “Orion” AJ asosiy vositalari ro'yxati

No	Asosiy vositalar nomi	Umumiy qiymati, mln.so'm
1	Mexanikani yig'ish sexining binosi	102.2
2	Traktorlar	89.3
3	Yo'lovchi vagonlari	55.6
4	Kabelli aloqa tizimlari	19.6
5	Energetika qurilmalari	45.8
6	Ofis binosi	109.6
7	Chilangarlik dastgohi	25.3
8	Elektr parmalagichlar	4.8
9	Xo'jalik inventar	1.6
0	Yengil avtomobil	45.3
1	Havo uzatish tizimi	22.8
2	Bug' chiqaruvchi quvurlar	82.6
3	Ofis mebeli	26.35
4	Temir yo'l ko'prigi	42.3
	Universal metall kesuvchi dastgoh	23.5
6	Metall konteynerlar	31
7	Maxsus asbob	11
8	Kompyuter	3.6
9	Muzlatuvchi qurilmalar	6.5
20	Quvurlar	11.36
1	Ko'p yillik ekinlar	12.69
2	Avtokranlar	31.36

3	Turar joy binolari	45.3
4	Ish stollari	5.36
5	Kutubxona fondlari	14.23
	Maydonlarni xarsang toshlardan tozalashga xarajatlar	2.52
7	Sport inventari	6
8	O‘lchov asboblari	14
9	Mevazorlar, uzumzorlar, bog‘lar	31
0	Yuk transporti	78.3
1	Sug‘oruvchi inshootlar	23
2	Yopiq tok	14
3	Pichan o‘rgich	5.7
4	Achitqi uyumi	3.3

**Dars maqsadi** – asosiy vositalar harakatini rasmiylashtirilishini o‘zlashtirish.

### **3-masala**

1) Masalani bajarish uchun ma’lumotlar asosida mexanik yig‘ish sexining yangi binosini qabul qilish-topshirish hujjatini tuzish (№ OS-1 namunaviy shakli).

2) № OS-6 namunaviy shaklining inventarli kartochkasini ochish.

#### *Dastlabki ma’lumotlar*

“Baland ulkan qurilish” MChJ rahbarining 2016-yil 10-martdagi 12-sonli buyrug‘i asosida 1-mexanika yig‘ish korpusining boshlig‘i O.I. Kosimov, OKS boshlig‘i A.N. Naumov va korxonaning bosh hisobchisi L.P. Eshmirzayevlardan tashkil topgan komissiya, 1021/4-sonli loyiha bo‘yicha zavod hududida qurilgan 1- mexanik yig‘ish korpusining yangi binosini foydalanishga qabul qildilar. Binoning maydoni – 5468 kv.m, birlamchi qiymat – 3 084 000 so‘m. Bino g‘ishtdan, poydevori shlakablokdan, tomi temirdan bo‘lib elektr toki o‘tkazilgan. Normal foydalanish talablariga to‘liq javob beradi. Binoni qabul qilish to‘g‘risida 2016-yil 12-martda 17-sonli akt tuzilgan. Obyektga 012-

sonli inventar kartochkasida ro'yxatga olingan 10012 inventar raqami berilgan. Yaroqli foydalanish muddati – 40 yil.

#### **4-masala**

1) Masalani bajarish ma'lumotlari asosida 20-sonli burama mix kesuvchi dastgoh qabul-qilish – topshirish dalolatnoma tuzilgan (OS-1 namunaviy shakli).

2) OS-6 shakldagi inventar kartochkani ochish.

#### *Dastlabki ma'lumotlar*

“Baland ulkan qurilish” MChJ direktorining 2016-yil 15-maydagi 45-sonli buyrug'i asosida 1-mexanika yig'ish korpusi boshlig'i O.I. Kosimov, katta muhandis N.I. Panjiyev va texnik V.I. Tolmasovlardan tashkil topgan komissiya metall asbob bilan ishlovchi chilanganlik –burama mix yasovchi dastgohni ko'zdan kechirdilar. Dastgohning massasi – 14,5 tonna. Dastgoh “Oqsoy” AJ dan to'lov asosida sotib olingan. Obyektning qabul qilinishi “Baland ulkan qurilish” MChJ hududida amalga oshiriladi. Dastgohning chiqish muddati – 2013-yil 20-yanvar, 668-sonli texnik pasporti, obyektning dastlabki qiymati – 375 355 m.s. Obyektни hisobga olishda yaroqli foydalanish muddati 12- yil deb belgilangan. Obyekt texnik sharoitlarga mos keladi. Xulosa: obyekt foydalanishga qabul qilindi. Hujjatga texnik pasport va 162-sonli schyot ilova qilinadi. 567-sonli inventar kartochkada ro'yxatga olingan 40567 inventar raqami berilgan. Qabul qilish- topshirish hujjati “Baland ulkan qurilish” MChJ rahbari R.A. Voxidov tomonidan 2016-yil 18-mayda tasdiqlangan.

#### **5-masala**

1) Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida asosiy vositalarni ro'yxatdan chiqarish dalolatnomani tuzish (OS-3 sonli namunaviy shakl).

2) hujjatda obyektning tugatilishi natijalari hisob-kitobini amalga oshirish.

#### *Dastlabki ma'lumotlar*

2020-yil 14-mayda “Bahor” AJ direktorining 2013-yil 11-maydagi 19-sonli buyrug'i bilan belgilangan, bosh muhandis I.B.

Turdiyev, muhandis A.T. Sirojiddinov va 1-sonli ombor mudiri T.M. Shodmonovlardan tashkil topgan komissiya 1-sonli ombor binosini ko‘rib chiqdilar, uning inventar raqami 10015. Komissiya quyidagi sabablarga ko‘ra obyektning tugatilishini zarur deb hisoblaydi:

texnik holati avariya holatida;

1) 1989-yil 8-iyunda foydalanishga topshirilgan;

2) 231 119 m.s qiymatida 3-marta kapital ta‘mirlandi.

Komissiyaning xulosasi: 1-sonli ombor binosini avariya holatida bo‘lganligi va kelgusida ta‘mirlash maqsadga nomuvofiqligi sababli korxonadan balansidan chiqarish. Obyektning qatya tiklanuvchi qiymati – 885 430 m.s. Yillik amortizatsiya me‘yori – 2,5%, amortizatsiya tizimli asosda o‘tkaziladi (tugatilish kunidagi amortizatsiya qiymatini hisoblab chiqish). Qurilish-ta‘mirlash boshqarmasi (QTB) “Bahor” AJga binoning qayta montaj qilinishi bo‘yicha 5900 m.s miqdorida to‘lovni, shu jumladan, 9000 m.s - QQSni namoyon etdi.



**6-masala**

**Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalar chiqimiga doir operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish**

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schyot</b>	<b>Kredit schyot</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
<b>1. Asosiy vositalarning sotilishi</b>					
1	Asosiy vositani sotish qiymatiga (QQSsiz)	500000			Shartnoma, schyot-faktura
2	QQS summasiga (agar korxonada QQS to'lovchi va soliq solish obyekt mavjud bo'lsa)	100000			Shartnoma, schyot-faktura
3	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatiga	600000			Shartnoma, schyot-faktura
4	Jamlangan eskirishni hisobdan chiqarish	500000			Shartnoma, schyot-faktura
5	Qayta baholash bo'yicha rezervni hisobdan chiqarilishiga	50000			Hisob-kitob
6	Sotishdan olingan foyda	550000			Hisob-kitob
7	Sotishdan ko'rilgan zarar				Hisob-kitob
<b>2. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish</b>					
1	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatiga	6000000			Tugatish dalolatnomasi
2	Jamlangan eskirishni hisobdan chiqarish	5000000			Tugatish dalolatnomasi
3	Qayta baholash bo'yicha rezervni hisobdan chiqarilishiga	250000			Hisob-kitob
4	Tugatish xarajatlari	100000			Tugatish dalolatnomasi,

						qaydnomalar
5	Tugatishdan olingan materiallar	200000				Tugatish dalolatnomasi, Kirim dalolatnomasi
6	Tugatishdan olingan foyda	-				Tugatish dalolatnomasi
7	Tugatishdan ko'rilgan zarar	650000				Tugatish dalolatnomasi
<b>3. Asosiy vositalarning bepul berilishi</b>						
1	Asosiy vositani bepul berish qiymatiga	50000				Shartnoma, schyot-faktura
2	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatiga	600000				Shartnoma, schyot-faktura
3	Jamlangan eskirishni hisobdan chiqarish	500000				Shartnoma, schyot-faktura
4	Qayta baholash bo'yicha rezervni hisobdan chiqarilishiga	50000	8510		9210	Hisob-kitob
5	Bepul berishdan ko'rilgan zarar summasiga	50000				Shartnoma, schyot-faktura
<b>4. Asosiy vositalarning ta'sis badali sifatida kiritilishi</b>						
1	Asosiy vositani ta'sis badali sifatida berilgan qiymatiga	700000				Shartnoma, schyot-faktura
2	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatiga	600000				Shartnoma, schyot-faktura
3	Jamlangan eskirishni hisobdan chiqarish	500000				Shartnoma, schyot-faktura
4	Qayta baholash bo'yicha rezervni hisobdan chiqarilishiga	50000				Hisob-kitob
6	Olingan foyda	650000				Hisob-kitob, schyot-faktura

## **7-masala**

**Dars maqsadi** – schyotlarda xo‘jalik usuli bilan bajarilgan uzoq muddatli investitsiyalar tartibida asosiy vositalar tushumini aks ettirish tartibini o‘zlashtirish.

1) Ishlab chiqarish korpusining qurilishi bo‘yicha quruvchining xarajatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida foydalanishga topshirilgan obyektning inventar qiymatini aniqlash.

2) Buxgalteriya hisobi schyotlarida amalga oshirilgan xarajatlar va operatsiyalar hisobini aks ettirish.

**Dastlabki ma‘lumotlar**

2017-yilning fevral oyida “Baland ulkan qurilish” MChJ xo‘jalik usulida ofis binosining qurilishini boshladi. Qurilgan bino 2019-yilda dekabr oyida foydalanishga topshirildi, aynan shu oyda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hujjatlar topshirilgan. Bino amortizatsiyasiga tizimli usul yordamida 2020-yil yanvar oyidan o‘tkazila boshlangan. “Baland ulkan qurilish” MChJda QQS bo‘yicha soliq davri bir oyga teng.

Qurilish xarajatlari 65000 000 so‘mni tashkil etgan, ulardan fevral oyidagi xarajatlar quyidagilardan iborat bo‘lgan:

1. Ta‘minotchidan materiallar 3000 000 so‘mlik to‘lov hisobiga o‘zlashtirilgan.

QQS-54000 so‘m.

2. Ta‘minotchining schyoti to‘langan -?

3. Sotib olingan materiallar bo‘yicha QQS budjetdan hisobga olingan -?

4. Ofis binosi qurilishiga materiallar chiqarilgan – 3000 000 so‘m.

5. Qurilish maydoni ishchilarining maoshi hisoblangan – 4000 000 so‘m.

6. Mehnat haqidani yagona ijtimoiy to‘lov hisoblangan?

7. Qurilishda foydalanilgan jihozlarga amortizatsiya hisoblangan – 25000 so‘m.

8. “SAMANDARTRANS” avtotransport tashkilotining xizmatlari – 90000 so‘m. QQS-?

9. Ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha QQS budjetdan hisobga olingan-?

10. Yordamchi sexning xizmatlari hisobdan chiqarilgan – 150 000 so'm.

11. "Mul" transport tashkilotiga o'tkazilgan -?

12. Fevral oyida bajarilgan qurilish ishlariga QQS hisoblangan-?

13. Fevral oyida qurilish ishlariga hisoblangan budjetga QQS o'tkazilgan -?

14. Fevralda qurilish ishlari bo'yicha hisoblangan budjetdan QQS qoplangan?

15. 2020-yil dekabr oyida qurilish ishlari yakunlangan.

Qurilgan obyekt foydalanishga topshirildi, dastlabki qiymat bo'yicha asosiy vositalar tarkibiga hisobga kiritilgan (qiymatini aniqlang)?

### **8-masala**

**Dars maqsadi** – buxgalteriya hisobi schyotlarida asosiy vasitalar tushumini aks ettirish tartibini o'zlashtirish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida asosiy vositalar tushumi hisobi bo'yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish.

*Dastlabki ma'lumotlar*

### **“Baland ulkan qurilish” MChJ xo'jalik operatsiyalari**

<b>№</b>	<b>Operatsiyalar mazmuni</b>	<b>Umumiy qiymati, so'm</b>
1	<b>3-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi</b> OKSdan qurilishi yakunlangan sex binolari foydalanishga topshirilgan	5 237 000

2	<p><b>4-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi</b>  Yuqori tashkilotning buyrug'iga ko'ra dastgoh bepul tartibda qabul qilingan;  - uning joriy bozor qiymati  - Bepul keltirilgan dastgoh asosiy vositalar tarkibiga kiritilgan</p>	225 800?
3	<p><b>5-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi</b>  Sotib olishga haqiqiy xarajatlar hamda yetkazib berish, montaj va o'rnatish xarajatlari bo'yicha mashina va jihozlar asosiy vositalar tarkibiga qo'shiladi</p>	800 000
4	<p><b>6-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnoma</b>  Qurilayotgan obyektida tashkilotning ustav kapitaliga kirim sifatida montaj qilishga mo'ljallangan jihozlar ta'sischi tomonidan keltirildi</p>	195 000
5	<p><b>Tayyorlovchi-zavodning schyoti</b>  Montaj uchun tayyorlovchi zavoddan to'lov uchun tushgan:  -xarid qiymati;  -QQS</p>	320 000?
6	<p><b>Jihozlarni montajga topshirish dalolatnomasi</b>  Xarid qilingan jihozlar montaj qilish uchun ishlab chiqarish sexiga berilgan</p>	?
7	<p><b>7-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi</b>  Ta'sischi tomonidan ustav kapitali schyotiga kiritilgan montaj talab qilmaydigan jihozlar qiymati hisobida aks ettiriladi (kelishilgan qiymat bo'yicha)  -ta'sischi tomonidan ustav kapitaliga hissa hisobidan kiritilgan jihozlar hisobiga qabul qilinadi</p>	
8	<p><b>8-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi</b>  Ishtirokchi tomonidan oddiy o'rtoqlik shartnomasi bo'yicha qo'shma faoliyat uchun jihozlar qiymati hisobida aks ettirilgan</p>	
9	<p><b>9-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi</b>  Ishonch boshqarmasiga asosiy mablag'lar obyekti olingan</p>	

**9-masala**  
**Qurilish mashinalari va uskunalarini ekspluatatsiya qilish**  
**xarajatlarini schyotlarda aks ettirish**

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schyot</b>	<b>Kredit schyot</b>	<b>Asos – hujjat</b>
1	Hisoblangan ish haqi -kran mashinstiga -buldozer haydovchisiga -bo‘yoq purkagich apparati Xodimlariga	400000 200000 300000			Hisob-to‘lov qaydnomasi
2	Hisoblangan ijtimoiy sug‘urtaga ajratma (hisoblangan ish haqi summasidan 12 % miqdorida) -kran mashinstiga -buldozer haydovchisiga -bo‘yoq purkagich apparati Xodimlariga	? ? ?			Hisob-kitob
3	Sarflangan materiallar -kran uchun -bulodozer uchun -bo‘yoq purkagich apparati uchun	300000 100000 100000			Material hisoboti
4	Hisoblangan amortizatsiya -kran uchun -buldozer uchun -bo‘yoq purkagich apparat uchun	150000 80000 50000			Hisob-kitob
5	Ijara haqi summasiga (buldozer kovushi uchun)	100000			Hisob-kitob
6	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari (kran bo‘yicha)	1000000			Hisob-kitob
7	Qurilish mashinalari va uskunalarini ekspluatatsiya qilish xarajatlarining hisobdan chiqarilishiga -kran uchun -buldozer uchun -bo‘yoq purkagich apparati uchun	? ? ?			Hisob-kitob

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi xarajatlar qurilish tashkilotida qurilish ishlari olib borilgan uchta obyektga taalluqlidir. Ko‘tarish kranining ish vaqti 240 soat va u “A” obyektga tegishli, buldozerning ishlagan jami ish vaqti 200 soat, shundan: “A” obyektga 96 soati, “B” obyektga 64 soati va “V” obyektga 40 soati tegishli. Bo‘yoq purkagich apparatidan foydalanish vaqti jami 150 soat, uning 86 soati “B” obyektga va 64 soati “V” obyektga tegishlidir. Yuqoridagi keltirilgan jadvaldagi xarajatlarni har bir obyektlar bo‘yicha taqsimlang.

**Qurilish mashinalari va uskunalarini ekspluatatsiya qilish  
xarajatlarning qurilish obyektlari o‘rtasidagi  
Taqsimoti**

Mashina va mexa- nizm turi	Vaqt sarfi soat	Xarajat, so‘m		Shundan obyektlar bo‘yicha					
		Jami	1 soat-lik	A		B		V	
				Vaqt, soat	Summa, So‘m	Vaqt, soat	Summa, So‘m	Vaqt,soat	Summa, so‘m
Kran									
Buldo- zer									
Bo‘yoq purkash apparati									
Jami	590	2996000	x						

**10-masala**

**Dars maqsadi** – asosiy vositalar amortizatsiyasini hisoblash va amortizatsiyalar hisobi bo‘yicha operatsiyalarni hisoblarda aks ettirish tartibini o‘zlashtirish.

Asosiy vositalar amortizatsiyasi hisobi bo‘yicha operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Umumiy qiymati, m.s.</b>
1	Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisoblangan: a) asosiy ishlab chiqarish sexlari b) yordamchi ishlab chiqarish sexlari v) umumxo'jalik ishlab chiqarishi g) xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jaliklar	15 420 7110 8320 3225
2	Bepul berilgan asosiy vositalar obyekti bo'yicha amortizatsiya qiymati hisobdan chiqarilgan	3100
3	Mulkchilik huquqlarida korxonaga tegishli sotilgan asosiy vositalar obyektlari bo'yicha amortizatsiya qiymati hisobdan chiqarilgan	1500
4	Inventarizatsiya qilishda aniqlangan yetishmagan asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya qiymati hisobdan chiqarilgan	2350
5	Ishlab chiqariladigan asosiy vositalarni to'liq baholashda indeksatsiyalangan amortizatsiya qiymati hisobda aks ettiriladi	15 000
6	Ishlab chiqarilgan asosiy vositalarning narxi pasaytirilganda indeksatsiyalangan amortizatsiya qiymati hisobda aks ettiriladi	12 500
7	Yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish bilan bog'liq asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya hisoblangan	7000
8	Zaxiralashtirilgan mablag'lar hisobiga asosiy vositalarni ta'mirlashda foydalanilgan obyektlar bo'yicha amortizatsiya hisoblangan	72010
9	Asosiy vositalarning ijaraga olingan obyektni ijarachining mulkiga o'tkazishda amortizatsiya qiymati hisobda aks ettiriladi	2100
10	Savdo jarayoniga xizmat ko'rsatuvchi asosiy vositalar obyektlari bo'yicha amortizatsiya hisoblangan	18 500

### **11-masala**

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida asosiy vositalar obyekti amortizatsiyasini hisoblash, amortizatsiyani hisoblashning har bir usuli bilan:



- to‘g‘ri chiziqli;
- bajargan ish hajmiga nisbatan;
- kamayib boruvchi qoldiq;
- yillar yig‘indisi usuli bo‘yicha.

Dastlabki ma‘lumotlar

“Sharm” AJ 236 000 ming so‘mga tikuv jihozlarini xarid qildi, shu jumladan QQS – 36 000 ming so‘m. To‘lov hisob raqamidan amalga oshirilgan. Hisobga qo‘yishda yaroqlilik muddati 5 yil qilib belgilangan.

## **12-masala**

Mahsulot (ish) hajmiga mutanosib ravishda qiymatni hisobdan chiqarish usuli bilan asosiy vositalar obyektini amortizatsiyasini hisoblash.

Dastlabki ma‘lumotlar

Asosiy ishlab chiqarishda foydalanilgan asosiy vositalar obyektining dastlabki qiymati – 450 000 ming so‘m, yaroqlilik muddati – 5 yil deb belgilangan. Mahsulot ishlab chiqarishning ko‘zda tutilgan hajmi obyektidan foydalanishning butun davri uchun – 100 000 ming so‘m birlik.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi quyidagidan iborat:

- Birinchi yil – 10 000 birlik;
- Ikkinchi yil – 15 000 birlik;
- Uchinchi yil – 20 500 birlik;
- To‘rtinchi yil – 30 000 birlik;
- Beshinchi yil – 24 500 birlik.

## **13-masala**

1) mulkni bepul berish to‘g‘risidagi shartnoma asosida bepul olingan asosiy vosita obyektining dastlabki qiymatini aniqlash.

2) Buxgalteriya o‘tkazma(provodka)larini tuzish. Olingan jihozga hisoblangan amortizatsiyaviy qiymatini hisob-kitob qilish.

Dastlabki ma‘lumotlar

“Alfa” AJ mart oyida bepul shaklda “Fayoz” MChJdan jihoz olgan. Jihozning keltirilgan kundagi bozor qiymati – 80 000 ming so‘mni tashkil etdi.

“Fayoz” MChJda ushbu jihoz 2 yil davomida foydalanishda bo‘lgan, obyektning hisobga kiritishda jihozni “Mig” MChJda foydalanishni hisobga olgan holda uning yaroqlilik muddati – 6 yil deb belgilangan. Amortizatsiya tizimli hisoblab chiqiladi. Jihozni yetkazib berish xarajatlarini “Iskandar” AJ transport tashkilotiga hisob raqamidan 1180 ming so‘m qiymatida, QQS – 180 ming so‘m to‘ladi. Jihozning sozlanishi “Iskandar” AJ ta’mirlash sexi ishchilari tomonidan amalga oshirildi.

### **1. Mart oyidagi xo‘jalik operatsiyalari**

Bepul keltirilgan jihozning bozor qiymati – 80 000 ming so‘m.

### **2. Transport tashkilotining schyoti**

Transport tashkilotining olingan jihozni yetkazish bo‘yicha xizmatlar uchun schyoti akseptlangan – 1000 ming so‘m.

QQS?

### **3. To‘lov topshiriqnomasi**

Transport tashkilotining jihozni yetkazib berganlik uchun schyoti to‘langan?

### **4. Buxgalterning hisob-kitobi**

Ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha “kirish” QQS to‘lovga qabul qilindi-?

### **5. Ish haqini taqsimlash qaydnomasi**

Olingan mahsulotni sozlash uchun ishchilarga ish haqi hisoblangan – 1500 ming so‘m.

Mehnat haqidan yagona ijtimoiy to‘lov hisoblangan?

### **6. 1-sonli qabul qilish-topshirish dalolatnoma**

Bepul shaklda keltirilgan jihozga amortizatsiya hisoblangan?

**7. Kelgusi davr daromadlarining bir qismi hisobdan chiqarilgan?**

#### **14-masala**

Qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi “Omega” MChJ mol yetkazib beruvchilardan 20 mln. so‘mlik xom-ashyo va materiallarni sotib oldi va 15 % QQS to‘ladi. 15 mln. so‘mlik xom-ashyo va materiallarini ishlab chiqarishga berib undan 52 mln. so‘mlik qurilish materiallarini tayyorlab xaridorlarga sotdi. QQS – 15 % 10 mln. 400 ming so‘m.

Yuqorida keltirilgan muomalalarga buxgalteriya provadkasini tuzing va budjetga to‘lanadigan QQS summasini hisoblang.

#### **15-masala**

Qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi XYZ korxonasi mol yetkazib beruvchilardan 8.5 mln. so‘mlik material sotib oldi va QQS 15% – 1.7 mln. so‘m to‘ladi.

Shu materiallardan 30 mln. so‘mlik tayyor mahsulot ishlab chiqarib sotildi. QQS 15% – 6 mln. so‘m.

Yuqorida keltirilgan muomalalarga buxgalteriya provadkasini tuzing va budjetga to‘lanadigan QQS summasini hisoblang.

#### **16-masala**

“Bo‘ston” MChJ 1.01.20\_\_ yilga materiallar qoldig‘i 500 dona – 150 so‘mdan, yil davomida:

15.01.20\_\_ – 2500 dona 160 so‘mdan

08.04.20\_\_ – 2800 dona 250 so‘mdan

14.10.20\_\_ – 2400 dona 300 so‘mdan materiallar sotib oldi.

Yil davomida sotilgan materiallar miqdori – 5000 dona, sotishdan olingan daromad 1 800.000 so‘m

**Topshiriq:** LIFO, FIFO, AVEKO usullari yordamida sotilgan va davr oxirida qolgan materiallar qiymatini hamda sotishdan olingan yalpi foydani hisoblang?

### 17-masala

Quyidagi ma'lumotlar asosida transport tayyorlov xarajatlarining summasi va foizini hisoblang hamda oyning oxiriga ombordagi materiallar qoldig'ini aniqlang.

1. Oy boshiga ombordagi materiallar qoldig'i:
  - A) faktura narxlari bo'yicha – 50 mln. so'm
  - B) haqiqiy tannarxi bo'yicha – 55 mln. so'm
2. Hisobot oyidagi materillar kirimi:
  - A) faktura narxlari bo'yicha – 240 mln. so'm
  - B) haqiqiy tannarxi bo'yicha – 248 mln. so'm
3. Hisobot oyi davomida materiallar sarflandi: - 200 mln.

So'm

### 18-masala

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida hisobot oyi va oy oxiridagi qoldiq uchun material xarajatlar qiymatini hisoblash:

- FIFO usuli bo'yicha;
- o'rtacha tannarxi bo'yicha.

Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Birliklar soni	Birlik narxi, so'm	Umumiy qiymati, so'm
1-aprelda materiallar qoldig'i	25	100	2500
Materiallar keltirilgan:			
12.04 birinchi partiya	45	100	4500
21.04 ikkinchi partiya	20	135	2700
28.04 uchinchi partiya	67	125	8375
Bir oyda jami kelib tushgan:	132		
Bir oy uchun ishlab chiqarishga materiallar chiqarilgan:			
-FIFO usuli bo'yicha	135		
-o'rtacha tannarxi bo'yicha	135		
30-apreldagi material qoldiqlari:			
-FIFO usuli bo'yicha	?	?	?
-o'rtacha tannarxi bo'yicha	?	?	?

**Dars maqsadi** – materiallar kelib tushishi, xarid qilingan materiallarning tannarxini aniqlash va turli maqsadlarga material xarajatlar hisobi tartibini o‘zlashtirish.

### 19-masala

1. Hisobot oyida materiallar xaridi bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini operatsiyalar jurnalida va buxgalteriya hisobi schyotlariga yozish.

Dastlabki ma’lumotlar

### 2. Xo‘jalik operatsiyalari

№	Hujjat va operatsiyalar mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	<p><b>“Raduga” AJ 112-sonli schyot-fakturasi, materiallarni qabul qilish to‘g‘risidagi dalolatnoma</b>                      Kelib tushgan materiallar uchun ta‘minotchining schyoti akseptlangan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-ta‘minotchining bahosi bo‘yicha materiallar qiymati</li> <li>-temiryo‘l tarifi</li> <li>-materiallar va tashuvlar uchun QQS</li> <li>-ta‘minotchiga talab</li> </ul> <p>Schyot bo‘yicha jami:</p>	<p>55 500</p> <p>6300</p> <p>?</p> <p>4500</p> <p>?</p>
2	<p>Buxgalteriya ma’lumotnomasi                      Oy boshida yo‘ldagi storno materiallar</p>	
3	<p><b>“Alfa” AJ 124-sonli schyot-fakturasi, kirim orderi schyot bo‘yicha materiallar kelib tushgan va omborga kirim qilingan</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-xarid qiymati</li> <li>-temir yo‘l tarifi</li> <li>-materiallar va tashuvlar uchun QQS</li> </ul> <p>Schyot bo‘yicha jami:</p>	<p>38 940</p> <p>3500</p> <p>?</p> <p>?</p>
4	<p><b>Materiallarni qabul qilish to‘g‘risidagi dalolatnoma</b>                      “Don” AJ dan schyot-fakturasiz materiallar kelib tushgan va hisob bahosi bo‘yicha omborga kirim qilingan</p>	25 450
5	Bankdagi hisob raqamidan ko‘chirma	

	Ta'minotchilarga materiallar uchun o'tkazilgan: -“Raduga” AJ -“Alfa”AJ	? ?
6	Omborga lom va chiqindilarni topshirish nakladnoyi -asosiy ishlab chiqarishdan -asosiy vositalarning tugatishdan	2150 3420

## 20-masala

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida ro'yxatga olish jurnalida keltirilgan materiallarni xarid qilish bo'yicha xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish va buxgalteriya o'tkazmalari (provodka) tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar

### Hisobot davri uchun xo'jalik operatsiyalari

№	Operatsiyaning mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	“Omega”AJ keltirilgan materiallar uchun schyoti akseptlangan: -xarid qiymati -temir yo'l tarifi -QQS Schyot bo'yicha jami:	56 340 4160 ?
2	“Lotos” AJ dan materiallar omborga keltirildi Qabul qilishda ma'lum bo'ldi: materiallarning haqiqatda mavjudligi temir yo'lining aybi bilan materiallar yetishmasligi (tijorat dalolatnomasi)	26 480 9520
3	“Krasitel” AJ hisob raqamidan bo'yoq uchun o'tkazilgan: (shu jumladan QQS -? so'm)	?
4	“Lak buyoq”AJ dan bo'yoq keltirilgan. Yuk korxonasi ekspeditori tomonidan yetkazib keltirilgan Yukni omborga qabul qilishda ma'lum bo'ldi: - materiallarning haqiqatda mavjudligi -kuzatuvchining aybi bilan yuklar yetishmasligi - QQS	35 800 3200 ?
5	“Elektron” AJ dan schyot-fakturasiz shartli narx bo'yicha butlovchi buyumlar qabul qilingan	92 400

6	“Elektron” AJdan dastlab shartli bahosi bo‘yicha qabul qilingan butlovchi buyumlar uchun schyot-faktura olingan (6-operatsiya): -xarid qiymati - QQS	140 000 ?
7	“Elektron” AJ dan butlovchi buyumlarning fakturalanmagan yetkazilishi qiymati stornatsiyalanadi	92 400
8	Butlovchi buyumlar shaxsiy transportda amalga oshirilgan	1300
9	Hisobdor shaxs tomonidan do‘kondan ohak xarid qilingan va omborga topshirilgan	9600
10	Transport tashkilotining asosiy va yordamchi materiallarni tashish uchun schyoti akseptlangan: -xizmatlar qiymati -QQS schyot bo‘yicha jami:	1000 ? ?
11	bankdagi hisob raqamidan transport tashkilotining materiallarni yetkazib berish bo‘yicha schyoti to‘langan	?
12	Materiallar omborga keltirilganda ularni ortish tushirish ishlarini bajargan ishchilarning ish haqi hisoblangan	500
13	Yuk tashuvchining ish haqidan yagona ijtimoiy soliq hisoblangan	?
14	“Onix” AJ yuklangan yarim tayyor mahsulotlar uchun schyoti akseptlangan va to‘langan, lekin ular hali omborga yetib kelmagan: -xarid qiymati; -QQS schyot bo‘yicha jami:	60 450 ? ?
15	Mashinasozlik zavodidan butlovchi buyumlar bepul olingan	40 750
16	Hisobot oyida ishlab chiqarishga bepul olingan butlovchi buyumlar berilgan	25 000
17	Kelgusi davr daromadlarining bir qismi hisobdan chiqariladi	?
18	shaxsiy yordamchi ishlab chiqarishlarda tayyorlangan vositalar kirim qilinadi	47 130

## **21-masala**

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida xarid qilingan materiallar qiymati, ta'minotchiga qilingan da'vo qiymatini aniqlash, buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar

Tuzilgan shartnomaga ko'ra, hisob raqamidan dastlabki to'langan schyotlar kelib turdi, unga ko'ra og'irligi 3 kg netto bo'lgan 1000 dona oq emal bo'yog'ining partiyasi uchun bir bankasiga 153,4 so'm to'langan bo'lib, uning umumiy qiymati – 153 400 so'm, shu jumladan QQS – 23 400 so'm.

Yetkazib berish avtotransportda amalga oshirilgan, buning uchun hisob raqamidan 590 ming so'm to'langan, shu jumladan QQS – 90 so'm.

Yuk tashuvchilarga bo'yoqni omborga tushirish uchun omborga 250 so'm miqdorida ish haqi hisoblangan.

Yuk tashuvchilarning ish haqidan yagona ijtimoiy soliq hisoblangan?

Omborga yuklashda bo'yoqning yetishmasligi 25 bankadan deb belgilangan. Xarid narxlari bo'yicha bo'yoqning yetishmagan qismi qiymatidan va transport xizmatlarini qoplashga va tushirish ishlariga tegishli qismidan kelib chiqqan yetishmoqchilik qiymatiga ta'minotchiga da'vo qilingan.

## **22-masala**

Ro'yxatga olish jurnalida xarid qilingan materiallar hisobi bo'yicha keltirilgan xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish.

Buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish. Tashkilot 1510 schyot "Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" va 1610 schyot "Materiallar qiymatidagi chekinishlar" dan foydalanib tayyorlash hisobini yuritadi.



## Dastlabki ma'lumotlar

№	Operatsiyaning mazmuni	Umumiy qiymati, m.s
1	Avtotransport tashkilotining asosiy materiallarni xaridorning omboriga yetkazib berganlik uchun schyoti akseptlangan: -chiqish qiymati -QQS Materiallar yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlar hisob raqamidan to'langan	1200 ? ?
2	Do'kondan xarid qilingan asosiy materiallar qiymati naqd shaklda to'langan Ularni yetkazib berish bo'yicha xarajatlar	45 000 725
3	Do'kondan komplektlovchi buyumlar xarid qilingan, qiymati Ularni yetkazib berish xarajatlari Materiallar qiymati va ularni yetkazib berish xarajatlar chek bilan to'langan	68 200 1315
4	Xarid qilingan ehtiyot qismlar uchun ta'minotchining schyot-fakturasi akseptlangan QQS Ularni yetkazib berish xarajatlari naqd to'langan	120 000 ? 1400
5	Keltirilgan ehtiyot qismlarini omborga tushurish bilan band bo'lgan ishchilarning hisoblangan ish haqi schyotlarda aks ettiriladi	850
6	Moddiy qimmatliklarni tushirish bilan band bo'lgan ishchilarning ish haqida yagona ijtimoiy soliq hisoblangan	?
7	Asosiy materiallarni tayyorlash bo'yicha xizmatlar uchun turli tashkilotlarga qarzdorlik aks ettiriladi	7900
8	Qoplanmagan da'volar qiymati moddiy qimmatliklarni tayyorlash tannarxiga qo'shiladi	3150
9	Tabiiy zararlar me'yori doirasida yo'lda materiallar yetishmovchiligi qiymati tayyorlash tannarxiga qo'shiladi	1645
10	Hisobdor shaxslar tomonidan materiallarni tayyorlash bo'yicha turli xarajatlar to'langan	1110
11	Materiallarni jo'natish, ortish va tushirish ishlari bilan band bo'lgan ishchilarning ta'tillari to'loviga hisoblangan ish haqining qiymatining 5%i zaxiralanadi (qiymatini aniqlash)	?

12	Hisob baholari bo'yicha omborga keltirilgan moddiy qimmatliklar kirim qilingan	223 200
13	Keltirilgan materiallarning haqiqiy tannarxining chekinishlari hisob narxlari bo'yicha ularning qiymatidan chiqariladi	?

### 23-masala

Dastlabki ma'lumotlar asosida xarid qilingan materiallarning haqiqiy tannarxini aniqlash.

Dastlabki ma'lumotlar.

“Akkord” AJda joriy yilga qabul qilingan hisob siyosatida 15 schyot “Materiallarni tayyorlash va xarid qilish” va 16 schyot “Materiallar qiymatidagi chekinishlar” schyotlaridan foydalanmay materiallarni tayyorlashning buxgalteriya hisobi ko'zda tutilgan.

Maxsus buyurtmani bajarish uchun qimmatbaho yog'och turini yetkazib berishga shartnoma tuzilgan.

Keltirilgan materiallar uchun ta'minotchining schyoti akseptlangan:

- qimmatbaho yog'och turi.....20m<sup>3</sup>
- bahosi 2500 so'mdan umumiy qiymati.....?
- QQS.....?
- temiryo'l tarifi.....10 000 so'm
- QQS.....?
- Jami.....?

Avtotransport korxonasi uchun yog'och materiallarni temir yo'l stansiyasidan “Akkord” AJ ning omboriga tashish bo'yicha schyoti akseptlangan:

- Transport xizmatlari.....1700 so'm
- QQS.....?
- Jami.....?

Yuklash tushurish ishlari uchun ish haqi hisoblangan 2800 so'm  
Pensiya jamg'armasiga yagona ijtimoiy soliq va sug'urta badallari hisoblangan.....?

1 m<sup>3</sup> yog'och materialining haqiqiy tannarxi.....? so'm

Yog'och materiallari to'liq hajmda ishlab chiqarishga safarbar etilgan.

## 24-masala

### Materiallar kirimini schyotlarda aks ettirish (bevosita usul)

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Debet schyot	Kredit schyot	Asos bo'luvchi hujjat
1	Taminotchilardan sotib olinganda: -materiallar qiymatiga (QQSsiz) - QQS summasiga (agar korxonada QQS to'lovchi bo'lsa)	5000000 1000000			Shartnoma schyot-faktura
2	Ichki tizim korxonalaridan olinganda: -materiallar qiymatiga (QQSsiz) - QQS summasiga (agar korxonada QQS to'lovchi bo'lsa)*	5000000 1000000			Shartnoma, schyot-faktura
3	Bepul kelib tushganda	600000			Shartnoma, schyot-faktura
4	Ta'sischiylardan kelib tushganda	500000			Shartnoma, schyot-faktura
5	Sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlarga	50000			Shartnoma, Schyot-faktura, Kirim dalolatnomasi
6	O'z ishlab chiqarish sexlaridan kirim qilinganda	2550000			Kirim dalolatnomasi
7	Asosiy vositalarni tugatishdan olingan materiallarga	60000			Tugatish dalolatnomasi
8	Materiallarning ichki almashuviga	2000000			Naklodnoy

\* Agar qurilish tashkiloti ixchamlashtirilgan yagona soliq to'lovchi hisoblansa, u holda ta'minotchilarga to'langan QQS ham materiallar qiymatiga kiritiladi va unga alohida ushbu mazmundagi buxgalteriya yozuvi qilinmaydi.

**25-masala**  
**Qurilish tashkilotlarida materiallarning ishlatilishi va boshqa**  
**chiqimlarini schyotlarda aks ettirish**

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schyot</b>	<b>Kredit schyot</b>	<b>Asos bo‘luvchi hujjat</b>
1	Materiallarning ishlab chiqarishga sarflanishi	3000000			M-29 shaklli hisobot, material hisoboti
2	Materiallarning sotilishi: -sotish qiymatiga (QQSsiz) - QQS summasiga (agar korxonaga QQS to‘lovchi bo‘lsa) - materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo‘ynidan soqit qilinishiga -sotishdan olingan foydaga -sotishdan ko‘rilgan zararga	500000 100000 400000 100000 -			Shartnoma, schyot-faktura hisob-kitoblar, material hisoboti
3	Materiallarning bepul berilishi: -berish qiymatiga (QQSsiz) -QQS summasiga (agar korxonaga QQS to‘lovchi bo‘lsa) -materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo‘ynidan soqit qilinishiga -sotishdan ko‘rilgan zararga	500000 100000 500000 600000			Shartnoma, schyot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti

4	Ta'ris badali sifatida berilishi:				Shartnoma, schyot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti
	-kiritish qiymatiga (QQSsiz)	500000			
	-QQS summasiga (agar korxonaga QQS to'lovchi bo'lsa)	100000			
5	-materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga	500000			Ariza, schyot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti
	Materiallarning ish haqi va moddiy yordam sifatida berilishi:	500000			
	-berish qiymatiga (QQSsiz)	100000			
	-QQS summasiga (agar korxonaga QQS to'lovchi bo'lsa)	500000			

## 26-masala

**“Sifatli xizmat” qurilish tashkiloti 24.01.2020-yilda xom ashyo kiritildi.**

Kirim orderi №2 ot 24-yanvar 2020g.					
Mol yetkazib beruvchi:					
Xaridor:					
№	Tovar	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summa
1	Sement	kg	500.0	650	325000
2	Yoqilg'i	metr	300.0	4200	1260000
jami					
Jami summa so'z bilan:					
Jo'natuvchi			Qabul qiluvchi		

### Talab qilinadi:

1.Kirim orderiga asosan buxgalteriya o'tkazmasini bering.

**27-masala**

**To'lov topshiriqnomasi № 4**

DATA

To'lovchi nomi

**DEBET**

To'lovchi hisob raqami

To'lovchi STIR

To'lovchi banki nomi

To'lovchi bank kodi

SUMMA

Qabul qiluvchi nomi

**KREDIT**

Qabul qiluvchi hisob raqami

Qabul qiluvchi STIR

Qabul qiluvchi bank nomi

Qabul qiluvchi bank kodi.

So'z bilan

To'lov detali

Rahbar

NUROV A.S.

P.J. Bosh buxgalter

AZIMOV O.F.

**Talab qilinadi:**

1. Boshlang'ich hujjatga asosan buxgalteriya o'tkazmasini bering.

**28-masala**

**“Guliston” hissadorlik jamiyatining 2020-yil uchun xo‘jalik muomalalarini hisobga olish daftari**

№	Muomala mazmuni	Asos bo‘luvchi hujjat	Summa	Schyotlar aloqasi	
				Dt	Kt
1	Mahsulot ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilarga oylik ish haqi hisoblandi	Tabel, dalolatnomalar.			
a)	“A” mahsulot bo‘yicha		200000		
b)	“B” mahsulot bo‘yicha		100000		
	Jami		300000		
2	Korxonada avtogarajida band bo‘lgan ishchilarga ish haqi hisoblandi	Tabel, yo‘l varaqlari	200000		
3	Sex miqyosida boshqaruv xodimlariga ish haqi hisoblandi	Tabel	100000		
4	Korxonada boshqaruv xodimlariga ish haqi hisoblandi	Tabel	100000		
5	Xo‘jalik usulida olib borilayotgan garaj qurilishi ishchilariga ish haqi hisoblandi.	Dalolatnomalar	300000		
6	Ish haqiga nisbatan majburiy ushlanmalar amalga oshirildi..	Buxgalteriya ma’lumotnomasi			
A)	“A” mahsulot bo‘yicha ish haqiga nisbatan JAMI		?		
	Daromad solig‘i		?		
	1% kasaba uyushmasiga		?		
B)	“B” mahsulot bo‘yicha ish haqiga nisbatan JAMI		?		
	Daromad solig‘i		?		

	1% kasaba uyushmasiga		?		
S)	Korxonada avtogarajida band bo'lgan ishchilarga ish haqiga nisbatan JAMI		?		
	Daromad solig'i		?		
	1% kasaba uyushmasiga		?		
D)	Sex miqyosida boshqaruv xodimlariga ish haqiga nisbatan. JAMI		?		
	Daromad solig'i		?		
	1% kasaba uyushmasi		?		
E)	Korxonada boshqaruv xodimlariga ish haqiga nisbatan JAMI		?		
	Daromad solig'i		?		
	1% kasaba uyushmasi		?		
D)	Xo'jalik usulida olib borilayotgan garaj qurilishi ishchilariga ish haqiga nisbatan JAMI		?		
	Daromad solig'i		?		
	1% kasaba uyushmasi		?		
7	Ishchilarning ish haqlariga nisbatan 6 % ta'til fondiga rezerv qilingan:	Buxgalteriya ma'lumotnomasi	?		
A)	"A" mahsulot bo'yicha		?		
	"B" mahsulot bo'yicha		?		
	Jami		?		
V)	Korxonada avtogarajida band bo'lgan ishchilarga		?		
S)	Sex miqyosida boshqaruv xodimlariga.		?		
D)	Korxonada boshqaruv xodimlariga.		?		
E)	Xo'jalik usulida olib borilayotgan garaj qurilishi ishchilariga ish haqi hisoblandi		?		



	Hammasi				
8	Korxonada ishlayotgan pensionerlarga pensiya hisoblandi	Buxgalteriya ma'lumotnomasi	75000		
9	Mehnat ta'tili uchun ish haqi hisoblandi. Zaxira hisobiga.	Buxgalteriya ma'lumotnomasi			
A)	"A" mahsulot bo'yicha		10000		
	"B" mahsulot bo'yicha		6000		
	Jami		16000		
V)	Korxonada avtogarajida band bo'lgan ishchilarga		10000		
S)	Sex miqyosida boshqaruv xodimlariga.		5000		
D)	Korxonada boshqaruv xodimlariga.		5000		
E)	Xo'jalik usulida olib borilayotgan garaj qurilishi ishchilariga.		10000		
	Hammasi		100000		
10	Xo'jalik xodimlariga hisobot davrida erishgan muvaffaqiyatlari uchun bir yo'la mukofot puli hisoblandi	Buxgalteriya ma'lumotnomasi	85000		
11	Ta'minot bo'limi boshlig'i Salomov fevral oyida 8 ish kuni kasal bo'lganligi uchun kasallik varaqasini topshirdi. Uning ish staji 4 yil 9 oy. Yanvar oyida okladi 20000 so'm bo'lgan. Nafaqa hisoblang (alohida imtiyozga ega emas)	Buxgalteriya ma'lumotnomasi	?		
12	Xo'jalik xodimlariga mehnat haqi yuzasidan 4 bosh 1yoshga to'lgan buqachalar berildi:	Yuk xati, to'lov vedomosti			
A)	4 bosh buqachalarning sotish bahosi		30000		
B)	4 bosh buqachalarning haqiqiy qiymati		30000		

13	Fuqarolarni xalq bankida jamg'arib boriladigan pensiya fondiga 0.1% ish haqiga nisbatan hisoblandi	Buxgalteriya ma'lumotnomasi			
----	--	-----------------------------	--	--	--

**Vazifa:**

1. Muomalalarning noma'lum summalari topilsin, buxgalteriya o'tkazmalari berilsin.

2. Quyidagi shaklda aylanma qaydnomasi tuzilib schyotlarga tarqatilsin.

Schyot №	Schyotlar nomi	Oy boshiga saldo		Aylanma		Oy oxiriga saldo	
		Dt	Kt	Dt	Kt	Dt	Kt
JAMI							

3. Quyidagi hisoblash to'lov vedomosti tuzilsin.

**A, B mahsulot bo'yicha**

№	F.I.Sh	Asosiy ish haqi	Qo'-shimcha ish haqi	Jami	Ushlanmalar		Jami
					daromad solig'i	kasaba uyush masiga	
1							
2							
Jami							

**Korxonada avtogarajida band bo'lgan ishchilar bo'yicha**

№	F.I.Sh	Asosiy ish haqi	Qo'-shimcha ish haqi	Jami	Ushlanmalar		Jami
					daromad solig'i	kasaba uyush masiga	
1							
2							
Jami							

Sex miqyosida boshqaruv xodimlari bo'yicha.

№	F.I.Sh	Asosiy ish haqi	Qo'-shimcha ish haqi	Jami	Ushlanmalar		Jami
					daromad solig'i	kasaba uyush masiga	
1							
2							
Jami							

Korxonada boshqaruv xodimlari bo'yicha

№	F.I.Sh	Asosiy ish haqi	Qo'-shimcha ish haqi	Jami	Ushlanmalar		Jami
					daromad solig'i	kasaba uyush masiga	
1							
2							
Jami							

Xo'jalik usulida olib borilayotgan garaj qurilishi ishchilari bo'yicha

№	F.I.Sh	Asosiy ish haqi	Qo'-shimcha ish haqi	Jami	Ushlanmalar		Jami
					daromad solig'i	kasaba uyush masiga	
1							
2							
Jami							

4. Mehnat va unga haq to'lash bo'yicha dastlabki hujjatlar rasmiylashtirilsin.

5. 6710 schyot bo'yicha qoldiqni aniqlang.

6. Jurnal order №10 ga tushiring.

Jurnal order №10

Dt \ Kt	№6710	№6720	№	№	№	№	№	№	Jami
Hammasi									

## 29-masala

Qurilish korxonasi xodimiga 2020-yil qo‘yidagicha ish haqi hisoblangan.

Oylar	Hisoblangan ish haqi	Daromad solig‘i	Pensiya fondiga ajratmalar	ShJBPS	Ish haqi
Yanvar	1800 000				
Fevral	1850 000				
Mart	2200 000				
Aprel	1550 000				
May	980 000				
Iyun	550 000				
Iyul	1950 000				
Avgust	2200 000				
Sentabr	650 000				
Oktabr	450 000				
Noyabr	890 000				
Dekabr	1750 000				

Topshiriq.

1. Ish haqidan daromad solig‘ini ni aniqlang.

2. Pensiya fondiga ajratmani hisoblang.
3. Shaxsiy jamg'arib boruvchi pensiya hisob varag'iga ajratmani hisoblang.
4. Ishchining qo'liga olinishi lozim bo'lgan ish haqini aniqlang.
5. Tegishli buxgalteriya yozuvlarini bering.

### **30-masala**

Brigada a'zolariga dekabr oyida "A" obyektida bajargan ishlari uchun naryad asosida 500000 so'm ish haqi hisoblangan, shuningdek 300000 so'm mukofot belgilangan. Brigada a'zolarining tarkibi, egallagan lavozimlari, razryadlari, tabel bo'yicha ishlagan vaqti, brigada kengashi yig'ilishining qarori bo'yicha belgilangan mehnatda ishtirok etganlik koeffitsiyentlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

#### **Brigada a'zolarining mehnatda ishtirok koeffitsiyenti asosida ishlagan vaqtining hisob-kitobi**

<b>№</b>	<b>Familiya, ismi sharifi</b>	<b>Lavozimi</b>	<b>Ishlagan vaqti, Soat</b>	<b>Meh-natda ishtirok koeffits. (MIK)</b>	<b>MIK bilan hisoblangan Ish vaqti</b>
1	Davirov D	Brigadir	175	1,3	
2	Xalikov A.	Ishchi	175	1	
3	Shirinov B	Ishchi	175	1,1	
4	Jabborov S	Ishchi	140	0,7	
5	Olimov A	Ishchi	154	0,9	
	<b>Jami</b>		<b>819</b>		

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida dastlab MIK bilan hisoblangan bir- birlik ish vaqtiga to'g'ri keladigan asosiy ish haqi va mukofot summasini toping va asosiy ish haqi va mukofot pulining brigada a'zolari o'rtasidagi taqsimoti hisob-kitobini quyidagi jadvalda aks ettiring.

**Brigada a'zolari o'rtasida asosiy va qo'shimcha ish haqlarini taqsimlash hisob-kitobi**

№	Familiya, ismi sharifi	MIK bilan hisoblangan ish vaqti	MIK bilan hisoblangan bir birlik ish vaqtiga to'g'ri keluvchi		Hisoblangan		Jami hisoblandi
			ish haqi	mukofot	ish haqi	mukofot	
1	Davirov D						
2	Xalikov A.						
3	Shirinov B						
4	Jabborov S						
5	Olimov A						
	<b>Jami</b>						

**31-masala**

Buyurtma bo'yicha firmaning oraliq foydasini aniqlash uchun quyidagilar berilgan:

1. Qurilayotgan obyektning kontrakt (smeta) qiymati 60 ming so'm, qurilish kelgusi yili ham davom etadi.

2. Qurilish bo'yicha asosiy yilning 1-oktyabrigacha (hisobot davri boshiga) taxminan aniqlangan. Foyda summasi 4 200 ming so'm

3. Joriy yilning 1-oktyabrigacha kontrakt bo'yicha umumiy qilingan xarajatlar 24 mln. so'm

4. Bundan buyon qurilish uchun qilindigan xarajatlar taxminan 22 mln. so'mni tashkil etadi.

**Topshiriq:**

1. Kontrakt bo'yicha olinadigan taxminiy umumiy foyda summasi aniqlansin.

2. Hozirgacha olingan kumulyativ (yig'ib kelingan) foyda summasi aniqlansin.

3. IV kvartal tugallanmagan kontrakt bo'yicha foyda summasini aniqlansin.

### 30- masala

Firma buyurtmachi bilan kontrakt tuzdi, kontrakt bo'yicha firma buyurtmachiga smeta qiymati 60 mln. so'm bo'lgan obyektни 1 yil ichida qurib berish majburiyatini oldi. QQS summasi smeta qiymatining 15 % ini tashkil etadi. Kontrakt sharti bo'yicha oraliq hisob-kitob qilinmay obyekt qurilib bitkazilgandan so'ng pul bir yo'la to'lanadi, lekin qurilishning smeta qiymatidan 15 % idan 9 mln. so'm avans berish ko'zda tutilgan. Qurilish obyektini qurib bitkazish va topshirish bo'yicha qurilish firmasida quyidagi muomalalar sodir bo'lgan:

№	Muomalalar mazmuni	Summa	Buxgalteriya yozuvlari	
			Dt	Kt
1	Qurilish obyekti yuzasidan avans olindi			
	Ombordan qurilish materiallari obyektga jo'natildi	9 000 000		
2	Ishchi va xizmatchilarga ish haqi hisoblandi:	16 000 000		
	A) Ishchilarga			
	B) Prorab va injenerlarga	9 000 000		
	V) Idora xodimlariga	3 600 000		
	<b>Jami:</b>	3 400 000		
3	Mehnat haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to'lov uchun			
	A) ishchilarning ish haqlari bo'yicha			
	B) Prorab va injenerlar ish haqlari bo'yicha	2 250 000		
	V) Idora xodimlari ish haqi bo'yicha			
	<b>Jami:</b>			
4	Mol yuboruvchilardan qurilish materiallari olindi, lekin puli to'lanmadi			
	Idora binolarini ta'mirlash uchun ombordan qurilish materiallari sarflandi	<b>4 000 000</b>		
	Qurilishning santexnik ishlarini bajargan subpudratchilarga pul o'tkazish hisoblandi	17 000 000		
	Mahsulot sotish bilan band bo'lgan xodimlarga ish haqi hisoblandi	1 000 000		

5	Mahsulot sotish bilan band bo'lgan xodimlarga hisoblangan ish haqidan	1 200 000		
6	yagona ijtimoiy to'lovga ajratma qilindi	1 200 000		
	Rejadagi o'tkazilgan auditorlik firmasiga pul o'tkazish hisoblandi	300 000		
7	Qurib bitkazilgan obyekt buyurtmachilarga qabul qilish – topshirish dalolatnomasi bilan topshirildi:	700 000		
8	a) obyektning smeta qiymati	60 000 000		
	b) QQS hisoblandi	12 000 000		
	Oldindan olingan avans summasi	9 000 000		
	byurtmachilardan olinadigan summadan	63 000 000		
9	ushlab qolinadi	12 000 000		
	Bajarilgan ishlar uchun byurtmachilardan pul kelib tushdi	18 200 000		
10	Hisob-kitob schyotidan quyidagilar to'landi:	700 000		
11	A) Budgetga qarz summasi	4 500 000		
	B) Mol yuboruvchilarga	17 200 000		
	V) Auditorlik firmasiga	17 200 000		
	<b>Jami:</b>	4 300 000		
	Umumishlab chiqarish xarajatlari qurilish objekti qiymatiga o'tkazildi			
12	Ish haqi berish uchun hisob-kitob schyotidan kassaga naqd pul qabul qilindi	?		
13	Kassadan ish haqi to'landi			
	Hisob-kitob schyotidan ijtimoiy sug'urta organiga pul o'tkazib berildi	60 000 000		
14	Topshirilgan (sotilgan) byurtmaning			
15	haqiqiy tannarxi hisobdan chiqarildi(summasi aniqlansin)			
16	Hisob davri oxirida quyidagi tranzit schyotlar yopilib yakuniy-moliyaviy natijalar aniqlandi:			
17	a) sotilgan byurtmaning sotish qiymati			
	b) sotilgan byurtmaning haqiqiy tannarxi			
	v) sotish xarajatlari			
	g) ma'muriy xarajatlar			
18	d) xo'jalik xarajatlari			



### **Topshiriq:**

1. Muomalalarga provodkalar berilsin
2. Noaniq summalar topilsin
3. Sintetik schyotlar ochilib ularga barcha muomala summalari tarqatilsin va har bir schyot bo'yicha oborotlar hisoblanib, oy oxiriga qoldiq aniqlansin, hamda aylanma qaydnoma tuzilsin.

### **32-masala**

“Baland ulkan” MChJ 2020-yil davomida qurilish ishlarini bajarishdan 150400000 so‘m daromad olgan. Ushbu qurilish ishlarini bajarish tannarxi 84600000 so‘mni tashkil qilgan. “Baland o‘lkan” MChJ faoliyati davomida yana qo‘yidagi operatsiyalar sodir bo‘lgan.

- Bankdan olingan kreditga % hisoblandi 5400 000 so‘m.
- Karxona rahbariga ish haqi hisoblandi 2600 000 so‘m.
- Mulknii qisqa muddatli ijaraga berishdan daromad hisoblandi 2450 000 so‘m.
- Foiz ko‘rinishidagi daromad hisoblandi 6800 000 so‘m.
- Olingan kreditga foiz hisoblandi 3650 000 so‘m.

### **33-masala**

“GOLDEN HOUSE” qurilish tashkilotida 11.01.2017. sanada bank ko‘chirmasi quyidagicha:

00443-G.Tashkent,Tashkentskiy Filial AK “XamkorBanka” XMB				IABS Izg:11.01.2020		
Hisob raqamidan ko‘chirma 11.01.2020						
Xisob raqam:20208000206420729001				Oxirgi ikki yoqlama yozuv sanasi:10.01.18		
“GOLDEN HOUSE” MChJ						
Valyuta:000						
№	№ huddat	№ schyot	Bank kodi	Debet oborot	Kredit oborot	Schyotdagi qoldiq
Kun boshiga qoldiq 11.01.2020				550000.00		

1	000000002	2020800003048 55000000 OOO “STAR” 00695 06.01.2020- yildagi №45 shartomaga asosan materiyallar uchun 100% oldindan to‘lov.	00963		4850000.0	
2	21953703	1640100080472 00667001 Bank xizmati “GOLDEN HOUSE” MChJ 00668 Pogsheniye za Oper.Kass.Obsl- 64,29s summi 9184.50 (dok) ot 07.01.2017	00443	73350.0		
3	000000003	2020800003048 55000000 “Birja” nashriyot uyi oylik to‘lov 2020-yil		120000.		
Jami oborot				1273350	4850000.0	41266 50
Kun boshiga qoldiq 11.01.2020.						4126650

**Talab qilinadi:**

1.Bank ko‘chirmasiga asosan buxgalteriya o‘tkazmasini bering.

## **Mavzuga oid test savollari**

**1. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lashning ishbay shaklida ish haqi hisoblashga asos bo'ladi:**

- a) Naryad;
- b) Bildirgi-naryad;
- v) Bir birlik ish uchun haq to'lash me'yori;
- g) Yuqoridagilarning barchasi.

**2. Qurilish tashkilotlarida mehnatga haq to'lashning ishbay shakli qo'llaniladi:**

- a) ma'muriy-boshqaruv xodimlari uchun;
- b) Bosh injener uchun;
- v) Quruvchilar uchun;
- g) Yuqoridagilarning barchasi uchun.

**3. Qurilish tashkilotlarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga kirmaydi:**

- a) brigada a'zolariga hisoblangan ish haqi;
- b) sarflangan material xarajatlari;
- v) loyihalashtirish xarajatlari;
- g) hisob xodimlariga hisoblangan ish haqi.

**4. Qurilish tashkilotlarida bilvosita xarajatlarga kiradi:**

- a) ma'muriy-boshqaruv xodimlariga hisoblangan haqi;
- b) bosh injenerga hisoblangan safar xarajatlari;
- v) qurilish mashinalarini saqlash xarajatlari;
- g) yuqoridagilarning barchasi.

**5. Qurilish tashkilotlarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olinadi:**

- a) 3190 schyotda;
- b) 2010 schyotda;
- v) 2310 schyotda;
- g) 2510 schyotda.

**6. Qurilish ishlari tannarxining analitik hisobi:**

- a) qurilish tashkiloti bo'yicha yaxlit yuritiladi;
- b) har bir qurilish ishi bo'yicha yuritiladi;
- v) yuritilmaydi;
- g) jami qurilish ishlari bo'yicha bosh kitobda yuritiladi.

**7. Qurilish ishlari tannarxini kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usulida tannarx:**

- a) jami tashkilot bo'yicha topiladi;
- b) har bir buyurtma bo'yicha topiladi;
- v) har bir jarayon bo'yicha topiladi;
- g) topilmaydi.

**8. Buyurtmachiga topshirilgan qurilish ishining haqiqiy tannarxiga buxgalteriya yozuvi beriladi:**

- a) Debet 2010 Kredit 2310
- b) Debet 3190 Kredit 2010;
- v) Debet 9130 Kredit 2010;
- g) Debet 9030 Kredit 2010.

**9. Qurilish tashkilotlarida bajarilgan qurilish ishlaridan olingan daromadlar kiradi:**

- a) asosiy faoliyatdan olingan daromadlarga;
- b) asosiy faoliyatdan olingan qo'shimcha daromadlarga;
- v) moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarga;
- g) investitsiya faoliyatidan olingan daromadlarga.

**10. Qurilish tashkilotlarida bajarilgan qurilish ishlaridan daromadlar hisobi:**

- a) 9010 schyotda yuritiladi;
- b) 9020 schyotda yuritiladi;
- v) 9030 schyotda yuritiladi;
- g) 9910 schyotda yuritiladi.

**11. Quyidagi yozuvlarning qaysi biri bosh pudratchi va subpudratchi tashkilot o'rtasidagi barter operatsiyasi yuz berganligini ifodalaydi?**

- a) Debet 9220 Kredit 1050;
- b) Debet 1050 Kredit 4010;
- v) Debet 6010 Kredit 4010;
- g) Debet 1050 Kredit 1050.

### **Nazorat savollari**

1. Qurilish tashkilotlarida asosiy ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi qanday yuritiladi.

2. Qurilish tashkilotlarida yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini aytib bering.

3. Qurilish tashkilotlarida umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning taqsimoti qanday yuritiladi.

4. Qurilish ishlari tannarxini kalkulyatsiya qilish usullarini ayting.

5. Qurilish ishlarini bajarishdan olingan daromadlar buxgalteriyada qaysi schyotlarda aks ettiriladi.

6. Qurilish tashkilotlarida yakuniy moliyaviy natijalarning hisobi qvnday yuritiladi. Qurilish tashkilotlarida soliqqa tortishning xususiyatlarini aytib bering.

## **II-bob. AVTOTRANSPORT KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI XUSUSIYATLARI**

### **1. Avtotransport korxonalarining buxgalteriya hisobi subyektii sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari**

Respublikamiz xalq xo‘jaligini rivojlantirishda transport tarmog‘i muhim ahamiyatga ega. Bu tarmoq o‘z ichiga temir yo‘l, havo yo‘llari, daryo, dengiz, yer osti va yer usti yo‘llari transportlarini oladi.

Respublikamizning geografik o‘rni, tabiiy-iqlimiy sharoiti, uni dunyoning boshqa mamlakatlari bilan bog‘lovchi daryo va dengiz yo‘llarining yo‘qligi, shuningdek boshqa obyektiv va subyektiv sharoitlar sababli mamlakatimiz transport tarmog‘ida avtotransport o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Chunonchi, respublikamizda tashilayotgan yuk hajmining 85 foizi, yo‘lovchi tashish hajmining 96 foizi aynan avtotransportga to‘g‘ri keladi. Bu, o‘z navbatida, avtotransport xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarni xalq xo‘jaligida katta ahamiyat kasb etishi, shuningdek ularni buxgalteriya hisobining muhim subyektlaridan biri ekanligini bildiradi.

Avtotransport korxonalarini buxgalteriya hisobi subyektii sifatida turli belgilari bo‘yicha tasniflash va tavsiflash mumkin.

Mulkiy shakliga ko‘ra avtotransport korxonalari davlat, nodavlat hamda aralash mulk shaklidagi korxonalarga bo‘linadi.

Tashkiliy-huquqiy maqomiga ko‘ra avtotransport korxonalari ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari, mas’uliyati cheklangan jamiyat, xususiy korxonalar hamda davlat unitar korxonasi kabi turlarga bo‘linadi. Bu turdagi korxonalarni tuzish va ular faoliyatini yuritish tartibi respublikamizning maxsus qonunlari va davlat korxonalari to‘g‘risidagi nizom bilan belgilangan.

Faoliyat yuritish doirasiga ko‘ra avtotransport korxonalari xalqaro va mahalliy miqyosda faoliyat yurituvchi korxonalar hisoblanadi. Mahalliy miqyosdagi avtotransport korxonalari, o‘z

navbatida, faoliyatini shaharlararo va shahar miqyosida yurituvchi korxonalariga bo‘linadi.

Ixtisoslashganligiga ko‘ra avtotransport korxonalarini yuk tashish hamda yo‘lovchi tashishga ixtisoslashgan korxonalariga bo‘linadi. Ushbu turdagi korxonalar mos ravishdagi avtotransport vositalariga ega bo‘ladi. Mos ravishdagi transport vositalariga egalik qilish ushbu korxonalarining nomlanishida ham o‘z aksini topadi. Misol uchun, “Avtobus parki”, “Taksomotor parki”, “Avtobaza”, “Avtojamg‘arma” kabi nomlardan ushbu korxonalarining qaysi xizmat turiga ixtisoslashganligini bilish mumkin.

Tanlagan soliq rejimiga ko‘ra avtotransport korxonalarini umumbelgilangan va ixchamlashtirilgan soliq tartiblarida ishlovchi korxonalariga bo‘linadi. Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq mikrofirmalar va kichik korxonalar maqomidagi avtotransport korxonalarini ixchamlashtirilgan soliq to‘lovlari rejimida ishlashlari mumkin. Yirik va o‘rta korxonalar hisoblangan avtotransport korxonalarini, odatda, umumbelgilangan soliqlarni to‘laydilar.

Respublikamizning amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq avtotransport korxonalarining faoliyati asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyat turlariga bo‘linadi. Avtotransport korxonalarining asosiy faoliyati avtotransport yordamida bajarilgan ishlar (ko‘rsatilgan xizmatlar) hisoblanadi. Ularning asosiy bo‘lmagan faoliyatiga moliyaviy, investitsiya va boshqa faoliyat turlari kiradi.

Avtotransport korxonalarida bajarilgan ishlar (ko‘rsatilgan xizmatlar) deganda avtotransport yordamida aholiga va yuridik shaxslarga yuk tashish hamda yo‘lovchi tashish bo‘yicha bajarilgan ishlar (ko‘rsatilgan xizmatlar) tushuniladi. Avtotransport yordamida bajarilgan ishlar (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmining pul birligidagi qiymati mamlakatning yalpi ichki mahsulotida o‘z aksini topadi.

Avtotransport vositalari tomonidan bajariladigan ishlar (ko‘rsatiladigan xizmatlar) hajmini ifodalovchi son hamda sifat

ko'rsatkichlar avtotransport korxonasining ma'lum davrlar uchun tuziladigan biznes reja (transmoliya reja)sida o'z aksini topadi. Buxgalteriya hisobi ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha biznes reja (transmoliya reja)da ko'rsatilgan marralarning bajarilishini nazorat hamda tahlil qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Avtotransport korxonalarining yuk tashish va yo'lovchi tashish bo'yicha ko'rsatadigan xizmatlari qat'iy litsenziyalanadigan faoliyat hisoblanadi. Ushbu faoliyat bilan shug'ullanish huquqi avtotransport korxonalariga O'zbekiston Respublikasining avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan beriladi.

Avtotransportda yuk tashish va yo'lovchi tashish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar ular bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs xodimlari va yakka tartibdagi tadbirkorlardan maxsus malakaviy talablarga javob berishni taqozo etadi. Ushbu talablar O'zbekiston Respublikasining avtomobil va daryo transporti agentligi tomonidan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 28-iyunda 1377-sonli raqam bilan ro'yxatga olingan "Avtomobil transportida yo'lovchi va yuk tashish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar xodimlari va individual tadbirkorlarga qo'yiladigan malakaviy talablar to'g'risidagi" Nizomda to'liq keltirilgan.

## **2. Avtotransport korxonalarini hisob siyosatining xususiyatlari**

Avtotransport korxonalarini hisob siyosatida boshqa turdagi korxonalar singari tanlab olingan buxgalteriya hisobi obyektlarini tan olish mezonlari, ular hisobini yuritishga asos bo'luvchi hujjatlar tizimi, ishchi schyotlar rejasi, boshlang'ich hujjatlar aylanishi, arxiv ishini tashkil qilish, tovar-moddiy boyliklarning inventarizatsiyasini o'tkazish jadvali, hisobni yuritishga doir boshqa tartib-qoidalar o'z aksini topishi lozim.

Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobining tashkiliy shaklini belgilashda ularning katta-kichikligi, maqomi, hujjatlar soni va boshqa jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi,



yirik avtoxo‘jaliklarda bajariladigan hisob-kitob ishlarining ko‘pligi maxsus buxgalteriyani tashkil qilishni, shuningdek uning tarkibida alohida bo‘limlarni (masalan, transport vositalari ish faoliyati hisobi bo‘limi, moddiy boyliklar hisobi bo‘limi, mehnat va unga haq to‘lash hisob-kitobi bo‘limi, moliyaviy hisob-kitoblar bo‘limi va boshqalar) ochishni taqozo etadi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar maqomidagi avtotransport korxonalarida maxsus hisob bo‘linmasi tashkil qilinmasligi, ushbu ishlar shartnoma asosida ishga qabul qilingan yakka buxgalter yoki maxsus buxgalterlik firmalari tomonidan yuritilishi mumkin.

Avtotransport korxonasida buxgalteriya hisobining to‘g‘ri tashkil etilganligiga uning rahbari bevosita javobgar va mas’uldir. Chunonchi, rahbar buxgalteriya hisobi tashkil etilishi va yuritilishini ta’minlash maqsadida buxgalteriya to‘g‘risidagi qonun, bosh buxgalter va buxgalterlarning kasbiy mahoratiga qo‘yiladigan talablar, buxgalterlar o‘rtasida funksional majburiyatlar taqsimoti, mehnat shartnomalari va boshqa ichki me‘yoriy hujjatlarni o‘z buyrug‘i bilan tasdiqlashi lozim. Ushbu ichki me‘yoriy hujjatlarning mavjudligi va ularga amal qilish avtoxo‘jaliklarda buxgalteriya hisobi to‘g‘ri tashkil qilinishi va yuritilishi uchun muhim omillardan hisoblanadi.

Avtotransport korxonalarida hisob siyosatida avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)lardan olinadigan daromadlar, ularga doir sarf-xarajatlar hamda yakuniy moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tan olish va hisobini yuritish usullari aniq belgilab qo‘yilishi lozim. Chunonchi, hisob siyosatida naqd pul asosida bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni kassa usulida, naqdsiz pul asosida bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni esa hisoblash usulida tan olish hamda hisobga olish tartibini aniq belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, haydovchilar tomonidan yo‘lovchilardan terib olingan naqd pul hisobidan qilingan sarf-xarajatlar (masalan, yo‘lda olingan yoqilg‘i, ehtiyot qismlar, ta’mirlashga sarflangan pul mablag‘lari)ni daromad sifatida tan

olish va tegishli schyotlarda aks ettirish tartibi hisob siyosatida aniq ifodalanishi lozim.

Avtotransportda naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olinadigan daromadlarni tan olishda hisob-kitob hujjatlarini taqdim etish bo'yicha belgilangan tartib muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shartnomalarda belgilangan tartibga ko'ra naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlar schyot-fakturalar asosida har kuni, har oy oxirida, ish (xizmat)lar to'liq yoppasiga tugagandan so'ng tan olinishi mumkin. Avtotransport korxonasi tomonidan daromadlarni tan olish va hisobini yuritishning ushbu usullardan qaysi biri tanlab olinganligi yoki ularning har birini qaysi turdagi ishlar uchun qo'llanilishi hisob siyosatida aniq ifodalangan bo'lishi lozim.

Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning xarakterli jihatlaridan biri shundaki, ular bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish mavjud bo'lmaydi, ya'ni hisobot davri davomida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga qilingan barcha sarf-xarajatlar shu hisobot davrida ushbu ish (xizmat)lar tannarxi sifatida tan olinadi va hisobdan chiqariladi. Respublikamizda qabul qilingan tartiblarga muvofiq transport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga ketgan sarf-xarajatlar hisoblash usuli bo'yicha, shuningdek hisobot davrlari daromad va xarajatlarning mosligi, muhimlik kabi tamoyillar asosida tan olinishi hamda hisobda aks ettirilishi lozim.

Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxini aniqlashda turli kalkulyatsiya birliklari qo'llaniladi. Chunonchi, yuk tashish avtotransportlari uchun tannarx kalkulyatsiyasi ularning turlari bo'yicha 1 soatlik ish, 1 tonna yuk, 1 tonna-kilometr tuziladi. Yo'lovchi tashishga mo'ljallangan avtotransportlar uchun tannarxni kalkulyatsiya qilish birligi sifatida transport vositalarining turlari bo'yicha 1 soatlik ish, 1 ta yo'lovchi yoki 1 kishi-kilometr olinadi. Avtotransport korxonalari ushbu kalkulyatsiya birliklari bo'yicha bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)lar tannarxi hisobini hisobot davrida normativ tannarx, reja tannarxi yoki haqiqiy tannarx usullaridan biri bo'yicha olib

borishlari mumkin. Ushbu usullarning qaysi biri tanlab olinganligi avtotransport korxonasi hisob siyosatida o'z aksini topishi lozim. Me'yoriy tannarx va reja tannarxi usullarini tanlab olgan korxonalar hisob siyosatida mos ravishda me'yoriy va reja tannarxidan chetlanishlarni hisobga olishning aniq tartibi belgilanishi lozim.

Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larning tannarxi, shuningdek avtotransport korxonasi tomonidan olinadigan foyda summasi ularga sarflangan materiallar (yoqilg'i, moylash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqalar) qiymatini baholash usullariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Respublikamizning 4-sonli BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar"ga muvofiq avtotransport korxonalarini o'z moddiy boyliklari qiymatini FIFO, AVECO, identifikatsiyalash usullari bo'yicha hisobini yuritishlari mumkin hisoblanadi. Belgilangan tartibga ko'ra, ushbu usullarning barchasini qo'llash ta'qiqlanmagan. Biroq, avtotransport korxonalarida boshqa korxonalaridagi kabi bir xil nomdagi TMZlar bo'yicha bir vaqtning o'zida baholashning turli usullarini qo'llash mumkin emas. Shu bois ham, avtotransport korxonalarini o'zlarining hisob siyosatida TMZlar qiymatini baholashning tanlangan usullarini ularning turlari bo'yicha aniq ko'rsatishlari hamda unga amal qilishlari lozim.

Avtotransport korxonalarini faoliyatida avtotransportga qo'yiladigan avtoshinalar, akkumulyator va shu kabi boshqa agregatlar muhim o'rin tutadi. Ushbu ehtiyot qismlarni hisobdan chiqarib borishning belgilangan tartibi ham bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar tannarxiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Chunonchi, ularni avtomashinalarga qo'yilgan vaqtida hisobdan chiqarish aynan shu davrga to'g'ri keluvchi tannarx summasini keskin oshib ketishiga olib keladi. Ushbu aktivlarni belgilangan xizmat muddatlarida bir maromda hisobdan chiqarib borish tartibini qo'llash tannarxni keskin oshib ketishi oldini oladi. Shuning uchun ham avtotransport korxonalarida ehtiyot qismlarni hisobdan chiqarib borishning ratsional usulini tanlab olish va unga

amal qilish ular hisob siyosatining muhim jihatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

### **3. Avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari**

Avtotransport korxonalarida boshqa korxonalar singari buxgalteriya hisobining obyektlari bo‘lib asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyat turlari, ularni tashkil qiluvchi jarayon va operatsiyalar, faoliyat turlari olib borilishini ta‘minlovchi aktivlar, aktivlarni tashkil topish manbalari, shuningdek erishilgan moliyaviy natijalar hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining ushbu obyektlari avtotransport korxonalarida, bir tomondan, o‘ziga xos xususiyatlarga, ikkinchi tomondan esa, barcha korxonalaridagi umumiy jihatlariga ega.

Avtotransport korxonalarini asosiy faoliyatini bevosita avtotransport vositalari bilan bog‘liqligi buxgalteriya hisobidan, avvalambor ushbu vositalarning mavjud holati va harakati, ular yordamida bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)lar, olingan daromad va qilingan xarajatlar, avtotransport xizmatidan erishilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi axborotlarni yig‘ish, qayd etish, guruhlash, jamlash kabi funksiyalarni bajarishni taqozo etadi. Bundan tashqari, hisob xodimlari avtotransport vositalari ish faoliyatini soniy va sifat jihatdan ifodalovchi ko‘rsatkichlarni doimiy nazorat va tahlil qilish, nazorat va tahlil natijalarini tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida rahbariyat hamda boshqa foydalanuvchilarga o‘z vaqtida yetkazib berish kabi funksiyalarni ham bajarishlari lozim.

Avtotransport tomonidan bajariladigan ish (ko‘rsatiladigan xizmat)lar naqd hamda naqdsiz pulga amalga oshiriladi. Avtotransport korxonalarini tomonidan naqd pulga ko‘rsatilgan xizmatlar aholiga ko‘rsatilgan pullik xizmatlarning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu pullik xizmatlarning hajmi avtotransport korxonalarining kassasiga topshirilgan pul miqdori bilan, shuningdek sotilgan yo‘l chiptalari, talonlar hamda

haydovchilar tomonidan yo'lda yoqilg'i sotib olish uchun sarflangan yo'l puli miqdoridan iborat bo'ladi. Naqdsiz pulga avtotransport xizmatlari tuzilgan shartnomalar asosida ko'rsatiladi. Ushbu xizmatlar hajmi buyurtmachilarga taqdim etilgan va ular tomonidan to'lov uchun qabul qilingan schyot-fakturalar asosida aniqlanadi. Ushbu xususiyatlar avtoxo'jaliklarda bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lar hajmini hisob-kitob va to'lov turlari bo'yicha alohida-alohida hisobga olish zarurati borligidan darak beradi.

Avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larni qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ga tortishda ham o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Chunonchi, birgina avtotransport yordamida yo'lovchi tashishda shahar ichi marshrutlaridan tushgan tushumlar QQSga tortilmaydi. Shaharlararo va shahar hududidan 10 kilometrdan ortiq masofadagi manzillarga yo'lovchi tashishdan tushgan tushumlar QQSga tortiladi. Yuk tashishdan tushgan tushumlar ularning shahar ichi yoki shaharlararo qatnovidan qat'i nazar QQS to'lovchi avtotransport korxonalarida QQSga tortiladi. Avtotransport tomonidan bajariladigan ish (ko'rsatiladigan xizmat)larni QQSga tortishdagi ushbu xususiyatlar buxgalteriya hisobi oldiga avtotransport korxonalarida QQSga tortiladigan hamda unga tortilmaydigan daromadlarni alohida hisobga olish talabini qo'yadi.

Avtotransport korxonalarini faoliyatida transport vositalarining muhim ahamiyatga molikligi haydovchilar hamda boshqa texnik xodimlar mehnati va ular mehnatiga haq to'lashni tashkil qilishda o'ziga xos yondashishni talab qiladi. Chunonchi, avtotransport vositalarini ekspluatatsiya qilish hamda ular butligini va ishga loyiqiligini ta'minlash zarurati, avtotransportning turlari, markalari, ularning yuk tashish imkoniyatlari, boshqarish darajasining murakkabligi, maxsus razryadlarni talab qilishligi yoki qilmasligi, ishlash rejimlari va shu kabi boshqa omillar avtoxo'jaliklarda mehnatni tashkil qilishning mos ravishda moddiy javobgarlikning yakka hamda brigada shakllaridan keng foydalanishni, shuningdek mehnatga haq to'lashning ishbay va vaqtbay turlarini keng

qo‘llashni taqozo etadi. Ushbu xususiyatlar avtoxo‘jaliklarda mehnat va mehnatga haq to‘lash hisobini tashkil qilishda maxsus yondashishni zarurat qilib qo‘yadi.

Avtotransport vositalarining ish faoliyati ularni harakatga keltiruvchi yoqilg‘i, yog‘lash materiallari, ehtiyot qismlar va shu kabi boshqa moddiy boyliklarning tegishli miqdorda mavjudligiga, ularning butligi, sifati va boshqa jihatlariga bog‘liq. Shu bois ham ushbu aktivlar hisobini to‘g‘ri tashkil qilish avtoxo‘jaliklar faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda avtotransport korxonalarida buxgalteriya hisobi oldida turgan asosiy vazifalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

avtotransport vositalari holati hamda harakatini tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish, ular asosida transport vositalarining tahliliy va sintetik hisobini yuritish;

avtotransport vositalarining ish faoliyati, bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni hisobot davrlari bo‘yicha hisobga olish, ularni tasdiqlovchi hujjatlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri rasmiylashtirish;

avtotransport vositalarini ekspluatatsiya qilishga doir xarajatlarning tizimli hisobini yuritish, hisob ma‘lumotlari asosida bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)larning haqiqiy tannarxini aniqlash;

avtotransport vositalari faoliyatini uzluksizligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish zaxiralari (yoqilg‘i, yog‘lash materiallari, ehtiyot qismlar va boshqalar) holati hamda harakatiga doir boshlang‘ich hujjatlar, moddiy hisobotlar, shuningdek hisob registrlarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri tuzilishini ta‘minlash;

avtotransport yordamida naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)lar bo‘yicha hisob-kitoblarni barcha buyurtmachilar bo‘yicha o‘z vaqtida va to‘g‘ri olib borish;

ko‘rsatilgan avtotransport xizmatlaridan olingan naqd pul tushumlarini korxonaga kassasiga kirim qilinishini, naqd pul hisobidan haydovchilar tomonidan avtomobil yoqilg‘ilarining xarid

qilinishi, pul mablag‘larining bank muassasasiga topshirishini to‘g‘ri va o‘z vaqtida hujjatlashtirish;

avtotransport yordamida bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)lardan erishilgan moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri shakllantirish, ularni buxgalteriya schyotlari va hisobot shakllarida to‘g‘ri aks ettirish;

mehnat haqi, soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni to‘g‘ri hamda o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash.

**Avtotransport vositalarining ayrim turlari bo‘yicha har 100 km masofaga sarflanadigan yoqilg‘ining asosiy me‘yorlari**

Transport turi, modeli, markasi va modifikatsiyasi	Asosiy me‘yor, l/100 km	Yoqilg‘i turi
<b>1. YUK TASHISH AVTOMOBILLARI</b>		
<b>GAZ</b>		
GAZ- 52, -52A, -52-01, -52-03, -52-04, -52-05, -52-54, -52-74, -53F	22,0	B
GAZ-52-07, -52-08, -52-09	30,0	SG
GAZ -52-27, -52-28	21 (22)	TG
GAZ-53,-53A, -53-12, -52-12-016 va b.	25,0	B
GAZ-63,- 63A	26,0	B
GAZ-66, -66A, -66AYE, -66-01, -66-02, -66-04, -66-05, -66-11	28	B
GAZ-3309, GAZ -5441	17	D
<b>ZIL</b>		
ZIL-130, -130A1, -130G, -130GU, -130S, -130-76, -130G-76 va boshqalar	31,0	B
ZIL-131, -131A	41,0	B
ZIL-133G, -133G1,-133G2, -133GU	38,0	B
ZIL-133GYa	25,0	D
ZIL-138	42,0	SG
ZIL-138A, 138AG	31 (32)	TG
ZIL-150, ZIL -151, -151A	39,0	B
ZIL-5301PO	15,0	D

<b>KAMAZ</b>		
KamAZ-4310,-43105	31,0	D
KamAZ-5320	25,0	D
KamAZ-53219	22,0	TGQ6,5D yoki 26,0 D
<b>KRAZ</b>		
KrAZ-255B,-255B1	42,0	D
KrAZ-257,- 257B1	38,0	D
<b>MAZ</b>		
MAZ-514	25,0	D
MAZ -543	98,0	D
<b>UAZ</b>		
UAZ-451, -451D, -451DM,-451M	14,0	B
UAZ-452, -452D, -452DM	16,0	B
UAZ -33032, -3332-01	21,5	B
UAZ-3909	17,0	B
<b>BELAZ</b>		
BelAZ-540, -540A	135	D
BelAZ-548A	160,0	D
BelAZ-548GD	200,0	SG
BelAZ-549, -7509	270,0	D
<b>BOSHQA MAMLAKATLAR YUK MASHINALARI</b>		
Tatra 111 R	33,0	D
Iveco-190,33	25,0	D
Mercedes-bens-1635S, -1926, -1928, -1935	23,0	D
Mercedes-bens-1834LS	18,5	D
Mercedes-bens-1840	17,0	D
Mercedes-bens-2232S	27,0	D
Volvo-1033	22,0	D
Volvo FH-12/380	15,0	D
Volvo FL 10	27,0	D
Ford Transit FT 150/150L	10,0	D
Ford Transit FT 150/150L 2.01	13,0	B



<b>2. AVTOBUSLAR</b>		
LAZ-695 (B, E, J, M, N modif.)	41,0	B
LAZ-699R	28,1	D
Ikarus-55	28,0	D
Mersedes-bens-308D	10,8	D
Mersedes-bens-0302	32,0	D
Volsvagen 2,0	11,5	B
Voltsvagen 2,5D	9,4	D
Otayo‘l M-24	17,8	D
Otayo‘l M-24	44,6	TG
<b>3. YENGIL AVTOMOBILLAR</b>		
GAZ-24,-24-10, 24-60	13,0	B
GAZ-24-07	16,5	SG
GAZ-3102, 3102-12	12,5	B
GAZ-3105	13,7	B
Audi 80 1.6	13,1	B
BMV M3	11,0	B
BMV 725	10,1	D
Mersedes-bens E 200	9,5	B
Meresedes-bens Vito 110D	9,6	D
Nissan Almera 1.5	7,6	B
Nissan Patrol GD 3.0D	12,5	D
Neksiya	9,0	B
Matiz	7,5	B

Yengil avtomobillar dvigatellarining ishchi hajmiga ko‘ra juda kichik (1,1 litrgacha), kichik (1,1 litrdan 1,8 litrgacha), o‘rta (1,8 litrdan 3,5 litrgacha), katta (3,5 litrdan ortiq) turlarga bo‘linadi.

Yuk tashish avtomobillari og‘irligiga (massasiga) ko‘ra quyidagi 7 ta guruhga ajratiladi:

- 1-guruh – 1,2 tonnagacha;
- 2-guruh – 1,2 tonnadan 2,0 tonnagacha;
- 3- guruh –2,0 tonnadan 8,0 tonnagacha;
- 4-guruh – 8,0 tonnadan 14,0 tonnagacha;
- 5-guruh – 14 tonnadan 20,0 tonnagacha;
- 6-guruh – 20,0 tonnadan 40,0 tonnagacha;
- 7-guruh – 40,0 tonnadan yuqori.

## 1-masala

### ATVlarning sotib olinishini schyotlarda aks ettirish

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet schyot</b>	<b>Kredit schyot</b>	<b>Asos bo‘luvchi hujjat</b>
1.	ATV ning sotib olish bahosidagi qiymatiga (QQS bilan birga)	15000000			Schyot-faktura, invoys, bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD)
2.	ATV bo‘yicha bojxona to‘lovlari summasiga	9000000			BYuD
3.	Sotib olishdagi vositachilik haqi summasiga	150000			Schyot-faktura
4.	Sotib olish bo‘yicha safar xarajatlari summasiga	750000			Bo‘nak hisoboti
5.	Transport xarajatlari summasiga	200000			Schyot -faktura
6.	Davlat avtonazoratiga to‘lovlar summasiga	15525			Schyot-faktura
7.	Yo‘l fondiga sotib olish qiymatidan 6 foizlik to‘lov summasiga	900000			Schyot, to‘lov topshiriq-nomasi
8.	ATVni boshlang‘ich qiymati bo‘yicha kirimiga	28015525			Hisob-kitob

## 2-masala

### ATVlarning tugatilishini schyotlarda aks ettirish

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Dt</b>	<b>Kt</b>	<b>Asos bo‘luvchi hujjat</b>
1.	ATVning boshlang‘ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000			Tugatish dalolatnomasi
2.	ATV bo‘yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	5000000			Tugatish dalolatnomasi

3.	Tugatishdan olingan ehtiyot qismlar va metallolomning baholangan qiymatiga	100000			Tugatish dalolatnomasi
4.	Tugatish xarajatlariga	25000			Tugatish dalolatnomasi
5.	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000			Tugatish dalolatnomasi
6.	Tugatishdan olingan moliyaviy natijaga: - olingan foyda summasiga - ko'rilgan zarar summasiga	575000 -			Tugatish dalolatnomasi

### 3-masala

#### ATVlarning sotilishini schyotlarda aks ettirish

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Dt	Kt	Asos bo'luvchi hujjat
1.	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000			Schyot-faktura, ma'lumotnoma
2.	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	4000000			Schyot-faktura, ma'lumotnoma
3.	ATVning sotish qiymatiga	3000000			Schyot-faktura,
4.	QQS summasiga (agar korxonada ushbu soliqni to'lovchisi bo'lsa, sotish qiymati va qoldiq qiymat o'rtasidagi farq summasidan) (?)	?			Schyot-faktura, hisob-kitob
5.	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000			Buxgalteriya ma'lumotnomasi

6.	Sotishdan olingan moliyaviy natijaga: - foyda summasiga - zarar summasiga	2166667 -			Hisob-kitob
----	---	--------------	--	--	-------------

#### 4-masala

Avtotransport korxonasi boshlang'ich qiymati 5000000 so'm, jamlangan eskirishi 4000000 so'm bo'lgan avtomobilni 2000000 so'm miqdorida hadya shartnomasi asosida nogironlar uyiga berdi.

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Dt	Kt	Asos bo'luvchi hujjat
1.	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	5000000			Schyot-faktura, ma'lumotnoma
2.	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	4000000			Schyot-faktura, ma'lumotnoma
3.	ATVni bepul berishdagi shartnoma qiymatiga	2000000			Schyot-faktura,
4.	QQS summasiga (agar korxonada ushbu soliqni to'lovchisi bo'lsa, sotish qiymati va qoldiq qiymat o'rtasidagi farq summasidan) (?)	166667			Schyot-faktura, hisob-kitob
5.	ATV bo'yicha qayta baholashdan vujudga kelgan rezerv kapitalini kamaytirilishiga	500000			Buxgalteriya ma'lumotnomasi
6.	Bepul berilgan ATV bo'yicha 9210 schyotning yopilishiga				Hisob-kitob
7.	Bepul berishdan ko'rilgan zarar summasiga				Hisob-kitob

#### Topshiriq:

ATVlarning bepul berilishini schyotlarda aks ettiring va soliqqa tortiladigan bazaga ta'sirini aniqlang.

## 5-masala

### ATVlarning uzoq muddatli ijaraga berilishini schyotlarda aks ettirish

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Dt</b>	<b>Kt</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
1.	ATVning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	1500000 0			Ijara shartnomasi, schyot-faktura, buxgalteriya ma'lumotnomasi
2.	ATV bo'yicha hisoblangan jami eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga	1400000 0			Ijara shartnomasi, schyot-faktura, buxgalteriya ma'lumot-nomasi
3.	ATVni uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha shartnoma qiymatiga	3000000			Ijara shartnomasi, schyot-faktura,
4.	ATVni uzoq muddatli ijaraga berish bo'yicha shartnoma qiymatining joriy qismiga (misol uchun ijara 5 yilga berilgan bo'lsa, joriy yilga doir ijara haqi 600000 so'mni tashkil etadi – 3000000/5)	600000			Ijara shartnomasi, schyot-faktura, hisob-kitob
5.	Uzoq muddatli ijara to'lovi summasining kelib tushushiga	600000			Bank ko'chirmasi

## 6-masala

### ATVlar yordamida bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromadlarni schyotlarda aks ettirish

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Dt</b>	<b>Kt</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
1.	Naqd pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromad summasiga	5000000			Kirim kassa orderi
2.	Naqd pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keluvchi QQS summasiga	1000000			Kirim kassa orderi
3.	Naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)lardan olingan daromad summasiga	30000000			Schyot-faktura
4.	Naqdsiz pulga bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)larga to'g'ri keluvchi QQS summasiga	6000000			Schyot-faktura
5.	Yo'lovchi tashish avtotransporti haydovchisi tomonidan yo'l haqi evaziga sotib olingan yoqilg'iga	500000			NKM cheki, kvitansiya
6.	Yo'lovchi tashish avtotransporti haydovchisi tomonidan yo'l haqi evaziga qilingan ta'mirlash ishlariga	300000			Kvitansiya, dalolatnoma, rahbar buyrug'i (qarori)
7.	ATV ish faoliyatidan olingan daromadlarni hisobga oluvchi schyotning yopilishiga	35800000			Buxgalteriya hisob-kitobi

## 7-masala

### Ehtiyot qismlar harakatini schyotlarda aks ettirish

<b>№</b>	<b>Operatsiyaning mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Dt</b>	<b>Kt</b>	<b>Asos bo'luvchi hujjat</b>
1.	QQS to'lovchi avtotransport korxonalarida ehtiyot qismlar ta'minotchilardan kirim qilinganda: -sotib olish qiymatiga (QQSsiz) -QQS summasiga	1000000 ?			Shartnoma, schyot-faktura
2.	Yagona soliq to'lovchi avto-korxonalarda ehtiyot qismlar-ning ta'minotchilardan kirim qilinishiga (QQS bilan birga)	1200000			Shartnoma, schyot-faktura
3.	Shahar yo'lovchi transporti uchun ishlatilgan ehtiyot qismlar bo'yicha ta'minotchilarga to'langan QQS summasining ular tannarxiga kiritilishiga	200000			Dalolatnoma va buxgalteriya hisob-kitobi
4.	Ehtiyot qismlarning bepul kelib tushishiga	300000			Shartnoma, schyot-faktura
5.	Ehtiyot qismlarning ta'sischi tomonidan ustav kapitaliga badal sifatida kiritilishiga	600000			Shartnoma, schyot-faktura
6.	Yo'lovchi tashish avtotransport haydovchilari tomonidan yo'l haqi evaziga sotib olingan va omborga kirim qilingan ehtiyot qismlar summasiga	50000			NKM cheki, Kvitatsiya

7.	ATV haydovchilari tomonidan berilgan bo‘nak hisobidan sotib olingan va omborga kirim qilingan ehtiyot qismlar summasiga	30000			Kvitansiya, NKM cheki, schyot-faktura
8.	ATV haydovchilari tomonidan o‘z hisobidan sotib olingan va omborga topshirilgan ehtiyot qismlar summasiga	35000			Kvitansiya, NKM cheki, schyot-faktura
9.	Ehtiyot qismlarni ustaxona, sexlar va boshqa yordamchi xo‘jaliklarga berilishiga (ichki almashuv)	1500000			Talabnoma, limit-zabor varag‘i, nakladnoy
10	Ehtiyot qismlarning zarur hollarda sotilishiga: -sotish qiymatiga (QQSsiz) -QQS summasiga -tannarxiga	400000 ? 400000			Shartnoma, schyot-faktura

## 8-masala

“8-Avtobus saroyi” AJ 2017-yil 10-mart kuni har biri 500 ming so‘m bo‘lgan 10 dona akkumulyatorlar, har biri 1800 ming so‘m bo‘lgan 15 dona avtomobil shinalarini sotib oldi. 2020-yil 15-mart kuni 6 dona akkumulyatorlar xizmat ko‘rsatuvchi avtobuslarga qo‘yildi, 4 dona akkumulyatorlar ma‘muriy maqsadlarda xizmat qiladigan avtomobillarga qo‘yildi. 10 dona shinalar xizmat ko‘rsatuvchi avtobuslarga qo‘yildi. Akkumulyatorlar 3 yil xizmat qiladi, Shinalar 80 000 km ish bajaradi. 1 yildan so‘ng 2 dona akkumulyator yaroqsiz holga kelib qoldi.

### Topshiriq:

Har oyda tannarxga kiritiladigan summani aniqlang.

Tegishli buxgalteriya yozuvlarini bering.



## 9-masala

### Avtotransport vositalari bo'yicha yoqilg'i sarfini belgilangan me'yordan chetlanishlarining hisob-kitobi (litrd)

№	ATV davlat belgisi raqami	Haydovchining F.I.Sh.	Hisobot davri boshidagi qoldiq	Hisobot davrida berilgan	yoqilg'i	Jami yoqilg'i	Hisobot davri oxiridagi qoldiq		Chetlanish	
							me'-yor bo'yicha	Haqiqatda	ortiqcha sarf	tejam
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1.	10 AG' 401	Usarov	20	300	320					
2.	10 AG' 402	Xolov	40	400	440					
3.	10 AG' 403	Toshev	25	375	400					
Xuddi shu tarzda barcha boshqa ATVlar bo'yicha										
Jami			700	4500	5200	4800	400	345	85	30

## 10-masala

MAN- yuk tashish mashinasi yo'l varaqasi ma'lumotlariga ko'ra 10000 t/km miqdorida ish bajargan. Bosib o'tilgan yo'l – 500 km. 1 litr dizel yoqilg'isining kirim qiymati o'rtacha 3500 so'm. Ushbu avtomashina bo'yicha:

– har 100 km masofaga yoqilg'i sarfining asosiy me'yori 25,0 litr;

– bajarilgan har 100 t/km ish uchun yoqilg'i sarfining me'yori 1,3 litr;

– qish davrida ishlaganlik uchun yoqilg'i sarfi me'yoriga qo'shimcha 10 foiz.

**Topshiriq:**

Avtomobilning yoqilg‘i sarfi me‘yorini aniqlang.

Tannarxga kiritiladigan summani aniqlang.

**11-masala**

KamAZ -5511-markali yukni o‘zi to‘kadigan (samosval) avtomashinasi yo‘l varaqasi ma‘lumotlariga ko‘ra, bir kunda 14 qatnovda yuk tashigan va jami 250 km masofani o‘tagan. Har 100 km masofaga yoqilg‘i sarfining asosiy me‘yori 34,0 litr; karerda ishlaganlik uchun yoqilg‘i sarfi me‘yoriga qo‘shimcha 10 foiz, yuk bilan har bir qatnov uchun yoqilg‘i sarfining qo‘shimcha me‘yori 0,35 litr. 1 litr dizel yoqilg‘isining kirim qiymati o‘rtacha 3800 so‘m.

Yuqorida keltirilgan shartli ma‘lumotlarga ko‘ra avtomashinaning bajargan ishiga to‘g‘ri keladigan va uning tannarxiga kiritilishi lozim bo‘lgan yoqilg‘ining miqdorini aniqlang va tegishli buxgalteriya yozuvini bering.

**12-masala**

Mersedesbens markali avtobusning yo‘l varaqalari bo‘yicha bosib o‘tgan yo‘li dekabr oyida 18000 km, har 100 km masofaga yoqilg‘i (solyarka) sarfining asosiy me‘yori 40,0 litr; qish davrida ishlaganlik uchun yoqilg‘i sarfi me‘yoriga qo‘shimcha 12 foiz. 1 litr dizel yoqilg‘isining kirim qiymati o‘rtacha 4000 so‘m. Isitish uskunasi ish vaqti shu oyda 120 soat, isitish uskunasi har soatlik ish vaqtiga yoqilg‘i sarfining qo‘shimcha me‘yori 0,25 litr.

**Topshiriq:**

Yuqorida keltirilgan shartli ma‘lumotlarga ko‘ra avtobusning bajargan ishiga to‘g‘ri keladigan va uning tannarxiga kiritilishi lozim bo‘lgan yoqilg‘ining miqdorini aniqlang

Tannarxga kiritiladigan summani aniqlang va tegishli buxgalteriya yozuvini bering.

### 13-masala

Taksi sifatida ishlatilayotgan Nexia vtomobilning yo‘l varaqalari bo‘yicha bosib o‘tgan yo‘li hisobot oyida 14000 km, har 100 km masofaga yoqilg‘i (benzin) sarfining bazaviy me‘yori 8,0 litr; qish davrida ishlaganlik uchun yoqilg‘i sarfi me‘yoriga qo‘shimcha 10 foiz. 1 litr benzinning kirim qiymati o‘rtacha 3800 so‘m.

#### Topshiriq

Yuqorida keltirilgan shartli ma‘lumotlarga ko‘ra, avtomobilning bajargan ishiga to‘g‘ri keladigan va uning tannarxiga kiritilishi lozim bo‘lgan yoqilg‘ining miqdorini aniqlang.

### 14-masala

Qiymati 560000 so‘mlik 2x2V-88 markali akkumulyator hisobot yilining 15-sentyabrida ATVga o‘rnatildi. Akkumulyatorning foydali xizmat muddati 80 ming km. Hisobot yilining oylari bo‘yicha ATV tomonidan bosib o‘tilgan yo‘l quyidagicha: sentyabrda - 4000 km; oktyabrda - 7500 km; noyabrda - 8000 km; dekabrda - 6000 km.

Yuqoridagi shartli ma‘lumotlar asosida akkumulyatorning hisobot yili oylari bo‘yicha hisobdan chiqariladigan va bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan qiymatini quyidagi jadvalga hisob-kitob qiling:

Oylar	Bosib o‘tilgan yo‘l, km	Hisobdan chiqarish me‘yori, so‘m	Hisobdan chiqarish summasi, so‘m	Buxgalteriya yozuvi	
				debet	kredit
Sentabr					
Oktabr					
Noyabr					
Dekabr					
<b>Jami hisobot yilida</b>					

### **15-masala**

“8-avtobus saroyi” AJ xodimiga yanvar oyida 2 500 000 so‘m ish haqi, 8 000 000 so‘m mukofot hisoblangan. Xodimning ish haqini hisoblang va tegishli buxgalteriya yozuvlarini bering.

### **16-masala**

“8-avtobus saroyi” AJ xodimiga yanvar oyida 2500 000 so‘m, fevral oyida 1800 000 so‘m, mart oyida 2200 000 so‘m ish haqi hisoblangan. O‘sib boruvchi usulda ish haqidan daromad solig‘ini hisoblang va tegishli buxgalteriya yozuvini bering.

### **17-masala**

“8-avtobus saroyi” AJ xodimiga yanvar oyida 2500 000 so‘m, fevral oyida 1800 000 so‘m, mart oyida 2200 000 so‘m, aprel oyida 2500 000 so‘m, 1000000 so‘m mukofot, may oyida 650 000 so‘m ish haqi hisoblangan. Ish haqidan ushlanmalarni hisoblang, xodimning qo‘lga oladigan summasini aniqlang va tegishli buxgalteriya yozuvlarini bering.

### **18-masala**

**Yuk tashish transportida bajariladigan ish (ko‘rsatiladigan xizmat) reja tannarxi hamda shartnoma baholarining hisob-kitobi**

ATV markasi – GAZ-53.

Yuk ko‘tarish me‘yori – 5 tonna.

Yoqilg‘i turi – suyultirilgan gaz.

Kalkulyatsiya birligi - 1 soatlik ish.

ATVning ish vaqti - 8 soat.

Bosib o‘tiladigan yo‘l -120 km.

<b>№</b>	<b>Xarajat moddalari</b>	<b>Summa</b>
1	Mehnat haqi: a) tarif bo‘yicha (8x100,46) b) mashinani ishga tayyorlash (23 x 1,67) v) toifa uchun, 25 % g) mukofot, 40 %	

	d) boshqa qo‘shimchalar, 9 %	
	Jami ish haqi xarajatlari	
2	Ijtimoiy sug‘urtaga ajratma (24 %)	
3	Yoqilg‘i (27 x 120/100 x 241,37)	
4	Moylash materiallari (872,89 x 1,09 x 1,2 x 0,324)	
5	Avtoshina eskirishi (151250 x 6 x 120/(1000 x 1,17)/(100 x 1,1))	
6	Ta‘mirlash fondiga ajratma (120 x 28,60)	
7	Amortizatsiya	
8	Gidravlika suyuqligi (15 x 0,87 x 1,5 x 2 x 95,49 x 8)	
9	Boshqa xarajatlar (jami xarajatdan 15%)	
10	Jami ishlab chiqarish xarajatlari (tannarx)	
11	Davr xarajatlari (tannarxdan 25%)	
12	Jami xarajatlar	
13	Rentabellik (jami xarajatlardan 20%)	
14	Jami xizmat qiymati (QQSsiz)	
15	1 soatlik ishning: -tannarxi -sotish qiymati (QQSsiz)	

### **Mavzuga oid test savollari**

**1. MTP xizmatlari qaysi guruh xarajatlarga kiradi?**

- a) asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga;
- b) umumishlab chiqarish xarajatlariga;
- c) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlariga;
- d) davr xarajatlariga.

**2. Avtomashina sotib olinganda unga zavod tomonidan o‘rnatilgan akkumulyator qiymati:**

- a) qo‘shiladi;
- b) ayriladi;
- c) davr xarajatlariga olib boriladi;
- d) asosiy ishlab chiqarish xarajatlariga olib boriladi

**3. Avtotransport - bu:**

- a) transport tarmog‘ining sohasi;
- b) jarayon;
- c) faoliyat turi;
- d) oldingi barcha javoblarning barchasi to‘g‘ri.

**4. Avtotransport korxonalarining asosiy faoliyatiga kiradi:**

- a) yuk tashish;
- b) yo‘lovchi tashish;
- c) xizmatlarni reklama qilish;
- d) yuqorida sanab o‘tilganlarning barchasi.

**5. Avtotransport korxonasi hisob siyosatini belgilaydi:**

- a) Vazirlar Mahkamasi;
- b) O‘zavto va daryo transporti agentligi;
- c) korxonaning rahbariyat organi;
- d) bosh buxgalter.

**Nazorat uchun savollar**

1. Avtotransport tashkilotlarida buxgalteriya hisobi xususiyatlarini yoritib bering.
2. Avtotransport korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralariga nimalar kiradi?
3. Avtomobil yoqilg‘ilarining hisobi qanday yuritiladi?
4. Avtomobillarga ehtiyot qismlar qo‘yilganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

### **III bob. SAVDO VA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI**

#### **1. Savdo korxonalarining buxgalteriya hisobi subyektlari sifatidagi tasnifi, tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari**

Savdo yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlikning bir turi hisoblanadi. U ishlab chiqarish sohasini iste'mol sohasi bilan bog'lovchi bo'g'indir. Savdosiz yaratilgan mahsulotlar o'z iste'molchilariga yetib bormaydi. Demak, savdo makon va zamonda takror ishlab chiqarishni amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Savdo tovar-pul munosabatlarining majmuasidir. Ushbu munosabatlarda bir tomondan sotuvchi, ikkinchi tomondan esa sotib oluvchi ishtirok etadi. Tovar-pul munosabatlari majmuasi savdoni iqtisodiyotning maxsus tarmog'i darajasida harakat qilishiga olib keladi.

Savdo faoliyatini turli belgilari bo'yicha guruhlash mumkin.

Amal qilish hududiga ko'ra savdo faoliyati ichki va tashqi savdoga bo'linadi.

Ichki savdo – bir mamlakat hududi chegarasida amalga oshiriladigan savdo faoliyati.

Tashqi savdo – mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahalliy tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish faoliyati. Tashqi savdo faoliyati, boshqachasiga, eksport deb ham ataladi.

Tovarlar savdo-sotig'ini amalga oshirish va unda qo'llaniladigan hisob-kitoblarning shakliga ko'ra savdo ulgurji, mayda ulgurji va chakana savdo turlariga bo'linadi.

Ulgurji savdo – savdo sohasida tovarlarning yirik turkumlarini o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz shakli bo'yicha, uni tijorat tadbirkorlik faoliyati maqsadida yoki o'z ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanishni mo'ljallayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish.

Ulgurji savdo ham ichki, ham tashqi savdo faoliyati bo'lishligi mumkin.

Mayda ulgurji savdo – savdo sohasida tovarlarni kichik turkumlar bilan o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz va naqd pul shakllari bo'yicha sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Mayda ulgurji savdo faqat ichki savdo faoliyati hisoblanadi. Ushbu savdo faoliyati chakana savdo korxonalari, ulgurji savdo korxonalari va yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan turg'un savdo shohobchalari hamda iste'mol buyum bozorlarida ajratilgan joylar orqali amalga oshiriladi.

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish. Ushbu savdo faqat ichki savdo faoliyati hisoblanadi.

Chakana savdo yurituvchi shaxslarning nufuziga ko'ra savdo faoliyati jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar tomonidan olib boriladigan savdoga bo'linadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo faoliyati deganda yuridik shaxs maqomisiz mahalliy hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan va savdo faoliyatini yuritish huquqiga ega bo'lgan xususiy tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan savdo tushuniladi. Bunday xususiy tadbirkorlar savdo faoliyatini o'zlarining xususiy savdo do'konlari yoki buyum bozorlarida ajratilgan joylar orqali amalga oshiradilar.

Yuridik shaxslar tomonidan olib boriladigan savdo faoliyati deganda yuridik shaxs sifatida mahalliy hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan va savdo faoliyatini yuritish huquqiga ega bo'lgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan savdo tushuniladi. Bunday korxonalar savdo faoliyatini o'zlarining savdo do'konlari, shohobchalari, bazalari, omborlari yoki buyum bozorlarida ajratilgan savdo tarmoqlari orqali amalga oshiradilar. Yuridik shaxslar savdoning barcha turlarini olib boradilar.



Tovarlarning guruhlariga ko‘ra savdo oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari savdosiga, guruhlar ichida esa alohida quyi guruh tovarlari savdosiga, masalan, non va non mahsulotlari savdosi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosi, alkogol va alkogolsiz ichimliklar savdosi, xo‘jalik mollari savdosi, qurilish materiallari savdosi, avtomobillar savdosi, avtomobillar yoqilg‘isi savdosi, aralash mollar savdosi, dori-darmonlar savdosi, tibbiy texnika va optika tovarlari savdosi, tilla buyumlar savdosi va shu kabi boshqa turlarga bo‘linadi.

Savdo faoliyatining barcha turlari, ularni amalga oshirish shartlari va tartibi respublikamizda davlat tomonidan qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar bilan qat’iy tartibga solinadi. Respublikamizda ulgurji savdo litsenziyalashtiriladigan, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish esa litsenziyalashtirilmaydigan faoliyat turiga kiradi. Alohida olingan tovarlarning, masalan, alkogolli ichimliklarning sotilishi maxsus ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladi.

Savdo faoliyatining turlariga va davlat statistika organlari beradigan tarmoq (faoliyat) kodiga ko‘ra savdo korxonalarini quyidagilarga bo‘linadi:

Ulgurji savdo (71100);

Chakana savdo (71200);

Umumiy ovqatlanish (71300).

Ulgurji va chakana savdo korxonalariga, o‘z navbatida, mulkiy shakli, sotadigan tovarlarining turlari bo‘yicha maxsus ichki savdo tarmog‘i kodlari beriladi.

Savdo korxonalarining tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab beruvchi mezonlardan biri bo‘lib belgilangan ustav fondini o‘z vaqtida (davlat ro‘yxatidan o‘tgan kundan boshlab bir yil muddatda) shakllantirish hisoblanadi. Ustav fondining chegaralangan miqdori faqat xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga, shuningdek, ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslarga taalluqlidir. Jumladan, ulgurji savdo faoliyati bilan shug‘ullanishni mo‘ljallagan mahalliy korxonalar uchun eng kam ish haqining kamida 3500 baravarini, shundan eng kam ish

haqining kamida 1200 baravaridagi miqdori pul mablag'larini tashkil etishi lozim.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish bilan shug'ullanuvchi mahalliy yuridik shaxslar uchun ustav fondining chegaralangan miqdori davlat tomonidan belgilanmagan. Faqat qonun hujjatlariga muvofiq ularning muassislari korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazishgacha ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining 30 foizidagi miqdorini pul mablag'lari bilan oldindan kirishlari va bu bank hujjatlari bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Agar tadbirkorlik subyekti ustav fondi yoki uning bir qismi mulkiy ulush (ko'chmas mulk, asbob-uskunalar va boshqalar) yoki intellektual mulk hisobiga shakllantirilgan taqdirda bank ma'lumotnomasi talab qilinmaydi.

## **2. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari va uni tashkil qilishning xususiyatlari**

Savdo korxonalarining buxgalteriya hisobining vazifalariga quyidagilar kiradi:

tovar aylanmasining miqdorini hujjatli asosga ega bo'lishni ta'minlash, uni hisob registr va hisobotlarda to'g'ri aks ettirish;

tuzilgan shartnomalarni bajarilayotganligini, tovarlarning kirim va chiqimiga tegishli bo'lgan boshlang'ich hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirilishini ta'minlash.

tovarlarning sotish, baholarini to'g'ri shakllanganligini nazorat qilish;

tovarlarni xaridorlarga yetkazishgacha bajarilgan transport-tirovka, saqlash, o'rash, qadoqlash, saralash va shu kabi qo'shimcha jarayonlar majmuasini hujjatlarda o'z vaqtida va to'g'ri aks ettirish, ularga sarflangan mablag'larni aniq summasini ifodalash;

tovar-pul munosabatlari orqali pul mablag'larini to'plash;

savdo korxonalarida yuz beradigan tovar-pul operatsiyalarini o'z vaqtida, to'g'ri hujjatlantirish, guruhlash va jamlanishini ta'minlash;

amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining qonuniyligi va tovar-moddiy boyliklar butligini ta'minlash;

tovar-moddiy boyliklarning saqlanish joylarida ombor hisobini belgilangan usul va shakllarda, shuningdek hisob registrlari hisoblangan kitob, kartochna yoki qaydnomalarni o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

barcha moddiy javobgar shaxslar faoliyati ustidan qat'i nazoratni olib borish, moddiy javobgar shaxslar bilan tuzilgan moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar shartiga to'liq amal qilinayotganligi to'g'risida rahbariyatga haqqoniy axborotlarni berib borish;

tovar-moddiy boyliklar bo'yicha baho siyosatini to'g'ri shakllantirish va ushbu siyosatni to'g'ri amalga oshirilishi ustidan doimiy nazoratni olib borish;

savdo shoxobchalari va omborlardagi tovar-moddiy boyliklarni real holatini belgilangan muddatlarda inventarizatsiyasini o'tkazib turish.

Savdo korxonalarida bir-birlaridan tovar operatsiyalarini tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish bo'yicha ham farq qiladi. Jumladan, ulgurji savdo korxonalaridagi tovar operatsiyalarining xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, bironta tovar-moddiy boylikning kirim va chiqimi bu yerda tegishli hujjatlarni rasmiylashtirmasdan turib amalga oshirilmaydi. Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida, aksincha, har bir tovar operatsiyasini hujjatlashtirib bo'lmaydi. Omborlardan tovarlar faqat naqd pulsiz hisob-kitoblar asosida sotiladi, chakana savdo va umumiy ovqatlanishda esa tovarlar asosan naqd pulga, ayrim hollarda kichik ulgurji shaklda naqdsiz sotilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga (BHMS), shu jumladan 4-sonli BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar"ga, muvofiq tovar-moddiy boyliklarni hisobga olishning ikkita tizimi, ya'ni davriy va uzluksiz tizimini qo'llash mumkin.

Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining yuqorida tavsiflangan xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tovar-moddiy

boyliklar hisobini uzluksiz tizimini qo'llash zarurati va shart-sharoitlari mavjud. Ushbu tizimning mohiyati shundaki, tovar-moddiy boyliklarning barcha kirim va chiqimining hisobi aniq boshlang'ich hujjatlar asosida yuritiladi. Jumladan, tovarlarning sotilishi xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalarda ko'rsatilgan baholarda ularni sotilganligiga guvohlik beruvchi schyot-fakturalar asosida hisobga olib boriladi. Sotilgan tovarlarning tannarxi ularning kirim hujjatlarida ko'rsatilgan baholari bo'yicha aniq hujjatlar asosida topiladi va hisobga olinadi. Bu, o'z navbatida, sotishdan olingan daromadlarni har bir tovar bo'yicha hujjatli asosda topish imkonini beradi.

Chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida har bir tovarning sotilishini qat'iy hujjatlashtirish imkoni mavjud bo'lmasligi ularida TMBlar hisobining davriy tizimini qo'llashni taqozo etadi.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri tovar-moddiy boyliklarning holati va harakati bo'yicha sintetik va tahliliy hisobni yuritish hisoblanadi. 21-sonli BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma"ga muvofiq tovarlarning sintetik hisobini barcha savdo korxonalarida quyidagi schyotlarda olib borish nazarda tutilgan.

2910 "Ombordagi tovarlar". Ombordagi tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida hisob bahosi bo'lib tannarx, ya'ni sotib olish bahosi (tayyorlov-transport va boshqa sotib olishga doir xarajatlar bilan birgalikdagi) hisoblanadi.

2920 "Chakana savdodagi tovarlar". Chakana savdo shoxobchalari (savdo do'kon, palatka, laryok, kioska va boshqalar)dagi tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarining chakana savdo shoxobchalarida hisob bahosi bo'lib sotish bahosi, ya'ni savdo ustamolari bilan birgalikdagi hisoblangan chakana baho hisoblanadi.

2930 “Ko‘rgazmadagi tovarlar“. Ko‘rgazma zallariga qo‘yilgan tovarlarning qoldig‘i va ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2940 “Vaqtincha foydalanishga (prokatga) berilgan tovarlar“. Vaqtincha foydalanishga (prokatga) berilgan tovarlarning qoldig‘i va ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2950 “Tovar ostidagi va qaytariladigan idishlar“. Tovar ostidagi va qaytariladigan taralarning qoldig‘i va ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida hisob bahosi bo‘lib tannarx, ya’ni sotib olish bahosi yoki o‘rtacha hisob bahosi hisoblanadi.

2960 “Komissiya (vositachilik) orqali sotishga berilgan tovarlar“. Shartnomalar asosida boshqa korxonalariga komissiya va konsignatsiya shartnomalari asosida berilgan tovarlarning qoldig‘i va ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2970 “Yo‘ldagi tovarlar“. Guvohlik beruvchi boshlang‘ich hujjatlari asosida hisobga kiritilgan lekin oy oxirida yo‘lda bo‘lganligi uchun omborlarga kirim qilinmagan tovarlarning qoldig‘i va ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2980 “Savdo ustamasi“. Hisob bahosining tarkibiy elementi, chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridagi tovarlarning sotib olish baholari ustiga qo‘yilgan savdo ustamalarining qoldig‘i va ko‘payishi kreditida, kamayishi esa debetida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida faqat chakana savdo shoxobchalaridagi tovarlar bo‘yicha qo‘llaniladi.

2990 “Boshqa tovarlar“. Yuqoridagi schyotlarda aks ettirilmay qolingan tovarlarning qoldig‘i va ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

### **1-masala**

2020-yil 18-mayda “Gulshan” savdo korxonasi “STAR” MChJ bilan 50000 ming so‘mlik xomashyo va materiallar sotib olish

buyicha sharnoma tuzildi. 22.05.2020 sanada oldindan avans 30 % miqdorda berildi. Xomashyo va materiallar sotib olishda vasitachilik tashkilotidan foydalanilgan xizmat xaqi sotib olish bo'yicha sharnomaning 15 % miqdorida. 25.05.2020 sanada mahsulot "Tezkor xizmat" MChJ tomonidan yetkazilib berildi. Transport xarajati 1500 ming so'mni tashkil qildi. Xomashyo va materiallarni yuklash-tushirish tayyorlash ishlari "Gulshan" savdo korxonasi hodimlari tomonidan amalga oshirildi. Yuklash-tushirish tayyorlash ishlari 1200 ming so'mni tashkil qildi. 26.05.2020-yil 26-mayda "Gulshan" savdo korxonasi "STAR" MChJdan bo'lgan majburiyati to'ldi.

**Talab qilinadi:**

"Gulshan" savdo korxonasida sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlarini buxgalteriya o'tkazmalarida aks ettiring.

Xomashyo va materiallarning tannarxini aniqlang.

## **2-masala**

2020-yil 18-mayda "FAYZ" savdo korxonasi rahbari buyrug'iga asosan xomashyo ombori inventarizatsiyadan o'tkazildi. Inventarizatsiya natijasida 2000 ming so'mlik xomashyo kamomadi va 200 ming so'mlik ortiqcha qurilish materillari aniqlandi. Inventarizatsiya dalolatnomasiga asosan kamomad moddiy javobgar shaxs B.Jabborovdan bozor qiymatida undirilib olinadi. Xomashyolarning bozor qiymati 2300 ming so'mni tashkil qiladi. B.Jabborov arizasiga asosan kamomadning 40 %i oylik ish haqidan ushlab qolindi va qolgan qismi naqd pulda to'landi.

**Talab qilinadi:**

1."Fayz" savdo korxonasida sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlarini buxgalteriya o'tkazmalarida aks ettiring.

Sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlari natijasida "Fayz" savdo korxonasi qanday foyda yoki zararga ega bo'lgan.

### **3-masala**

“Millano” ulgurji savdo korxonasi 2020-yil 21-iyulda tovarlar qoldig‘i 75000 ming so‘mni, savdo ustamasi esa 4540 ming so‘mni tashkil qiladi. 2020-yil 23-iyulda “Millano” ulgurji savdo korxonasi 45000 ming so‘mlik tovarlar sotib olindi. Sotib olingan tovarlarning savdo ustamasi tovarlar qiymatining 7 %ini tashkil qiladi. 29.07.2020-yil 29-iyulda “Millano” ulgurji savdo korxonasi 80000 ming so‘mlik tovarlar sotilgan.

#### **Talab qilinadi:**

“Millano” ulgurji savdo korxonasi sodir bo‘lgan xo‘jalik jarayonlarini buxgalteriya o‘tkazmalarida aks ettiring.

Sotilgan tovarlarga to‘g‘ri keladigan savdo ustamasini toping.

### **4-masala**

“Makon” savdo korxonasi 2020-yil 22-fevralda 42000 ming so‘mlik tovar oldi-sotdi shartnomasini tuzdi. Xaridorlardan 25.02.2020-yil 25-fevralda 25 % foiz miqdorida avans kelib tushdi. Tovarlar 26.02.2020-yil 26-fevralda xaridorlarga jo‘natildi. Sotilgan tovarlarga to‘g‘ri keladigan savdo ustamasi 3400 ming so‘mni, sotilgan tovarlarning tannarxi esa 29900 ming so‘mni tashkil qiladi. Hisobot davrida xaridorlar qarzini naxd pulda to‘ladi.

#### **Talab qilinadi:**

“Makon” savdo korxonasi sodir bo‘lgan xo‘jalik jarayonlarini buxgalteriya o‘tkazmalarida aks ettiring va sotilgan tovarlarning tannarxi yopilishini aks ettiring.

### **5-masala**

Ulgurji savdo korxonasi 2020-yil 15-yanvar kuni 5-son schyot faktura bilan gilam to‘qish fabrikasidan quyidagi tovarlar qabul qilindi:

№	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Soni	Bahosi	Jo'natish qiymati	QQS, 15 %	To'lov summasi
1	Gilam 1,4*1,8	Dona	250	150000			
2	Gilam 1,8*2,6	Dona	500	200000			
3	Gilam 2*3	Dona	150	560000			
	Jami						

Qo'shimcha axborotlar:

Tashib keltirish xarajatlari - 1500000 so'm, sertifikat xarajatlari -134000 so'm, brokerlik xizmati –260000 so'm.

### Topshiriq:

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida birbirlik gilam mahsulotlarining sotib olish qiymati ularning turlari bo'yicha quyidagi jadvalda hisob- kitob qiling

### Birbirlik gilam mahsulotlarini sotib olish qiymati (tannarxi)ning hisob-kitobi

№	Tovarning nomi	Shartnom a bahosi	QQS, 20%	Xizmat xarajatlari		Sotib olish qiymati (tannarx)
				%	summa	
1	2	3	4*	5**	6***	7****
1	Gilam 1,4*1,8					
2	Gilam 1,8*2,6					
3	Gilam 2*3					

### 6-masala

1,4\*1,8 200 dona gilam, 1,8\*2,6 150 dona gilam, 2\*3 100 dona gilam Turkiya davlatidan sotib olingan, deylik. BYuD ga muvofiq tovarlarning bojxona qiymati quyidagicha: a) gilam 1,4\* 1,8 – 20,65 AQSh dollari; b) gilam 1,8\* 2,6 – 30,20 AQSh dollari; v) gilam 2\*3 – 50 AQSh dollari. Sotib olishga doir xarajatlar xuddi 2800000 so'm. Tovarlarini sotib olish qiymati (tannarxi) ga bojxona to'lovlari



ham kiritiladi, jumladan gilam mahsulotlari uchun to'lovlar quyidagicha belgilangan deylik: a) aksiz solig'i – 90 %, QQS –15 %; bojxona boji – yo'q, bojxona yig'imi – bojxona qiymatidan 25%. Sotib olish sanasiga kurs – 8100 so'm.

### Topshiriq:

Ushbu misolga asosan bir birlik import gilam mahsulotlarining sotib olish qiymatini ularning turlari bo'yicha quyidagi jadvalga hisob-kitob qiling:

### 3-jadval

#### Import tovarlar tannarxining hisob-kitobi

№	Sotib olish qiymati (tannarxi) elementlari	Tovar guruhlari bo'yicha summa		
		1,4*1,8	1,8*2,6	2*3
1.	Tovar qiymati, A)AQSh dollarida B) so'mda			
2.	Bojxona to'lovlari, jami			
	Shu jumladan			
2a.	Aksiz solig'i (90%)*			
2b.	QQS (15%)**			
2v.	Bojxona boji ***	-	-	-
2g.	Bojxona yig'imi (bojxona qiymatidan 25%)****			
3.	Bir birlik tovarni sotib olishga sarflangan qo'shimcha xarajatlar:			
3a.	Foizlarda *****			
3b.	so'mda ( 3a x 1b/100)			
4.	Bir birlik tovarni jami sotib olish qiymati (tannarxi), so'mda (1+2+3b)			

### 7-Masala

“Makon” savdo korxonasi hisobot davrida 147440 ming so'mlik tovarlar sotgan. Sotilgan tovarlar tannarxi 125470 ming so'mni tashkil qiladi. Sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamasi 13770 ming so'mni. Asosiy vositalar chiqib ketishidan foyda 2560 ming so'm, davr xarajatlari 12255 ming so'm, foiz ko'rinishidagi daromadlar esa 425 ming so'mni tashkil qildi. Hisobot davrida savdo korxonasi 3000 ming so'mlik beg'araz

yordam olgan. “Makon” savdo korxonasi yagona soliq tulovchisi hisoblanadi (4%).

### Talab qilinadi:

1. “Makon” savdo korxonasida hisobot davridagi yakuniy moliyaviy natijalarni toping.

#### 8-masala

2020-yil 29-dekabrda “Nurli olam” savdo korxonasi “Imkon” qurilish tashkilotiga tovarlar sotdi.

### Schyot-faktura № Tovar yuk jo‘natish xujjati № 3-108-2015-00815-008 29.12.2020

Mol yetkazib beruvchi:	<b>“Nurli olam“</b>	Xaridor:	<b>Imkon MChJ</b>
Manzil:	Yunusobod tumani shirin ko‘chasi	Manzil:	Yunusobod tumani Murabbiy ko‘chasi
Telefon raqami:	9989947858	Telefon raqami:	+998951371520
H/sch:	2020800020542278955 2	X/sch:	20208000205420729001
Shahar:		Shahar:	Tashkent Hamkorbank filialida
MFO:	00444	MFO:	00443
STIR:	254865852	STIR:	203687583
OKONX:	14554	OKONX:	13146

№	Tovar nomi (ish, xizmat)	O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi	Yetkazish qiymati	Aksiz solig‘i		QQS		QQS bilan qiymati
						%	Sum ma	%	Sum ma	
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Sement	Sum				siz	aksiz	siz	QQS	
<b>Itogo:</b>										

**Jami to‘lov:** \_\_\_\_\_ . QQS  
siz

Raxbar: \_\_\_\_\_  
Bosh buxgalter: \_\_\_\_\_  
Tovar jo‘natuvchi: \_\_\_\_\_

Qabul qiluvchi: \_\_\_\_\_  
Ishonchnoma: \_\_\_\_\_

Qabul qiluvchi FISH

M.o‘.

### **Talab qilinadi:**

1. “Nurli olam” savdo korxonasining buxgalteriya bo‘limida schyot-fakturaga asosan buxgalteriya o‘tkazmasini bering.

### **9-masala**

Yilning birinchi yarmida (oldingi va keyingi inventarizatsiya davrida) 360 tonna shakar sotildi. Ushbu davr oylari boshidagi tovar zaxiralari quyidagicha: 1.01. ga – 30 tonna, 1.02. ga – 25 tonna, 1.03.ga –40 tonna, 1.04.ga – 50 tonna, 1.05.ga 20 tonna, 1.06.ga 10 tonna, 1.07.ga 8 tonna. 1-yarim yillikdagi kunlar soni 180 kun.

### **Topshiriq:**

Yuqoridagi shartli ma’lumotlarga ko‘ra bir kunlik sotish miqdorini, shakarning 1-yarim yillik uchun o‘rtacha zaxirasi miqdorini aniqlang.

### **10-masala**

Ulgurji savdo korxonalariga tovarlarning ta’minotchilardan sotib olinishi va kirim qilinishiga doir operatsiyalarni hisobga olishda 2 usuldan foydalanib buxgalteriya yozuvlarini bering.

### **Tovarlar kirimini turli usullarda schyotlarda aks ettirish tartibi**

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa		1-usul		2-usul		Asos
		1-usul	2-usul	D-t	K-t	D-t	K-t	
1	Ta’minotchilardan sotib olingan tovarlarning sotib olish qiymatidagi summasi	400000 0	400000 0					
2	Transport tashkilotining tovarlarni tashib keltirish bo‘yicha ko‘rsatgan xizmat-lari summasi	100000	100000					
3	Brokerlik, vositachilik,	300000	300000					

	sertifikatlash va boshqa tovarlarni sotish holiga keltirish bog'liq xarajatlar summasi							
4	Import tovarlar bo'yicha bojxona to'lovlari (aksiz, QQS, bojxona boji, bojxona yig'imi) summasi	900000	900000					
5.	Sotib olingan tovarlarni omborlarga sotib olish qiymati, ya'ni tannarxi bo'yicha kirim qilinishiga		520000 0					
	<b>Jami tovar qiymati</b>	<b>520000 0</b>	<b>520000 0</b>					

**11-masala**  
**Tovar qaytarilishiga doir operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish tartibi**

№	Operatsiya mazmuni	Summa	Schyotlar korrespondensiyasi		Asos
			debet	kredit	
1	Xaridorlardan kelib tushgan oldindan to'lov summasi qaytarilishi	300000			Bank ko'chirmasi
2	Xaridorlar tomonidan qaytarilgan tovarlarning sotish bahosidagi qiymati	2000000			Schyot-faktura
3	Qaytarilgan tovarlar tannarxini ifodalovchi summa:				Schyot-faktura, kirim

	a) tovarlarning sotib olish bahosidagi summasi b) qaytarilgan tovarlarga to'g'ri keluvchi sotib olishga doir qo'shimcha xarajatlar summasi	1600000 150000			dalolatnomasi
4	Xaridorga kelib tushgan oxirgi to'lov qaytarilishi	1700000			Bank ko'chirmasi
5	Qaytarilgan tovarlar bo'yicha sotishdan olingan daromad kamaytirilishi (9040 schyotni yopilishiga)	2000000			Bosh kitob

### Topshiriq

Yuqoridagi xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya yozuvlarini bering.

### 12-masala

#### Tovarlarning boshqa chiqimlarini schyotlarda aks ettirish tartibi

№	Operatsiya mazmuni	Summa	Schyotlar korrespondensiyasi		Asos
			tebet	kredit	
1	Tovarlarni investitsiya sifatida kiritilishi:				Ta'sis hujjatlari, schyot faktura, bosh kitob ma'lumotlari
	a) kelishuv qiymati	500000			
	b) tovarlarning tannarxi bo'yicha hisobdan chiqarilishi	450000			
	v) investitsiyadan ko'rilgan daromad summasini hisobot davri oxirida	500000			
		450000			

	moliyaviy natijalar schyotiga o'tkazilishi g) investitsiya sifatida kiritilgan tovarlar tannarxini hisobot davri oxirida moliyaviy natijalar schyotiga o'tkazilishi				
2	Tovarlarning bepul berilishi: a) kelishuv qiymatiga b) tannarxiga v) bepul berishdan ko'rilgan zarar summasiga	100000 100000 100000			Qaror, shartnoma, schyot-faktura
3	Xo'jalik inventarlariga aylan-tirilgan tovarlar tannarxi	60000			Qaror, dalolatnomasi

### 13-masala

“Fayz” savdo korxonasiga kollejni tamomlagan talaba 1-avgustdan ishga kirdi. Talaba “Fayz” savdo korxonasining xomashyo omborida elektrik lavozimiga 4 razryad asosida qabul kilingan. Talaba ish vaqtidan tashqari qo'shimcha tovarlarni qadoqlash bo'limida ishlagan. Talabaga qo'shimcha ishlaganligi uchun 1000 ming so'm to'landi. (Eng kam ish haqi 202320 so'm)

#### Talab qilinadi:

1. “Fayz” savdo korxonasida bo'lgan xo'jalik jarayonlarini buxgalteriya o'tkazmalarida aks ettiring.

2. Talabadan ushlanishi lozim bo'lgan soliq va ajratmalarni toping va buxgalteriya o'tkazmalarida aks ettiring.

### 14-masala

“SAMO” savdo korxonasi hisobot davrida 2 xil tovar qoldiqqa ega. A-tovar 500 dona 3000 so'mdan, B-tovar 320 ta 4500 so'mdan. Yanvar oyida A tovardan 3000 so'mdan 100 ta sotib olindi.

Fevral oyida B tovardan 120 ta 4500 soʻmdan sotib olindi. May oyida A tovardan 320 tasi 4800 soʻmdan sotildi. Iyul oyida esa B tovardan 190 tasi 5640 soʻmdan sotildi. Dekabr oyida A tovardan 140 tasi 5000 soʻmdan sotildi.

**Talab qilinadi:**

1. “SAMO” savdo korxonasida boʻlgan xoʻjalik jarayonlarini buxgalteriya oʻtkazmalarida aks ettiring( uzluksiz hisob tizimida).
2. Moliyaviy natijalarni aniqlang.

**15-masala**

“SOY” umumiy ovqatlanish korxonasi chet yel korxonasi bilan mevalar yetkazib berish boʻyicha 2020-yil 20-oktyabrda 600 AQSh dollarli shartnoma tuzdi. Shartnomaga asosan oldindan toʻlov 50 % miqdorida. 2020-yil 25-oktyabrda oldindan toʻlov oʻtkazildi. Mevalar 2020-yil 29-oktyabrda olib kelindi, transport xarajatlari 1800 ming soʻmni tashkil qildi. Mevalarga aksiz soligʻi 1200 ming soʻmni, bojxona yigʻimlari esa 100ming soʻmni tashkil qilgan..2020-yil 7-noyabr kuni qolgan qarz toʻlangan.

Qoʻshimcha malumot:

QQS-15%

Bojxona boji-10%

Dollar kursi:

2020-yil 20.10 1 AQSh dollari- 8200 soʻm

2020-yil 25.10 1 AQSh dollari- 8250 soʻm

2020-yil 29.10 1 AQSh dollari- 8286 soʻm

2020-yil 07.11 1 AQSh dollari- 8150 soʻm

**Talab qilinadi:**

1. “SOY” umumiy ovqatlanish korxonasida sodir boʻlgan xoʻjalik jarayonlarini buxgalteriya oʻtkazmalarida aks ettiring.
2. Mevalar tannarxini aniqlang.

**16-masala****Idishlarga doir operatsiyalarni schyotlarda aks ettiring**

№	Operatsiya mazmuni	Summa	Schyotlar korrespondensiyasi		Asos
			debet	kredit	
1	Ta'minotchilardan tovarlar bilan birgalikda olingan idishlarning sotib olish qiymati	200000			Schyot-faktura
2	Shu'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan kelib tushgan idishlarning sotib olish qiymati	1000000			Schyot-faktura
3	Ta'sischilardan kelib tushgan idishlarning kelishuv baholaridagi qiymati	50000			Ta'sis hujjatlari, schyot-faktura, kirim dalolatnomasi
4	Xorijiy ta'sischilardan ta'sis badali sifatida kelib tushgan idishlar bo'yicha				
	a) korraxona ro'yxatdan o'tgan sanadagi kurs bo'yicha hisoblangan kirim bahosidagi qiymat	5000000			Ta'sis hujjatlari, BYuD, kirim dalolatnomasi
	b) Kelib tushish va ta'sis sanalari o'rtasida vujudga kelgan kurs farqlari summasi	300000			BYuD, kirim dalolatnomasi, maxsus hisob-kitob
5	Bepul olingan idishlarning kelib tushish bahosidagi qiymati	500000			Shartnoma, schyot-faktura



6	Qarzga olingan idishlarni kelishuv baholaridagi qiymati	6000000			Shartnoma, schyot-faktura
7	Kirim qilingan idishlar qiymati ustiga qo'yilgan savdo ustamasi	1440000			Savdo ustamalari reyestri
8	Aholidan sotib olingan idishlarning sotib olish baholaridagi qiymati	30000			Dalolatnoma
9	Idishlarni ta'minotchilarga qaytarilishi	500000			Schyot-faktura
10	Idishlarning sinishi	20000			Dalolatnoma
11	Idishlarni sotilishi	600000			Schyot-faktura, KKO

### 17-masala

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida sotilgan tovarlarga to'g'ri keladigan savdo ustamalarining hisob-kitobini amalga oshiring va tegishli buxgalteriya yozuvlarini bering.

№	Savdo do'kon	Savdo ustamasi ( 2980-schyot)			Sotilgan tovarlar summasi (9020-schyotning kredit aylanmasi)
		bosh qoldiq (kredit)	kirim qilingan tovarlarga qo'yilgan ustama (kredit aylanmasi)	jami	
A	B	1	2	3	4
1.	“Xo'jalik tovarlari“	60000	300000		1600000
2.	“Oziq-ovqatlar“	50000	500000		2800000
	<i>Shu kabi boshqalar</i>				
	<b>Jami</b>	<b>110000</b>	<b>800000</b>		<b>4400000</b>

<b>Oy oxiridagi tovarlar summasi (2920-schyotning qoldig‘i)</b>	<b>Jami tovarlar summasi</b>	<b>Savdo ustamasining o‘rtacha foizi</b>	<b>Qoldiq tovarlarga to‘g‘ri keladigan savdo ustamasi</b>	<b>Sotilgan tovarlarga to‘g‘ri keladigan savdo ustamasi</b>
5	6	7	8	9
400000				
500000				
900000				

### **Keys ko‘rinishidagi masala**

“Savdo uyi” kompaniyasi to‘g‘risida ma’lumot:

“Savdo uyi” kompaniyasi savdo faoliyati bilan shug‘ullanadi. Kompaniya 2004-yilda tashkil topgan va aksionerlik jamiyat hisoblanadi.

Kompaniya buxgalteri to‘satdan betob qolishi munosabati bilan, kompaniya Sizga mustaqil auditorga 2020-yil uchun moliyaviy hisobot tayyorlab berishga murojat qilishga majbur bo‘ldi.

Kompaniyaning hisob siyosatiga binoan, moliyaviy hisobotni Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari asosida tayyorlashi lozim.

Kompaniya buxgalteri 2020-yil uchun barcha boshlang‘ich buxgalteriya provodkalarini bergan. Sizga 31-dekabr 2020-yil holatida sinov balansi, hamda korxonaning xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida qo‘shimcha axborot berildi.

Valyuta kursi

1 AQSh dollariga nisbatan almashtirish kursi quyidagicha:

2020-y. 1-may – 8100 so‘m

2020-y. 1-iyul – 8150 so‘m

2020-y. 1-dekabr – 8188 so‘m

2020-y.31-dekabr – 8240 so‘m

Zaruriyat tug‘ilganda korxonaga schyotlar rejasiga qo‘shimcha schyotlar kiriting.

## **Topshiriq**

Tuzuvchi jurnal o'tkazmalarini tayyorlang - hamma o'tkazmalarni hisob-kitoblar bilan izohlab bering.

Ishchi jadvalni to'lg'azing.

31-dekabr 2020-yil uchun buxgalteriya balansi tayyorlang

31-dekabr 2020-yil uchun moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tayyorlang

Buxgalteriya va soliq hisobi o'rtasida paydo bo'ladigan farqlarni tuzatish maqsadida daromad solig'i hisob-kitoblar shaklini to'ldiring

Siz tomondan tayyorlangan hisobotlar asosida quyidagi koeffitsiyentlarni hisoblang va izohlang:

joriy likvidlik koeffitsiyenti

qarz mablag'larning xususiy kapitalga nisbati koeffitsiyenti

yalpi daromad koeffitsiyenti

Asosiy vositalar va olinadigan schyotlar bo'yicha zarur yoritishlarni amalga oshiring.

Yopiladigan provodkalarini bermang.

Hisob-kitoblarda summalarni yaxlitlang.

Barcha hisob-kitoblarni oylik asosida amalga oshiring.

Kompaniya 2016-yilda ma'muriy maqsadlarda bino sotib oldi. Binoning foydali xizmat muddati 15 yil, tugatish qiymati 160000000 so'm. Kompaniya hisob siyosatiga binoan sonlar yig'indisi usulida eskirish hisoblaydi. Soliq maqsadlarida bino bo'yicha eskirish to'g'ri chiziqli usul bo'yicha hisoblanadi. 2020-yil uchun eskirish hisoblanmagan.

Kompaniya 1-yanvar 2016-yil 80 000 000 so'mga yuk avtomashinasini sotib oldi. Uning foydali xizmat muddati 5 yil yoki 12000 km. Tugatish qiymati 5000 000 so'm. Avtomashina 2017-yilda 2200 km, 2020-yilda esa 2400 km masofa bosib o'tgan. Hisob maqsadlarida ishlab chiqarish usuli, soliq maqsadlarida kamayib boruvchi qoldiq usuli qo'llaniladi.

Kompaniya shahar tashqarisida 1-oktyabr 2020-yilda qo'shimcha omborxonalarni qurishni boshladi. Qurilish bo'yicha xarajatlar quyidagilar: oktyabrda 45 mln so'm, noyabrda 40 mln

so‘m, dekabrda 13 mln so‘m. Shundan 60% qurilish materiallari, qolgan qismi qurilish kompaniyaning xizmat haqini tashkil qiladi. Dekabr oyidagi xarajatlar buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilmagan. Kompaniya ushbu qurilishni amalga oshirish uchun 1-noyabr 2020-yilda yillik 7% bilan 90 mln so‘m kredit oldi. Kompaniya hisob siyosatiga binoan qarzlarni bo‘yicha xarajatlar kapitalizatsiya qilinadi.

Kompaniya hisob siyosatiga binoan olinadigan schyotlar bo‘yicha debitorlik qarzlarning to‘lov muddatlari usulini qo‘llaydi. Olinadigan schyotlarning tahlili umumiy qarzning 33 mln so‘m muddati o‘tmagan, 13.5 mln so‘m 1 kundan 30 kungacha muddati o‘tgan, qolgan 88.50 mln so‘m 31 kundan 60 kungacha muddati o‘tgan debitorlik qarz ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu tarmoqda qabul qilingan me‘yorlarga binoan, kompaniya muddati o‘tmagan qarzlarni bo‘yicha 2%, 1 kundan 30 kungacha muddati o‘tgan qarzlarni bo‘yicha 15%, 31 kundan 60 kungacha muddati o‘tgan qarzlarni bo‘yicha 20% miqdorida dargumon qarzlarni bo‘yicha rezerv hisoblanadi. Dargumon qarzlarni bo‘yicha xarajatlar soliq maqsadlarida chegirilmaydi.

Kompaniya shahar markazida 1-may 2020-yilda omborni ijaraga oldi va bir yillik 18 mln so‘m ijara haqini to‘ladi va ijara xarajatlari schyotlarida aks ettirilgan.

Kompaniya 1-iyul 2020-yilda xorijdan 3000 AQSh dollari miqdoridagi ichimlik suvlarini kreditga oldi. Shartnomaga binoan kompaniya mol yetkazib beruvchiga 1-mart 2019-yilgacha to‘lashi mumkin. Hech qanday tuzatish yozuvlari berilmagan.

Xaridorlarning biri oy boshida tovarlar uchun 30 mln so‘m to‘ladi, unga tovarlar 15-yanvar 2019-yilda jo‘natiladi. Barcha summalar mahsulot sotishdan olingan daromad sifatida aks ettirgan. O‘tgan yilgi vaziyat qaytarilmoqda, 2020-yilda sotilgan tovarlar bo‘yicha daromad 2017-yilda tan olingan 14.25 mln so‘m. Hech qanday tuzatish provodkalari berilmagan.

Kompaniya hisob siyosatiga binoan TMZ davriy hisobini amalga oshiradi. Yil oxiridagi inventarizatsiya shuni ko‘rsatdiki, ombordagi TMZlar 59.4 mln so‘mni tashkil qiladi shu jumladan,

xaridorga jo‘natilmagan, biroq sotilgan 4.5 mln so‘m tovarlarni ham kiritilgan.

Kompaniya xodimlariga har oylik ish haqi keyingi oyning 3-sanasida to‘lanadi. Kompaniya xodimning ish haqidan 12% miqdorida daromad solig‘ini ushlab qolishi lozim. Dekabr oyida ma‘muriy xodimlar uchun ish haqi 3.3 mln so‘m, sotuvchilarning ish haqisi 5.2 mln so‘mni tashkil qiladi. Hech qanday buxgalteriya provodkasi berilmagan.

Mol yetkazib beruvchilarning biri kompaniyaga. 2020-yil 25-dekabrda 8. mln so‘m tovarni FOB jo‘natish manzili sharti bilan yuborgan, tovar 2019-yil 15-yanvarda keladi. Tovarlarni FOB jo‘natish manzili sharti degani, tovarlarga egalik qilish huquqi mol yetkazib beruvchidan xaridorga mahsulot ortib jo‘natilgan paytda o‘tadi deb hisoblanadi. Hech qanday buxgalteriya provodkasi berilmagan.

Kompaniya sof foydadan 15% miqdorida dividend e‘lon qildi. dividendlar 1-fevral 2019-yilda to‘lanadi. Hech qanday buxgalteriya provodkasi berilmagan.

Foyda solig‘i 12%ni tashkil qiladi.

### **Mavzuga oid testlar**

#### **1. Savdo faoliyati bilan kim shug‘ullanishi mumkin?**

- a) sanoat korxonasi;
- b) qurilish tashkiloti;
- c) faqat savdo korxonasi;
- d) savdo bilan shug‘ullanish uchun ruxsat guvohnomasiga ega har qanday korxon.

#### **2. Savdo faoliyati bilan shug‘ullanish uchun ruxsatnomani kim beradi?**

- a) Moliya vazirligi;
- b) Savdo vazirligi;
- c) Mahalliy davlat hokimiyati;
- d) Adliya vazirligi.

#### **3. Qanday korxonalar savdo korxonasi deb ataladi?**

- a) savdo bilan shug‘ullanuvchi sanoat korxonasi;
- b) savdo bilan shug‘ullanishga ruxsati bor qurilish tashkilotini;

- c) tarmoq kodi “savdo” bo‘lgan korxonani;
- d) savdo bilan shug‘ullanish uchun ruxsat guvohnomasiga ega har qanday korxonona.

**4. Ulgurji savdo faoliyati bilan kim shug‘ullanishi mumkin?**

- a) sanoat korxonasi;
- b) xususiy do‘kon;
- c) faqat savdo korxonasi;
- d) ushbu savdo turi bilan shug‘ullanish uchun ruxsat guvohnomasiga ega bo‘lgan har qanday korxonona.

**5. Tovarlarni sotilishidan olingan daromadga:**

- a) Debet 1510 Kredit 9020;
- b) Debet 4010 Kredit 9020;
- c) Debet 5010 Kredit 9020;
- d) To‘g‘ri javob yo‘q

**Nazorat savollari**

1. Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalarining mohiyatini aytib bering.
2. Tovar-moddiy boyliklarni sotib olish qiymati (tannarxi) va sotish baholari qanday aniqlanadi?
3. Ulgurji savdo korxonalarida tovar operatsiyalari qanday hujjatlarda rasmiylashtiriladi?
4. Ulgurji savdo korxonalarida tovarlarning ombor hisobini yuritish usullarini aytib bering.
5. Umumiy ovqatlanish korxonalarida tovar operatsiyalarining buxgalteriya hisobi qanday yuritiladi?
6. Savdo va umumiy avqatlanish korxonalarida buxgalteriya hisobi xususiyatlari nimalardan iborat?

## **IV BOB. QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI**

### **1. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining buxgalteriya hisobi subyekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy- huquqiy asoslari**

Qishloq xo‘jaligi respublikamiz xalq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib kelgan va u shunday tarmoqlardan biri bo‘lib qolmoqda. Buning negizida turli sabablar yotadi. Ya’ni:

birinchidan, respublikamiz aholisining 50 foizi qishloq joylarda yashaydi. Bu, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligini qishloq joylarda yashovchi aholini ish bilan ta’minlaydigan asosiy soha ekanligini bildiradi;

ikkinchidan, mamlakatimizning iqlim sharoiti va tabiiy resurslari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tez yetishtirish imkonini beradi;

uchinchidan, 34 milliondan ortiq aholisi bo‘lgan respublikamizda insonlarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabini mahalliy sharoitlardan kelib chiqib hal etish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi;

to‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi mamlakatimizning kun sayin rivojlanib borayotgan yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari korxonalarini arzon va sifatli mahalliy xom-ashyo va materiallar bilan ta’minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

beshinchidan, respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘pchilik turi boshqa mamlakatlarda yetarlicha emasligi, qishloq xo‘jaligini nafaqat ichki maqsadlardagi, balki eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqqa aylantirish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini respublikamizda rivojlantirish sabab va imkoniyatlari nafaqat yuqoridagilar bilan chegaralanadi. Ular to‘g‘risida juda ham ko‘p izohlarni berish mumkin. Bu izohlar qishloq xo‘jaligiga oid maxsus fanlarda atroflicha yoritilgan. Shu

bois ham, yuqoridagi izohlar bilan cheklangan holda, quyida qishloq xo‘jaligi korxonalarini buxgalteriya hisobining muhim subyektlari sifatidagi tashkiliy-huquqiy maqomlariga, ular faoliyatining hisob obyektlari sifatidagi xususiyatlariga to‘xtalamiz.

Rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish respublikamizda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining quyi bo‘g‘inini tashkil qiluvchi subyektlarning tashkiliy va huquqiy maqomida turli o‘zgarishlarga olib keldi. Ilgarilari asosan davlat va jamoa xo‘jaliklaridan iborat bo‘lgan qishloq xo‘jaligi korxonalari mustaqillik yillarida ko‘p o‘zgarishlarni o‘z boshidan o‘tkazdi. Chunonchi, davlat xo‘jaliklari tugatildi, ularning o‘rniga shirkat xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi kooperativlari, agrofimlar, dehqon-fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari, Shuningdek ularning uyushmalari tashkil qilindi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini buxgalteriya hisobi subyektlari sifatida turlicha tasniflash mumkin. Ushbu tasnifiy belgilar ichida qishloq xo‘jaligi korxonalarining turlari, sohasi, ixtisoslashganligi, xodimlarining soni, soliq to‘lash rejimi muhim o‘rin tutadi.

Turlariga ko‘ra qishloq xo‘jaligi korxonalari fermer xo‘jaliklariga, dehqon-fermer xo‘jaliklariga, shirkat xo‘jaliklariga, agrofimlarga bo‘linadi.

Sohasiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi korxonalari dehqonchilik va chorvachilik, shuningdek ushbu sohalarning har ikkalasiga ham doir bo‘lgan korxonalariga bo‘linadi.

Ixtisoslashganligiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi korxonalari dehqonchilik va chorvachilikning turli yo‘nalishidagi korxonalariga bo‘linadi. Masalan, chorvachilik sohasidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari qoramolchilik, qo‘ychilik, yilqichilik, cho‘chqachilik, parrandachilik va boshqa shu kabi sohalarga ixtisoslashgan. Dehqonchilik sohasidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari bog‘dorchilik, g‘allachilik, tamakichilik va boshqa yo‘nalishlardagi xo‘jaliklarga bo‘linadi. Agrofimlar ham qishloq xo‘jaligining u yoki bu sohasiga, shuningdek aralash sohalarga doir korxonalar hisoblanadi.



Xodimlarining soniga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonolari mikrofirmalar, kichik korxonalar, o'rta va yirik korxonalar bo'linadi. Respublikamizning qonun hujjatlariga ko'ra qishloq xo'jaligi tarmog'ida mikrofirmalar toifasiga kiruvchi korxonalar bo'lib xodimlarining soni 20 tagacha bo'lgan, kichik korxonalar bo'lib xodimlarining soni 50 tagacha bo'lgan korxonalar hisoblanadi. O'rta va yirik qishloq xo'jaligi korxonolari xodimlari sonining aniq miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanmagan.

Soliq to'lash rejimiga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonolari umumbelgilangan va ixchamlashtirilgan soliq rejimlarida ishlovchi korxonalar bo'linadi. Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi hamda ularni qayta ishlovchi qishloq xo'jaligi korxonolari faqat yagona yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Sotib olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash faoliyati, shuningdek savdo, vositachilik, xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jaligi korxonolari ushbu faoliyat turlari bo'yicha xodimlarining soniga qarab umumbelgilangan soliqlar yoki ixchamlashtirilgan soliq to'lovini ham to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobining eng muhim obyektlari bo'lib ularning faoliyat turlari, xo'jalik jarayonlari va operatsiyalari, mablag'lar, mablag'larni tashkil topish manbalari, daromad, xarajat, foyda va zararlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi korxonolari faoliyati asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlariga bo'linadi. Ularning asosiy faoliyatiga bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bog'liq faoliyat, asosiy bo'lmagan faoliyatiga esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga bevosita aloqasi bo'lmagan moliyaviy, investitsiya va boshqa faoliyat turlari kiradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha faoliyati ikki turga – dehqonchilik va chorvachilikka bo'linadi. Ushbu faoliyat turlari maxsus litsenziya talab qilmaydigan faoliyat hisoblanadi.

Dehqonchilik – bu bevosita inson va jonli hayvonlar tomonidan iste'mol qilinadigan, ishlab chiqarishga moddiy asos bo'lib hisoblanadigan o'simliklar, ekinlar, xom ashyo va materiallarni yetishtirish (ishlab chiqish) bilan bog'liq jarayonlar majmuasi.

Chorvachilik deganda mahsulot va nasl beradigan barcha jonli hayvonlarni yetishtirish bilan bog'liq jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Dehqonchilik va chorvachilik sohalarining buxgalteriya hisobi obyektlari sifatidagi xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Birinchi, dehqonchilik va chorvachilik faoliyatlari turli jarayonlardan tashkil topadi. Chunonchi, dehqonchilik o'z ichiga yerni shudgorlash va ekishga tayyorlash, urug'ni ekishga tayyorlash, urug'likni qadash, ekinni parvarishlash (sug'orish, yaganalash, chilpish, defoliatsiya qilish), hosilni terib olish va topshirish kabi xo'jalik ishlarini bajarishni talab qiladi. Chorvachilik mollarning tug'ilganligidan (sotib olinganligidan) boshlab, to ularni xo'jalik balansida turgan davri ichida parvarishlash, mahsulot (nasl) olish, mahsulotni topshirishgacha bo'lgan juda ham xilma-xil bo'lgan xo'jalik jarayonlarini bajarishni taqozo etadi. qishloq xo'jaligi korxonalarida yuz berayotgan ushbu jarayonlar son va sifat jihatdan turli o'lchov birliklarida o'z aksini buxgalteriya hisobida topadi.

Ikkinchi, dehqonchilik va chorvachilik boshqa ishlab chiqarish turlaridan o'zlarining davomiyligi, Shuningdek mavsumiyligi bilan farq qiladi. Misol uchun paxtani yetishtirish faoliyati yerni ekishga tayyorlashdan tortib, to hosilni yig'ishtirib olgunga qadar kamida 7-8 oy mobaynida olib boriladi. Buzoqni katta ona mollar tarkibiga o'tkazish uning birinchi tug'ishiga yetib kelganigacha qadar bo'lgan davrni (odatda, kamida ikki-uch yil) o'z ichiga oladi, xo'kizchani katta mollar tarkibiga o'tkazish eng kamida 18 oy yoki 1,5 yil davom etadi. Demak, dehqonchilik va chorvachilikning davomiylik xarakteriga ega bo'lishligi ularga qilinayotgan sarflarni va olinadigan mahsulotlar davrlarini bir-biriga mos emasligini ko'rsatadi. Chunonchi, mahsulotni yetishtirishga ketadigan jonli va buyumlashgan mehnat sarflari

to'xtovsiz, butun yil mobaynida davom etadi, hosilni yig'ishtirib olish esa yilning ma'lum davriga to'g'ri keladi. Bu o'z navbatida dehqonchilik va chorvachilikda tugallanmagan ishlab chiqarish jarayonini hisobot yili oylari bo'yicha, Shuningdek kelgusi davr uchun uzluksiz hisobga olib borish zaruratini tug'diradi. Aksariyat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishning mavsumiy xarakterga ega bo'lishi mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan notekis foydalanishga, shuningdek mavsumiy zaxiralarni yaratishni zarurat qilib qo'yadi.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalarida yetishtirilgan mahsulotlar asosiy va qo'shimcha mahsulotlarga bo'linadi. Tannarxni kalkulyatsiya qilish obyekti bo'lib asosiy mahsulot hisoblanadi. Lekin qilingan xarajatlar ham asosiy, ham qo'shimcha mahsulotga tegishli bo'ladi. Shu bois ham, xarajatlarni asosiy va qo'shimcha mahsulotlar o'rtasida taqsimlash, ular har birining reja va haqiqiy tannarxlarini, kirim qiymatini va sotish baholarini to'g'ri aniqlash zarurati tug'iladi. Chunonchi, bu ishlar har bir mahsulot turi bo'yicha individual yondashishni talab qiladi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalarida yetishtirilgan mahsulotlar mavsum davomida faqat reja tannarxida kirim qilib boriladi. Ularning haqiqiy tannarxi, erishilgan moliyaviy natijalar faqat qishloq xo'jaligi taqvim yili tugagandan keyingina, buxgalteriya hisobida barcha turdagi daromad va xarajatlar to'liq aks ettirilgandan so'ng aniqlanadi.

Beshinchidan, yetishtirilgan mahsulotlarning tez buzilishga moyilligi, maxsus saqlash joylarini talab etishi, ishlatilish maqsadi va boshqa jihatlari ularni turli usullarda kirim qilishni va xaridorlarga jo'natishni taqozo etadi. Masalan, terilgan paxta bevosita daladan paxta punktlariga topshiriladi. Xuddi shunday tez buziladigan meva-sabzavotlar, poliz ekinlari, chorvachilik mahsulotlari ularni qayta ishlash korxonalariga bevosita daladan (fermalardan) yuklatiladi. G'alla qishloq xo'jaligi korxonasining omborlariga yoki to'g'ridan-to'g'ri g'alla qabul tayyorlov korxonalariga topshiriladi. Tez buzilmaydigan mevalar, poliz

ekinlari, chorvachilik maxsulotlari qishloq xo'jaligi korxonalarining maxsus saqlash joylariga kirim qilinadi.

Oltinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish qishloq xo'jaligi korxonalarida bu soha bo'yicha ixtisoslikka ega bo'lgan mutaxassislardan iborat bo'lgan mehnat jamoalarini shakllantirishni shuningdek, ular mehnatiga haq to'lashni turli shakllarda hamda tizimlarda tashkil etishni taqozo etadi. qishloq xo'jaligi korxonalarining o'ziga xos mutaxassislariga agronomlar, zootexniklar, veterinarlar, miroblar, cho'ponlar, sut sog'uvchilar, traktorchilar, ishchilar va boshqalar kiradi. qishloq xo'jaligi asosan jamoa mehnatiga tayanadi. Shu bois ham bu tarmoq korxonalarida mehnat va unga haq to'lashning brigada shakli keng qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari ushbu tarmoq korxonalarida umumbelgilangan hamda tarmoq ahamiyatiga ega bo'lgan tartib-qoidalarga asoslangan hisob siyosatini shakllantirishni, shuningdek, ushbu hisob siyosatiga qat'i amal qilish vazifasini qo'yadi.

## **2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida hisob siyosatining xarakterli xususiyatlari**

Qishloq xo'jaligi korxonalarida hisob siyosatining xarakterli xususiyatlari bevosita buxgalteriya hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarida, ularda qo'llaniladigan schyotlar rejasida, xo'jalik muomalalarini hujjatli rasmiylashtirilishida, hisob ma'lumotlarini qayd etish, guruhlash, jamlash va foydalanuvchilarga uzatishda, moliyaviy hisobot shakllari moddalarini to'lg'azish tartibida hamda boshqa jihatlarida yorqin namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining tashkiliy shakliga ushbu xo'jaliklarning katta-kichikligi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yirik qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi maxsus bo'linmani, ya'ni buxgalteriyani tashkil qilish yo'li bilan olib boriladi. Kichik qishloq xo'jaligi korxonalarida maxsus buxgalteriyani tuzish zarurati bo'lmaydi. Ularda hisob ishlari mehnat shartnomasi asosida ishga olingan yagona buxgalter

tomonidan yuritiladi. Kichik fermer xo‘jaliklarida hisob-kitob ishlarini bevosita xo‘jalik rahbarining o‘zi ham olib borishi mumkin. Shuningdek, ularda buxgalteriya hisobi tuzilgan shartnoma asosida professional xizmatlarni ko‘rsatuvchi auditorlik tashkilotlari tomonidan ham yuritilishi respublikamiz qonunchilik hujjatlarida ta’qiqlanmagan.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining xususiyatlari ushbu tarmoq korxonalarida yuz berayotgan jarayonlar, xo‘jalik muomalalarini tizimli ravishda aks ettirishga mo‘ljallangan buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo‘llashni taqozo etadi. Chunonchi, ularda olib borilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish faoliyati umumbelgilangan tartibdagi 2000 “Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar” tizimida maxsus “Dehqonchilik” va “Chorvachilik” kabi schyotlarni nazarda tutishni taqozo etadi. Ushbu schyotlar tarkibida, o‘z navbatida, alohida olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini hisobi uchun mo‘ljallangan schyotlar ochilishi ham mumkin. qishloq xo‘jaligi korxonalarida “Dehqonchilik” va “Chorvachilik” schyotlarida aks ettiriladigan xarajatlarning tarkibini belgilashda respublikamizda amalda bo‘lgan “Mahsulot (ish, xizma)larning ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to‘g‘risidagi” nizomda keltirilgan tartiblarga amal qilishlari lozim. qishloq xo‘jaligi korxonalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu schyotlarning ochilishi, yuritilishi va yopilishi tartiblariga keyingi boblarda alohida to‘xtalamiz.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining uzluksizligi, yetishtirilgan mahsulotlarning tannarxi, ularni sotishdan olingan moliyaviy natijalar qishloq xo‘jaligi korxonalarida ta’minot va sotish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etilganligiga, ishlab chiqarish zaxiralarining o‘z vaqtida olinganligiga, ularni tegishli miqdorda mavjudligiga, butligi, sifati, sotib olish qiymati (tannarxi) hamda boshqa jihatlariga bevosita bog‘liqdir. Bu xususiyatlar qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zaxiralari holati, kirimi, sarfi va boshqa chiqimlari ustidan uzluksiz tizimli nazorat o‘rnatishni talab qiladi. Buning uchun ishchi schyotlar rejasida

ishlab chiqarish zaxiralari hisobi uchun mo'ljallangan maxsus schyotlarni nazarda tutish, ularda materiallar holati va harakatiga doir ma'lumotlarni uzluksiz, hujjatli asosda jamlash muhim ahamiyat kasb etadi. qishloq xo'jaligi korxonalarining bu xususiyatlari ularning ishchi schyotlar rejasida "Urug'liklar", "O'g'it", "Yem-xashak" "Dori-darmonlar" va boshqalar shu kabi maxsus schyotlarni ochish hamda yuritishni taqozo etadi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tannarxiga sarflangan materiallar qiymatini (tannarxini) baholash usullari (FIFO, AVYeKO) ham katta ta'sir ko'rsatadi. qishloq xo'jaligi korxonalari o'zlarining hisob siyosatida ushbu ikkala usuldan tanlab olinganini yoki ularning har ikkalasini qaysi turdagi ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha qo'llash tartibini belgilab olishlari lozim.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning uzoq davomiyligi hamda mavsumiyligi tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisob-kitob qilish va inventarizatsiyadan o'tkazishning aniq tartibini belgilashni taqozo etadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar haqqoniy tannarxini ular kirimi paytida aniqlash imkonining mavjud emasligi hisob siyosatida ular kirimi hisobini yil mobaynida reja yoki normativ tannarxi bo'yicha olib borish, yil oxirida esa mahsulotlarning haqqoniy tannarxi aniq bo'lgach, ular holati va xarakatiga doir buxgalteriya yozuvlariga tuzatishlar kiritish tartibini o'rnatish talabini qo'yadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining daromadi asosan yetishtirilgan mahsulotlarni sotishdan olinadi. Mahsulotlarni sotish davlat tomonidan qat'i belgilangan narxlarda, Shuningdek erkin bozor narxlarida amalga oshiriladi. Davlat tomonidan qat'iy belgilangan narxlar ayrim mahsulotlar bo'yicha, masalan paxta, g'alla, pilla, tamaki va boshqa umumdavlat ahamiyatiga molik qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha belgilanadi. Shuningdek, ularga davlatga topshirish rejasidan ortiq yetishtirilgan mahsulotlarni (paxta va pilladan tashqari) erkin narxlarda naqd va naqd pulsiz, Shuningdek mehnat haqi evaziga natural to'lov sifatida

berish ruxsat etiladi. qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishning ushbu xususiyatlari sotishdan olingan daromadlarni hisoblash tamoyiliga asosan tan olish, ularni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hujjatli rasmiylashtirish hamda tegishli schyotlarda aks ettirish tartiblariga qat‘i amal qilish talabini qo‘yadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini o‘zlarining asosiy vositalari, joriy aktivlari, xususiy kapital va majburiyatlarining tarkibi, ularni shakllantirish tartibi bo‘yicha ham, bir tomondan, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan farqli jihatlariga ega. Chunonchi, asosiy podani shakllantirish, yosh mollarni asosiy podaga o‘tkazish, texnika va transport vositalarini dala ishlari, terim mavsumlariga tayyorlash, xususiy mulkni ustav kapitaliga kiritish, olingan foydani ishlatish, paychilar o‘rtasida taqsimlash kabilardagi xususiyatlar qishloq xo‘jaligi korxonalarining hisob siyosatida ular hisobini yuritish tartiblarini aniq ifodalashni taqozo etadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida yuz berayotgan xo‘jalik operatsiyalarini hujjatli rasmiylashtirish turlicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, traktorlarda yerni shudgor qilish, paxta qatorlariga texnika yoki qo‘l mehnatida ishlov berish, urug‘lik qadash, mineral o‘g‘itlash, yem-xashaklarni mollarga ozuqa ratsioni hamda belgilangan ozuqa kunlari bo‘yicha sarflashdagi xususiyatlar ushbu operatsiyalarni rasmiylashtirish uchun mo‘ljallangan boshlang‘ich hujjatlar klassifikatorini qishloq xo‘jaligi korxonalarini hisob siyosatining tarkibiy elementi sifatida ishlab chiqishni hamda ularga to‘liq amal qilish talabini qo‘yadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini o‘zlarining hisob siyosatida buxgalteriya hisobining umumbelgilangan shakllaridan birini tanlab olishlari mumkin. Bunday shakllar bo‘lib buxgalteriya hisobining memorial-order, jurnal-order, kompyuterlashtirilgan shakl, soddalashtirilgan shakllar hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligining xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi o‘zlarining 2008-yil 21-yanvardagi 1, 1/2-son qarori bilan maxsus “Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi nizomni

tasdiqladilar. Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 26-martda 1781-son bilan ro‘yxatga olindi. Ushbu nizomga muvofiq fermer xo‘jaliklari uchun maxsus moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi namunaviy schyotlar rejasi tasdiqlandi. Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli quyidagi shakllar bo‘yicha yuritilishi mumkin:

- a) buxgalteriya hisobining oddiy shakli;
- b) buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli.

Fermer xo‘jaligi o‘zining ishlab chiqarish va boshqaruv talablaridan kelib chiqqan holda ushbu tavsiya etilgan ikkita shakldan birini mustaqil tanlaydilar.

Nizomga muvofiq fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining tanlangan shakldan qat’i nazar, hisobot davrining xo‘jalik operatsiyalari xronologik tartibda “Xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali“da ro‘yxatga olib boriladi. Xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali kitob shaklida yuritiladi, unda xo‘jalik operatsiyalarining qayd etilishi va hisobi hisobot davri uchun oylar yoki choraklar kesimida yuritiladi. Bunda, xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali tikilgan va raqamlangan bo‘lishi shart. Xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnalining so‘nggi varag‘ida fermerning imzosi bilan mazkur jurnalda. “varaq raqamlangan” deb yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varaqlar soni yozuv bilan yoziladi.

Buxgalteriya hisobining oddiy shaklida fermer xo‘jaliklarida xo‘jalik operatsiyalari hisobini yuritish uchun maxsus “Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobi” registri qo‘llaniladi. Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida operatsiyalar hisobi butun hisobot yili davomida yuritiladi. Bunda, xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobi tikilgan va raqamlangan bo‘lishi shart. Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobining so‘nggi varag‘ida fermerning imzosi bilan “Mazkur Kitobda..... varaq raqamlangan” deb yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varaqlar soni yozuv bilan yoziladi.



Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida xo‘jalik operatsiyalari natijalari aktivlarni, majburiyatlarni, xususiy kapitalni, daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlarni hisobga oluvchi schyotlarda aks ettiriladi.

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yozuvlar tizimli tartibda “Xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali“da keltirilgan ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobi kombinatsiyalashgan registr hisoblanadi, unda fermer xo‘jaliklari tomonidan qo‘llaniladigan barcha schyotlar mavjud bo‘ladi va ularning har birida xo‘jalik operatsiyalari hisobini yuritish imkoniyatini yaratadi. Bunda, balansning tegishli moddalarining mazmunini asoslab berish uchun u yetarli darajada batafsil bo‘lishi lozim. Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida har bir qo‘llanilayotgan buxgalteriya schyoti uchun aniq buxgalteriya schyotlari bo‘yicha o‘tgan yillarning tajribasini hisobga olgan holda, xo‘jalik operatsiyalarining kutilayotgan hajmidan kelib chiqqan holda, ma’lum betlar ajratiladi.

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobi “20\_\_-yil “\_\_“\_\_\_\_\_dagi qoldiq” qatorida aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalning har bir turi bo‘yicha hisobot davrining boshida mavjud bo‘lgan qoldiq summasi yozuvi bilan ochiladi. Aktiv schyotlarning qoldig‘i ushbu schyotlarning debetida, passiv schyotlar bo‘yicha qoldiq esa ushbu schyotlar kreditida yoziladi.

Har bir qatorda tegishli buxgalteriya schyoti bo‘yicha yozuvlar xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnalida keltirilgan buxgalteriya yozuvlari (provodkalari) ma’lumotlari asosida pozitsiya usulida xronologik ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Har bir oying (chorakning) oxirida xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yakun chiqariladi va unga asosan fermer xo‘jaligi faoliyatining natijasi aniqlanadi.

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yuritilgan aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlarning qoldiqlari 1-sonli shakl “Buxgalteriya balansi“ga o‘tkaziladi.

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yuritilgan daromad va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning hisobot davridagi aylanmasi 2-sonli shakl “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot“ga o‘tkaziladi.

Hisob registrlarini va buxgalteriya hisobining schyotlar tizimini hisob yuritishning turli shakllaridan, shu jumladan soddalashtirilgan shaklidan optimal darajada, lekin zaruratga qarab foydalanish, shuningdek fermer xo‘jaligining o‘lchamlarini, faoliyat va xo‘jalik jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hamda ushbu tashkilotning boshqa jihatlarini hisobga olgan holda soddalashtirilgan schyotlar rejasini tanlash uchun tuzish lozim.

Shuning uchun, biz, bunday xo‘jaliklarda faoliyatning buxgalteriya hisobini yuritishni sodda shakldagi hisob registrlarida va buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi amaldagi tizimining alohida schyotlarida tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, hisobga olish uchun taklif etilayotgan schyotlarning har biri hisob yuritish registrini (kitobini) o‘zida namoyon etadi hamda biz tomonimizdan xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish kitoblarini optimal variantlari ishlab chiqildi. Ular quyidagilardan iborat:

- xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish kitobi;
- pul mablag‘lari, kreditlar va sarmoyalar (zahiralar)ni hisobga olish kitobi;
- debitorlar va kreditorlar bilan hisoblashishlarni hisobga olish kitobi;
- asosiy vositalar va hisoblangan amortizatsiyani hisobga olish kitobi;
- o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olish kitobi;
- mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish kitobi;
- mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotish va moliyaviy natijalarni hisobga olish kitobi.

Ushbu ishlab chiqilgan hisob yuritish registrlari (kitobi) ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi buxgalteriya ma‘lumotlarining ishonchliligi va hisob yuritishning aniqliligini ta‘minlaydi.

1-jadval

20\_\_-yil uchun Xo‘jalik operatsiyalarini ro‘yxatga olish kitobi

№	Operatsiyaning mazmuni	Sana	Hujjat, raqami	O‘l- chov bir- ligi	Soni	Summa	Schyotlar korrespondent- sivasi	
							debet	kredit
A	B	1	2	3	4	5	6	7
1.	Bankdan uzoq muddatli kredit olinib, hisob schyotiga o‘tkazilgan	2.01.	Kredit shartnomasi, to‘lov topshiriq-nomasi, №4	-		200000	5110	7810
2.	” TTZ” zavodidan traktor sotib olindi	6.01.	Schet-faktura	dona	1	235000	0820	6010
3.	“Ulug‘bek fermer xo‘jaligidan dan konsentratsiyalangan ozuqa sotib olindi	7.01.	Yuk xati, №14	ts	50	4500	1010	6010
4.	“Sharq yulduzi” FXdan ola-chipor zotli sigir sotib olindi	9.01.	Yuk xati, № 15	bosh.	1	10000	0840	6010

5.	Sarflangan ozuqa	Oy mobaynida	Fermer hisob-kitobi	ts	90	1800	2010	1010
6.	Bankdagi hisob schyotidan naqd pul olindi	13.01.	Chek, №10, kirim kassa orderi, №1	-	-	2000	5010	5110
7.	”TTZ” zavodining asosiy vosita uchun schyoti to’landi	17.01.	To’lov topshi-riqnomasi, №5	-	-	235000	6010	5110
8.	“Sharq yulduzi” FXning xarid qilingan sigir uchun schyoti to’landi	20.01.	To’lov topshi-riqnomasi, №6	-	-	10000	6010	5110
9.	Asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya hisoblandi	Oy mobaynida	Fermer hisob-kitobi		-	720	2010	0200
10.	Chorvachilikda boshqa materiallar sarflandi	Oy mobaynida	Fermer hisob-kitobi			1500	2010	1090
11.	Sut kirim qilindi	Oy mobaynida	Fermer hisob-kitobi	ts	50	6084	2810	2010

12.	Hayvon bolasi kirim qilindi	Oy mobaynida	Dalolatnoma, №1	bosh.	4	676	1110	2010
13	Sut zavodiga sut mahsuloti sotildi	Oy mobaynida	Schet-faktura, №5	ts	50	12500	4010	9010
14.	Sotilgan sut mahsulotlarining tannarxi hisobdan chiqarildi	Oy mobaynida	Yuk xati, №12,	ts	50	6084	9110	2810
15.	Hisob kitob schyotiga sut zavodidan pul mablag'lari kelib tushdi	28.01.	Bank ko'chir-masi, to'lov topshiriqno-msasi	-	-	12500	5110	4010

117

## 2-jadval 20\_\_-yil uchun Pul mablag'lari, kreditlar va sarmoyalar (zahiralari)ni hisobga olish kitobi

№	Operatsiyaning mazmuni	Kirim (debet)	Chiqim (kredit)	Izoh
	Oy boshiga ko'ra qoldiq	-	X	X
1.	Hisob kitob schyotidan olindi, 13.01.	2000	-	-
2.	ish haqi, 26.01.	-	1520	-
3.	Olimov V.M.dan, 27.01.	420	-	-

4.	Umumxo‘jalik ehtiyojlari uchun sarflandi	-	120	
5.	JAMI	2420	1640	
	Oy yakuniga ko‘ra qoldiq	780	X	X
2. Bankdagi hisob-kitob schyoti				
	Oy boshiga ko‘ra qoldiq		X	X
1.	Uzoq muddatli kredit olindi, 2.01.	250000	-	-
2.	Bankdan naqd pullar olindi, 13.01.	-	2000	-
3.	“TTZ” zavodiga qarz to‘landi, 17.01.	-	235000	-
4.	“Sharq yulduzi” FX schyoti to‘landi, 20.01.	-	10000	-
5.	“Ulug‘bek” FXdan olindi, 27.01.	800	-	-
6.	Sut zavodidan olindi, 28.01.	12500	-	-
7.	JAMI	263300	247000	-
	Oy yakuniga ko‘ra qoldiq	16300	X	X
3. Kreditlar				
	Oy boshiga ko‘ra qoldiq	X	-	X
1.	Uzoq muddatli kredit, 2.01.	-	250000	-
2.	JAMI	-	250000	-
	Oy yakuniga ko‘ra qoldiq	X	250000	X
4. Fermer sarmoyasi				
	Oy boshiga qoldiq	X	273322	X
	Oy yakuniga ko‘ra qoldiq	X	273322	X

3-jadval

20\_\_ yil uchun Debitorlar va kreditorlar bilan hisoblashlarni hisobga olish kitobi

№	Debitor, kreditor nomi	Oy boshiga ko'ra qarz qoldig'i		Oy mobaynida qarzlarni hisoblash			Oy mobaynida qarzlarni qaytarish (hisobdan chiqarish)			Oy yakuniga ko'ra qarz qoldig'i	
		fermaga (debet)	fermer (kre dit)	Operatsiya mazmuni	fermaga (debet)	Fermer (kre dit)	Operatsiya mazmuni	fermaga (debet)	fermer (kre dit)	fermaga (debet)	fermer (kre dit)
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	ATB "Asaka"			Kredit olindi		200000	Kredit uchun				200000
1	"TTZ"	-	-	Traktor uchun uchun-01.01	-	235000	Traktor uchun 20.01.	235000	-	-	-
2	"Sharq yulduzi" FX	-	-	Xarid qilingan sigir uchun, 9.01.	-	10000	Xarid qilingan sigir uchun, 20.01.	10000	-	-	-
3	"Ulug'bek fermer xo'jaligi	-	-	Xarid qilingan ozuqa uchun, 7.01.	-	4500	Xarid qilingan ozuqa uchun	-	-	-	4500
	Sut zavodi			Sut sotildi	12500		Sut zavodidan pul kelib tushdi		12500		
	Jami	-	-	X	12500	449500		245000	12500		24500

**4-jadval**  
**20\_-yil uchun Asosiy vositalar va hisoblangan amortizatsiyani hisobga olish kitobi**  
**0100-schyot, 0200-schyot**

№	Asosiy vositalar ning nomi	O'lov birligi	Oy boshiga ko'ra qoldiq (kirim, debet)		Kirim (debet)			Chiqim (kredit)			Oy yauniga ko'ra qoldiq(kirim, chiqim)		Eskirishni hisoblash (amortizatsiya), kredit		Eskirishni hisobdan chiqarish,
			soni	summa	operatsiya mazmuni	soni	summa	operatsiya mazmuni	soni	summa	soni	summa	oy mobaynida	Yil boshidan	
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1	Fermer xo'jaligi binosi	dona	1	170000	-	-	-	-	-	-	1	170000	720	720	-
2	Traktor	dona			“TTZ” zavodidan dan 6.01.	1	235000				1	235000			
3	Sog'in sigrlar podasi	bosh	9	90000	“Baraka chorva” FXdan, 9.01.	1	10000				10	10000			
	Jami	X	X	260000	X	X	245000	X	X	-	X	505000	720	720	-



## 5-jadval

## 20\_ -yil uchun Moddiy-ishlab chiqarish zahiralari hisobga olish kitobi

1000-schyot

№	Zahiralar, mahsulot nomi	O'lchov birligi	Narx	Oy boshiga ko'ra qoldiq (debet)		Kirim (debet)			Chiqim (kredit)			Oy yauniga ko'ra qoldiq (debet)	
				soni	summa	operatsiya mazmuni	soni	summa	operatsiya mazmuni	soni	summa	soni	summa
A	B	V	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1.	Sut	S	-	-	-	ishlab chiqarishda	25	6084	sotildi	25	6084	-	-
2.	Yem-hashak	ts	100.00	60	6000	-	-	-	ozuqa uchun berildi	18	1800	42	4200
3.	Poxol	S	50.00	36	1800	-	-	-	ozuqa uchun berildi	4,8	240	31,2	1560
4.	Konsentrat-siyalangan ozuqa	ts	4.50	-	-	“O'lug'bek” FXdan, 7.01.	10	4500	ozuqa uchun berildi	1,8	800	8,2	3700
5.	Yog'ochlar		70.00	7	1960	-	-	-	ta'mirlash uchun	2	560	5	1400
6.	tuz	kg	3.60	50	180	-	-	-	-	-	-	50	180
8.	boshqa materiallar	-	-	-	600	-	-	-	Chorvachilik-da	-	600	-	-

9.	Maxsus ki-yim-kechak (xalatlar)	dona	54.00	5	270	-	-	-	-	-	-	-	-	-	5	270
10.	Maxsus poyabzal	juft	390.00	2	780	-	-	-	-	-	-	-	-	-	2	780
11.	Xaskashlar	dona	80.00	3	240	-	-	-	-	-	-	-	-	-	3	240
12.	Panshohala	dona	96.00	2	192	-	-	-	-	-	-	-	-	-	2	192
13.	Belkuraklar	dona	100.00	5	500	-	-	-	-	-	-	-	-	-	5	500
	Jami	X	X	X	13322	X	X	X	10584	X	10084	X	13022	X		

**6-jadval**  
**20\_yil uchun O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olish kitobi**  
**1100-schyot**

№	Hayvonlar turlari va guruhlari	Oy boshiga ko‘ra qoldiq (debet)			Kirim (debet)			Chiqim (kredit)			Oy yauniga ko‘ra qoldiq(debet)				
		soni	tirik vazni, kg	qiymati	soni	tirik vazni, kg	qiymati	soni	tirik vazni, kg	qiymati	soni	tirik vazni, kg	qiymati		
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
					Operatsiya mazmuni		tirik vazni, kg	qiymati	Operatsiya mazmuni	soni	tirik vazni, kg	qiymati	soni	tirik vazni, kg	qiymati

1	Qaro mollar	-	-	ishlab chiqarishdan	1	25	676	-	-	-	-	1	25	676
2	va h.k.													
	Jami:	X	-	X	X	25	676	X	X	-	-	X	25	676

**7-jadval**  
**20\_\_yil uchun Mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotish va moliyaviy natijalarni hisobga olish kitobi**

№	Mahsulot (ishlar, xizmatlar) nomi	Oy (davr) mobaynida sotish uchun yo'naltirilgan			Hisobot oyi (davri)da xaridorlar tomonidan to'langan							Moliyaviy natija	
		sana	Tan narx bo'yicha summagaga	sotish narxlari bo'yicha sumмага	sana	Tannarx bo'yicha sumмага	sotish narxlari bo'yicha sumмага	shu jumladan QQS va b.	Zarar	Foyda			
A	B	1	2	3	4	5	6	7	8	9			
1.	Sut	oy mobaynida	6084	12500	28.01	6084	12500	-	-	6416			
2.	Avtotransport xizmatlari	22.01 23.01		420 300	27.01 27.01		420 300			420 800			
	Jami:	X	1494	4970	X	1494	4970	-	-	7636			

Fermer xo‘jaligida mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish xarajatlarining hisobini 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” aktiv schyotida: 2011 “Dehqonchilik“; 2012 “Chorvachilik“; 2013 “Sanoat va yordamchi ishlab chiqarish” schyotlari doirasida, tegishli, “+” belgisi qo‘yilgan quyidagi xarajatlar moddalarini bo‘yicha yuritish mumkin (7-jadval).

### 8-jadval

#### Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida xarajatlarni moddalar bo‘yicha guruhlash

№	Xarajatlar moddalarining nomi	Chorvachilik	Dehqonchilik	Sanoat va yordamchi
<b>O‘zgaruvchan xarajatlar (O‘X)</b>				
1.	Urug‘lar va o‘tqazish	-	+	-
2.	O‘g‘itlar	-	+	-
3.	O‘simliklarni himoyalash vositalari	-	+	-
4.	Ozuqa	+	-	+
5.	Hayvonlarni himoyalash vositalari	+	-	-
6.	Yoqilg‘i, xomashyo va materiallar	+	+	+
<b>Shartli-o‘zgaruvchan xarajatlar (SH.O‘.X)</b>				
7.	Ishlar va xizmatlar	+	+	+
8.	Ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalarni amalga oshirgan holda yollanma xodimlar mehnat haqi to‘lash	+	+	+
9.	AV amortizatsiyasi	+	+	+
<b>Doimiy xarajatlar (DX)</b>				
10.	Boshqa xarajatlar	+	+	+

Nafaqat xarajatlarni hisobga olishni tashkil etish, balki ularni nazorat qilish, fermer xo‘jaligining har bir qishloq xo‘jaligi ekini, ekinlar guruhi, qishloq xo‘jaligi hayvonlarining guruhi, ishlab chiqarish turi bo‘yicha marjinal daromadi va foydasini tahlil qilishning bosqichma-bosqichligi xarajatlarni moddalar bo‘yicha guruhlash imkonini beradi.

Xo‘jalikning muayyan mahsulotni ishlab chiqarishdan marjinal daromadini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$MD = V_n - O'X - ShO'X,$$

bu yerda MD – xo‘jalikning marjinal daromadi,

$V_p$  – bozor narxlari yoki xo‘jalikdagi transfert narxlarda mahsulotni yalpi ishlab chiqarish, so‘m.

$O'X$  – o‘zgaruvchan xarajatlar,

$ShO'X$  – shartli o‘zgaruvchan xarajatlar.

Ushbu holatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning har bir turi bo‘yicha olinadigan foydani quyidagicha aniqlash mumkin:

$$F = MD - DX$$

bu yerda F – xo‘jalikning muayyan mahsulotni ishlab chiqarishdan oladigan foydasi, so‘m

$DX$  – doimiy xarajatlar

Bugungi iqtisodiy sharoitida subyektlarda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish maqsadida fermer xo‘jaligida bunday nazorat va tahlilni oldindan mahsulot ishlab chiqarishning keyingi bosqichlarida, davrlarida xarajatlarni rejalashtirish chog‘ida muntazam ravishda o‘tkazib turish lozim.

### **3. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari**

Davlatimiz tomonidan iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish borasida olib borilayotgan tadbirlar bevosita qishloq xo‘jaligiga ham daxldordir. Dehqonchilik va chorvachilik sohalari moddiy texnika bazasini yangi texnika va texnologiyalar kiritish asosida yaxshilash, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, kengaytirish va rekonstruksiya qilish, suv ta‘minoti va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash buxgalteriya hisobi oldiga ushbu ishlarga ketgan sarf-xarajatlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hujjatlashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlari sintetik va tahliliy hisobini yuritish, tugallanmagan

ishlab chiqarish qiymatini to'g'ri aniqlash, sotilgan mahsulotlar tannarxini aniq kal'kulyatsiya qilish, ularni hisobot davri daromadlariga hisoblash tamoyiliga asosan kiritish, o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish kabi muhim vazifalarni qo'yadi.

Qishloq xo'jaligining xususiyatlari fermer xo'jaliklarida ularning mulki hamda bu mulkni tashkil qilish manbalari hisobi oldiga ham muhim vazifalarni qo'yadi. Chunonchi, asosiy vositalar hisobi va hisobot tizimi ushbu aktivlar tarkibidagi qimmat turadigan qishloq xo'jaligi texnikasi, omborxonalar, maxsus bino va inshootlarning holati va harakati, ularning ish faoliyati, amortizatsiyalanishi va boshqa jihatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarni berishi lozim.

Qishloq xo'jaligi ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishi tegishli xom ashyo va materiallarning o'z vaqtida kelib tushishiga, ular bo'yicha tasdiqlangan limitning mavjudligi, butligi va sifatiga bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari kelib tushayotgan materiallar qiymatini (tannarxini) to'g'ri baholash, ular hisobini baholashning u yoki bu usulda yuritilishi yetishtirilayotgan mahsulotlarning tannarxiga, ularni sotishdan olinadigan daromadlarga, fermer xo'jaliklarining sof foydasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bularning barchasi qishloq xo'jaligi korxonalarida materiallar hisobi oldiga ular qiymatini to'g'ri baholash, materiallar holati va harakati ustidan uzluksiz nazoratni olib borish, ular kirimi va chiqimiga doir hujjatlarni to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish, ushbu boyliklar ombor va buxgalteriya hisobi registrlarini belgilangan tartibda yuritishdek muhim vazifani qo'yadi.

Qishloq xo'jaligi ishlari boshqa ishlardan farqli o'laroq kollektiv mehnatga tayanadi, ya'ni ularni olib borishda mehnatni tashkil qilishning brigada shakli keng qo'llaniladi. Mos ravishda bajarilgan ish va xizmatlarga haq to'lashda ham mehnatning brigada shakli asos qilib olinadi. qishloq xo'jaligi ishlarining yaxlit brigada a'zolari tomonidan bajarilishi jami hisoblangan ish haqini, unga qo'shimchalarni brigada a'zolari o'rtasida ularning

mehnatdagi haqiqiy ishtirokiga mos tarzda to‘g‘ri taqsimlab chiqish va hisobini yuritish vazifasini qo‘yadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘z faoliyatini yuritishda xo‘jalik hisobi tamoyiliga asoslanuvchi subektlar hisoblanadi, ya‘ni ular o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlashlari, olgan daromadlari evaziga xarajatlarini to‘liq qoplashlari va pirovardida foyda olishlari lozim. Bu tamoyilga amal qilish talabi buxgalteriya hisobi tizimi oldiga daromadlar, xarajatlar va yakuniy moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlarini milliy pul birligida tizimli aks ettirishdek muhim vazifani qo‘yadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari boshqa korxonalar singari davlatimizning soliq qonunchiligida nazarda tutilgan soliqlar va ajratmalarning to‘lovchilari hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi tizimi qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan to‘lanadigan tegishli soliqlar va majburiy ajratmalarni to‘g‘ri hisoblanishi, ularni o‘z vaqtida yuyudjetga o‘tkazib berilishiga xizmat qilishi lozim.

### **1-masala**

“Ulug‘bek” fermer xo‘jaligi 2020-yil 10-sentyabrda chet el korxonasidan keys kombaynini 50 ming AQSh dollariga sotib olish bo‘yicha shartnoma tuzdi. Shartnoma shartlariga ko‘ra shartnoma qiymatining 50 % oldindan to‘lanadi. 2020-yil 15-sentyabrda oldindan to‘lov amalga oshirildi. sanada 1 AQSh dollari MB kursi bo‘yicha 8250 so‘mni tashkil qilgan. Keys kombayni sotib olindi. Shu sanada 1 AQSh dollari 8295 so‘mni tashkil qilgan. 2020-yil 1-oktyabrda kreditorlik qarzi qayta baholandi. Shu sanada 1 AQSh dollari 8310 so‘mni tashkil qilgan. 2019-yil 10-yanvarda qarz to‘landi. Shu sanada 1 AQSh dollari 8340 so‘mni tashkil qilgan.

### **Topshiriq:**

1. Keys kombaynni boshlang‘ich qiymatini aniqlang.
2. Tegishli buxgalteriya yozuvini bering

### **2-masala**

“Ulug‘bek” fermer xo‘jaligi qiymati 180 mln so‘m bo‘lgan traktorni sotib oldi. Traktorni keltirishda transport tashkiloti

xizmatidan foydalanildi 1500 ming so‘m. Ish haqi xarajatlari 500 ming so‘m. Traktorning xizmat qilish muddati 7 yil. Tugatish qiymati 10 mln so‘m.

**Topshiriq:**

1. To‘g‘ri chiziqli, kamayib boruvchi qoldiq usuli, yillar yig‘indisi usullarida amortizatsiyani hisoblang
2. Tegishli buxgalteriya yozuvlarini bering.

**3-masala**

Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati 45 mln so‘m, tugatish qiymati 1 mln so‘m, xizmat qilish muddati 8 yil. To‘g‘ri chiziqli va kamayib boruvchi qoldiq usulida amortizatsiyani hisoblang.

**4-masala**

**Qishloq xo‘jaligi texnikalari va ko‘p yillik o‘simliklarni uzoq muddatli ijaraga sotib olish sharti bilan berilishiga doir operatsiyalarni schyotlarda aks ettirish**

№	Operatsiyaning mazmuni	Korr.schyot	
		Dt	Kt
1	Asosiy vositaning boshlang‘ich qiymatida hisobdan chiqarilishi		
2	Asosiy vosita bo‘yicha hisoblangan jamlangan eskirish summasini hisobdan chiqarilishiga		
3	Asosiy vosita bo‘yicha uzoq muddatli ijaraga berilgan mulkning kelishuv qiymatidagi debitorlik qarz summasiga		
4	Ijaraga berilgan mulk bo‘yicha uzoq muddatli qarzning joriy qismiga		
5	Ijaraga berilgan mulk bo‘yicha har oyda shartnoma asosida hisoblanadigan foiz summasiga		
6	Ijara bo‘yicha uzoq muddatli qarzning joriy qismi summasini kelib tushishi yoki naqd olinishiga		
7	Ijara bo‘yicha foiz summasini kelib tushishi yoki naqd olinishiga		



## 5-masala

Fermer xo‘jaligi yil davomida quyidagi TMZ larini sotib olgan.

Sotib olish sanasi	TMZ miqdori	1 dona TMZ qiymati	TMZlarning umumiy qiymati
05.01.2020	100	10200	
10.05.2020	152	11500	
25.07.2020	220	12300	
Jami			

Yil oxirida qoldiq 80 dona

TMZlarni sarflashda AVEGO, LIFO usullarida baholang.

## 6-masala

**Qishloq xo‘jaligi korxonalarida materiallarning ishlatilishi va boshqa chiqimlarini schyotlarda aks ettirish**

№	Operatsiyaning mazmuni	Summa	Dt	Kt	Asos bo‘luvchi hujjat
1	Materiallarning ishlab chiqarishga sarflanishi	500000 0			Material hisobotlari, dalolatnomalar
2	Materiallarning sotilishi: -sotish qiymatiga -materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo‘ynidan soqit qilinishiga -sotishdan olingan foydaga -sotishdan ko‘rilgan zararga	500000 400000 100000-			Shartnoma, schyot-faktura hisob-kitoblar, material hisoboti
3	Materiallarning bepul berilishi: -berish qiymatiga -materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo‘ynidan soqit qilinishiga -sotishdan ko‘rilgan zararga	500000 500000 500000			Shartnoma, schyot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti

4	Ta'ris badali sifatida berilishi: -kiritish qiymatiga -materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga	500000 500000			Shartnoma, schyot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti
5	Materiallarning ish haqi va moddiy yordam sifatida berilishi: -berish qiymatiga -materiallarning hisob bahosida moddiy javobgar shaxs bo'ynidan soqit qilinishiga	500000 500000			Ariza, schyot-faktura, hisob-kitoblar, material hisoboti

### **7-masala**

O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar kirimiga oid buxgalteriya yozuvlarini bering.

1. Mahsuldor hayvonlardan olingan nasl yoki ularning o'sgan vazni summasiga

Debet

Kredit

2. Ishchi hayvonlardan olingan nasl yoki ularning o'sgan vazni summasiga

Debet

Kredit

3. O'stirishdagi va boquvdagi mollarning ta'minotchilardan sotib olinishiga

Debet

Kredit

4. Mollarni bozorlardan berilgan hisobdor summa evaziga sotib olinishiga

Debet

Kredit

5. Asosiy podadan brak qilinib, boquvga qo'yilgan mollar summasiga

Debet

Kredit

6. Ta'sischilardan ta'sis badali sifatida olingan mollarga

Debet

Kredit

7. Mollarni tekinga olinishiga

Debet

Kredit

8. O'stirishdagi mollarni boquvdagi mollar guruhiga o'tkazilishiga

Debet

Kredit

9. Yosh mollarning asosiy podaga o'tkazilishiga

Debet

Kredit

10. Sotilgan yosh va bo'rdoqidagi mollar summasiga

Debet

Kredit

11. Inventarizatsiya natijasida kam chiqqan mollar summasiga

Debet

Kredit

### 8-masala

Dehqonchilik tarmog‘i sohalarida etishtirilgan mahsulotlarning reja va haqiqiy tannarxлари o‘rtasidagi farq hisob-kitobi

Mahsulot	Miqdori, ts	1 birlik tannarxi, so‘m			Summa, so‘m	Korr. schyotlar	
		reja	haqiqat	farq (+;-)		Dt	Kt
Paxta	1500	38000	37000				
Don	2250	15500	14000				
Don chiqiti	1000						
a) sotilgan	800	7725	8000				
b) chorvaga	200						
Somon	2300						
a) sotilgan	300	150	155				
b) chorvaga	2000						
Pomidor	350	10000	11000				
Piyoz	200						
a) sotilgan	150	20000	20600				
b) qoldiq	50						
Karam	250	5000	6000				
Kartoshka	200						
a) sotilgan	150	32000	33500				
b) qoldiq	50						
Sabzi	320	8000	8500				

### 9-masala

“Ulug‘bek” fermer xo‘jaligi joriy yilda xo‘jalikda namligi 40% bo‘lgan 500 tonna beda olingan. Yangi o‘rilgan o‘tning namligi esa 75%.

**Topshiriq:** 1) Beda uchun sarflangan yangi o‘tni hisoblang.  
3) Tegishli provodkalar berilsin.

### 10-masala

“Ulug‘bek” fermer xo‘jaligi 2020-yilda 100 ts. Pomidor 1ts. sotish bahosi 300 000 so‘mni, 150 ts piyoz 1ts sotish bahosi 250 000 so‘mni, 120 ts karam 1 ts sotish bahosi 150 000 so‘mni, 200 ts kartoshka 1 ts sotish bahosi 400 000 so‘mni, 110 ts sabzi 1 ts sotish bahosi 100 000 so‘mni tashkil qilgan. Ushbu maxsulotlarni yetishtirishda 125200 ming so‘mni tashkil qilgan.

### Sabzavotchilik sohasi xarajatlarini mahsulotlar o‘rtasida taqsimoti

Mahsulot turi	Hosil, ts	1 ts. sotish bahosi, so‘m	Sotish qiymati, so‘m	Hissasi, %	Xarajat summasi, so‘m	1 birlik mahsulot tannarxi, so‘m
1	2	3	4	5	6	7
Pomidor						
Piyoz						
Karam						
Kartoshka						
Sabzi						
Jami						

### 11-masala

Fermer xo‘jaligining sut yo‘nalishidagi asosiy podasini boqish va parvarishlash xarajati 45200 ming so‘m. Yil mobaynida olingan mahsulotlar: sut 1500 s, buzoqlar – 50 bosh, go‘ng 325 t va qil – 0,5 s. Bir tonna go‘ngning reja tannarxi 10000 so‘m, bir sentner qilning reja tannarxi 50000 so‘m.

#### Topshiriq:

1 ts sutning va 1 bosh buzoqning tannarxini aniqlang

## **12-masala**

Joriy yilning aprel oyida umumiy tirik vazni 112 ts bo'lgan 40 bosh g'unajin bolalagan kundan boshlab asosiy podaga o'tkazildi. 1-yanvar holatiga g'unajinlarning balansdagi qiymati (1 boshining o'rtacha qiymati bo'yicha) 1560 ming so'mni tashkil etgan. Asosiy podaga o'tkazilgan g'unajinlar yil boshidan aprel oyigacha 6 ts ga semirgan. Bir sentner ortgan vaznining rejadagi tannarxi 520000 so'm.

**Topshiriq:** 1) G'unajinlarning aprel oyida asosiy podaga o'tkazishdagi qiymatini aniqlang.

2) Tegishli provodkalar berilsin.

## **13-masala**

Fevral oyida xo'jalikda 2000000 so'mlik bir bosh buqacha yo'qolgan. Aybdor shaxsdan(cho'pondan) buqacha uchun 3000000 so'm undirib olishga qaror qilingan. Cho'pon zararni qoplash uchun o'z ixtiyoridagi 3000000 so'mga baholangan g'unajinni xo'jalik ixtiyoriga topshirdi.

**Topshiriq:** Ushbu muomala bo'yicha provodka bering.

## **14-masala**

Xo'jalikda joriy yilda davlatga reja asosida 4000 ts makkajo'xori topshirishi kerak edi. Lekin xo'jalik namligi 20% bo'lgan 3000 ts makkajo'xori yetishtirdi va davlatga topshirdi. Makkajo'xorining normativ namligi 22%.

Xo'jalik davlat rejasini necha sentnerga bajarmagan?

### 15-masala

Xo‘jalikda quyidagi ma’lumotlar berilgan:

No	Ko‘rsatkichlar	Soni	Tirik vazni (ts)	Tannarxi
1.	Yil boshiga onalari bilan qolgan cho‘chqa bolalari	3000	300	4500000
2.	Tug‘ilgan cho‘chqa bolalari	4000	400	600000
3.	Qo‘shilgan vazni	-	60	900000
4.	3 oydan katta hisob guruhiga o‘tkazilgan cho‘chqa bolalari	3500	280	?
5.	Yil oxiriga onalari bilan qolgan cho‘chqa bolalari	3500	120	?
6.	1 ts tirik vazn tannarxi	XX	XX	9
7.	Onasidan ajralgan bir bosh cho‘chka bolasining tannarxi	XX	XX	?
8.	Onasi bilan qolgan bir bosh cho‘chka bolasining tannarxi	XX	XX	?

Jadval ma’lumotlari asosida quyidagilarni aniqlang:

- cho‘chka bolalarining 1 ts tirik vaznini
- onasidan ajralgan bir bosh cho‘chka bolasining tannarxini
- onasi bilan qolgan cho‘chka bolalarining tannarxini.

### 16-masala

“Ulug‘bek” fermer xo‘jaligida joriy yilda qorako‘l qo‘ylarini asrash uchun hisobot yilida yordamchi mahsulotlar qiymatidan tashqari 26300000 so‘m sarflandi. Joriy yilda qorako‘lchilikdan 5000 bosh qo‘zi va 300 ts jun mahsuloti olingan. Qo‘zi va qo‘ylarning ortgan vazni 1000 ts. 1ts junning sotilish bahosi 967000 so‘m 1ts qo‘shilgan vazn 210000 so‘m.

Qorako‘lchilikda tug‘ilgan ko‘zilarning tannarxiga asosiy podani asrash xarajatlarining 15% i o‘tkaziladi.

Mahsulot tannarxini hisoblashda quyidagi jadval tavsiya etiladi:

Ko'rsatkichlar	Miqdori	Realizatsiya bahosi (1 birlik, so'm)	Realiza-tsiya Bahosi (umumiy) ming so'm	Mahsulot-ning umumiy qiymatdagi ulushi (%)	Xarajatlar, so'm	Mahsulot birligi ning tannarxi, so'm
Jami xarajatlar (qo'shimcha mah- sulot qiymatisiz)	XX	XX				XX
1. Tug'ilgan qo'zilar (bosh).		XX	XX	XX		
2. Jun(ts)						
3. Qo'shilgan vazn (ts)						

### 17-masala

“Ulug'bek” fermer xo'jaligida I sort 1 tonna paxtaning narxi 1800000 so'm bo'lgan 4744 tonna va II sort 1 tonnasining narxi 1500000 so'm bo'lgan 1086 tonna paxta yetishtirildi. Paxtadan tolaning chiqishi I sort uchun 28% va II sort uchun 25% (shartnoma bo'yicha). Narxlar ham shartnoma bo'yicha kelishilgan. Paxta tozalash zavodi tolaning chiqish normasi asosida paxtaga hak to'lashni o'z majburiyatiga olgan.

Hisobot yilida paxta tozalash zavodi I sort paxtaning 4744 tonnasidan 1556 tonna va II sort paxtaning 1086 tonnasidan 342 tonna paxta tolasini olgan.

Paxta tozalash zavodi I sort va II sort paxta uchun qancha qo'shimcha hak to'lashini hisoblang.

### 18-masala

“Ulug'bek” fermer xo'jaligida kiringa olingan g'allaning bunker vazni 40000 ts. G'allani qo'shimcha ishlov berish va uni ko'rib kamayishiga tuzilgan akt bo'yicha: A) xas-cho'p va g'allaning qurishi tufayli kamaygan vazni – 1200ts. B) Yem uchun



foydalaniladigan don chiqiti (laboratoriya analizi bo'yicha 38% doni bor).

Undan tashqari 5500 ts somon olingan. Fermer xo'jaligida g'alla mahsuloti uchun jami 607200000 so'm sarflangan. Somonning normativ tannarxi 39200000 so'm.

**Topshiriq:** 1) sof g'allaning va chorining tannarxini aniqlang.  
2) tegishli provodkalar bering.

### **19-masala**

“Ulug'bek” fermer xo'jaligida yopik maydonda 12000 kv.metr yerga bodring, 800 kv. mertga pomidor va 600 kv.mertga ko'k piyoz ekilgan. Bodringning o'rtacha o'sish davri 110 kun, pomidorniki 109 kun, piyozniki 43 kun. Bunda urug' va ko'chat xarajatlari qo'yidagacha bo'lgan:

bodring urug'i - 20000 so'm,

pomidor ko'chati - 60000 so'm,

piyoz uchun - 2000 so'm,

boshqa xarajatlar - 2418000 so'm. Olingan mahsulotlar:

bodring- 1488 ts,

pomidor - 7500 ts,

ko'k piyoz-13000 kg.

Topshiriq: Yuqoridagi ma'lumotlar asosida mahsulotlar tannarxini aniqlang.

### **20-masala**

“Ulug'bek” fermer xo'jaligada sut yo'nalishidagi chorvachilik asrash bo'yicha hisobot yilida 30120000 so'm sarflangan. Yil davomida undan quyidagi mahsulotlar olingan:

sut – 13500 ts,

buzoq – 750 bosh,

3) go'ng – 400 tonna.

Go'ngga qilingan normativ xarajat 120000 so'm.

Topshiriq: Sut, bir bosh buzoq va 1 ts go'ng tannarxini hisoblang.

### 21-masala

Ikki yoshgacha bo'lgan g'unajinlarni asrash uchun hisobot yilida 19980000 so'm sarflandi. Yil oxirida g'unajinlarning tirik vazni 5000 ts, yil davomida turli yo'llar bilan chiqib ketgan mollar vazni 3150 ts bo'lgan. Bundan tashqari 600 tonna go'ng tayyorlangan. Go'ngning normativ tannarxi 90000 so'm.

**Topshiriq:** 1 ts qo'shilgan vazn tannarxini hisoblang.

### 22-masala

№	Ko'rsatkichlar	Mollar soni	Tirik vazni	Umumiy qiymati, so'm
1.	Yil boshiga qoldiq	450	315	3213000
2.	Yillik qo'shilgan vazn	-	195	19890000
3.	Chetdan sotib olingan Mollar	12	6	1200000
4.	Boshqa grupp va asosiy podadan o'tgan mollar	10	15	1515000
5.	Olingan buzoqlar(o'lganlaridan tashqari)	75	90	1743800
6.	Boshqa uchyot gruppalariga o'tkazilgan mollar	5	10	1045000
7.	Sotilgan va boshqa chiqarilgan mollar	12	30	3137700

**Topshiriq:** Jadval ma'lumotlari asosida 1ts tirik vazn tannarxini hisoblang.

### 23- masala

Ishlab chiqarishda band bo'lgan traktorga eskirish hisoblandi - 4218000 so'm. Ushbu amortizatsiya ishlab chiqarish xarajatlariga olib borilishi kerak. Bunda transport quyidagi sohalarda bajargan xizmatlari soatlarda berilgan:

A) Dehqonchilik

bug‘doychilik (120 soat)  
paxtachilik (300 soat)  
issiqxona (teplitsa) (80 soat)  
kelgusi yil uchun hosil (100 soat)  
B) Chorvachilik  
sutchilik (50 soat)  
go‘shchilik (20 soat).

**Topshiriq:** 1) Jami amortizatsiya summasini mahsulot turlari bo‘yicha taqsimlang va xarajatlarga olib boring.

2) Tegishli provodkalarini bering.

#### **24-masala**

G‘allachilik yo‘nalishida faoliyat yuritgan Eshmatov D. ga ish haqi uchun bozor bahosida 10 ts bug‘doy berildi. Bug‘doyning bozor bahosi 150 so‘m va tannarxi 100 so‘m.

**Topshiriq:** 1) Ushbu muomalani buxgalteriya yozuvida aks ettiring.

2) Bug‘doyning bozor bahosi va tannarxi o‘rtasidagi farqni moliyaviy natijalarda aks ettiring.

#### **25- masala**

“Ulug‘bek” fermer xo‘jaligida olingan g‘allaning bunker vazni 10.000ts. G‘allaga qo‘shimcha ishlov berish va uning qurib kamayishiga tuzilgan dalolatnomalar bo‘yicha:

a)xas-cho‘p va g‘allaning qurishi tufayli kamaygan vazni - 1500 ts.

b)em uchun foydalanadigan chori (laboratoriya analizi buyicha 40% doni bor) - 2500 ts. Undan tashqari 600 ts somon olingan. Somonning normativ xarajatlardagi qiymati 192.000 so‘m sarflagan.

**Topshiriq:** Sof g‘alla, chori va somonning tannarxini aniqlang.

## **26-masala**

Kuzgi bug‘doy hosili yig‘ishtirib va tozalanib olingandan keyin 50.000 ts don, 3000 ts don chiqiti(chori) (50% doni bor), 40.000 ts somon olingan. Ushbu hosilni yetishtirish va xirmonda tozalash uchun 2.550.000 so‘m sarflangan. Somonning me‘yoriy xarajatlar qiymati 50.000 so‘m.

**Topshiriq:** Sof g‘alla, chori(don chikiti) va somonning tannarxini aniqlang.

## **27-masala**

Fermer xo‘jaligada kiringa olingan donning bunker vazni 86000 ts. Tuzilgan dalolatnoma bo‘yicha:

- A) Paxtachilik (300 soat)  
issiqxona (teplitsa) (80 soat)  
kelgusi yil uchun hosil (100 soat)
- B) Chorvachilik  
sutchilik (50 soat)  
go‘shchilik (20 soat).

**Topshiriq:** 1) Jami amortizatsiya summasini mahsulot turlari bo‘yicha taqsimlang va xarajatlarga olib boring.

2) Tegishli provodkalarini bering.

## **28-masala**

Ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlariga ko‘ra g‘alla uchun yillik xarajatlar 826300 so‘mni tashkil etdi. Hosildan 11234 ts to‘liq don olingan. Uning reja tannarxi 1 ts – 50 so‘mdan, hamda don chiqiti 7215.6 ts (laboratoriya tahlili bo‘yicha 60% doni bor) olindi. Uning reja tannarxi 1 ts – 28 so‘mdan, hamda somon olindi. Uning normativ xarajatlari 76000 so‘m.

**Topshiriq:** Sof g‘alla, don chiqiti tannarxini aniqlang.

## **29-masala**

Sut yo‘nalishidagi asosiy podaga umumiy qilingan xarajatlar 62800 ming so‘mni tashkil etadi. Asosiy ishlab chiqarishdan biznes

rejada ko‘rsatilgan baholarda qo‘shimcha mahsulotlar qiymati ayrildi 500200 so‘m.

Asosiy ishlab chiqarishdan quyidagicha mahsulotlar qabul qilingan:

– sut 1200 ts

– buzoq 95 bosh

**Topshiriq:**

Sutning umumiy tannarxini va bir-birligining tannarxini aniqlang.

Bir bosh buzoqning tannarxini aniqlang.

**30-masala**

Hisobot davrida chorvachilik ishlab chiqarishning xarajatlari quyidagicha bo‘lgan:

1. Chorva mollariga berilgan yem-xashak
2. Chorva mollari saqlanadigan binoning ijara to‘lovlari
3. Mehnat muhofazasi xarajatlari
4. Reklama xarajatlari
5. Fermer xo‘jaligi raisining yengil mashinasini saqlash xarajatlari
6. Auditorlik tekshiruvi bo‘yicha to‘lovlar
7. Yem-xashaklarni ishlab chiqarishga sarflashdagi tabiiy yo‘qotishlar
8. Ishchilarga hisoblangan ish haqi
9. Tayyor mahsulotni saralash va joylashtirish xarajatlari
10. Ishchilarning ish haqidan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar
11. Asosiy ishlab chiqarishga sarflangan elektr-energiya xarajati
12. Chorva fermasidagi mashina va asbob-uskunalar amortizatsiyasi
13. Mashina va asbob-uskunalariga sarflangan moylash materiallari
14. Omborxonalar qorovularining ish haqi
15. Rais kotibasining ish haqi
16. Chorva mollarini emlashda ishlatiladigan dori-darmonlar

17.Ferma binosida har bir chorva moliga sarflangan suv xarajatlari

18.Fermadagi ishchilarga berilgan maxsus kiyimlar xarajatlari

19.Buxgalteriyadagi kompyuterni ta'mirlash xarajatlari

20.Yem-xashak va ozuqani tarqatishdagi traktorning amortizatsiyasi

### **Topshiriq:**

**Yuqorida keltirilgan xarajatlarni tegishli tartibda quyidagi kesmalarda turkumlang:**

1-jadval

Ishlab chiqarishga bevosita o'tkaziladigan xarajatlar	Ishlab chiqarishga bilvosita (egri) o'tkaziladigan xarajatlar	Davr xarajatlari: a) ma'muriy xarajatlar b) tijorat xarajatlar v) umumxo'jalik xarajatlari	Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar

2-jadval

O'zgaruvchan xarajatlar	Doimiy xarajatlar

### **Mavzuga oid testlar**

**1. Qishloq xo'jaligi korxonasi buxgalteriya balansi asosida uning joriy to'lov qobiliyati darajasi (koeffitsiyenti) qanday topiladi?**

a)balans valyutasi summasi majburiyatlar summasiga bo'linadi;

b)joriy aktivlar summasi joriy majburiyatlari summasiga bo'linadi;

c) pul mablagʻlari joriy majburiyatlar summasiga boʻlinadi;  
d) balans aktivi 2-boʻlimi summasini balans passivi 2-boʻlimi summasiga boʻlish orqali.

**2. Qishloq xoʻjaligi korxonasi oʻz moliyaviy hisobotlarini majburiy topshirmaydi:**

- a) davlat soliq inspeksiyasiga;
- b) davlat statistika organlariga;
- c) xizmat koʻrsatuvchi bankka;
- d) auditorlik tashkilotiga

**3. Chorvachilik tarmogʻida umumishlab chiqarish xarajatlari qanday taqsimlanadi?**

- a) chorva mollari oʻrtasida
- b) fermalar va chorvachilik mahsulotlari oʻrtasida
- c) yordamchi ishlab chiqarish xoʻjaliklari oʻrtasida
- d) toʻgʻri javob yoʻq.

**4. Qishloq xoʻjaligi korxonasining sof tushumi qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

- a) buxgalteriya balansida;
- b) moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotda;
- c) xususiy kapital toʻgʻrisidagi hisobotda;
- d) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

**5. Qishloq xoʻjaligi korxonasining hisobot davrdagi sof foydasi qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

- a) buxgalteriya balansida;
- b) moliyaviy natijalar toʻgʻrisida hisobotda;
- c) xususiy kapital toʻgʻrisida hisobotda;
- d) yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

**6. Qishloq xoʻjaligi korxonasiga xaridorlardan kelib tushgan pul mablagʻlari qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

- a) buxgalteriya balansida;
- b) moliyaviy natijalar toʻgʻrisida hisobotda;
- c) xususiy kapital toʻgʻrisida hisobotda;
- d) pul oqimlari toʻgʻrisida hisobotda.

### **Nazorat savollari**

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobini yoritib bering
2. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarish zahiralariga nimalar kiradi.
3. Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari qanday aniqlanadi.
4. Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlariga qanday xarajatlar kiradi
5. Qishloq xo'jaligi korxonalarida yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlarining hisobini yoritib bering.
6. Qishloq xo'jaligi korxonalarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini ayting.
7. Qishloq xo'jaligi korxonalarida qanday soliq turlarini to'laydi



## Glossariy

**Aktiv** – buxgalteriya balansining bir qismi bo‘lib, ma’lum bir muddatga subyekt mablag‘larining tarkibi va joylanishini pul ko‘rinishida aks ettiradi. Bundan tashqari balansning passiv qismi ham mavjud bo‘lib, aktiv va passiv tomonlar bo‘lim va moddalardan iborat. Aktiv tomonining jami summasi passiv tomoni summasi bilan teng bo‘lishi lozim. Buni shunday tushuntirish mumkin, ya’ni aktiv tomonidagi mablag‘larning manbalari balansning passiv tomonida joylashgan.

**Asosiy xodimlar** – qurilish tashkilotlarining shtat jadvalida belgilangan lavozimlarni egallab turgan xodimlar tushuniladi. Bunday xodimlar tarkibiga injener-loyihachilar, injener-quruvchilar, prorablar, masterlar, mexaniklar, elektriklar, slesarlar, ganchkorlar, pardozlovchilar, taxtaga ishlov beruvchi va ulardan turli tayyor moslamalar yasovchi ustalar, g‘isht teruvchilar, ombor mudirlari, ta’minotchilar va shu kabi boshqa xodimlar kiradi.

**Asosiy bo‘lmagan xodimlar** – individual mehnat shartnomasiga ko‘ra alohida ishlarni bajarish uchun vaqtinchalik ishga olingan xodimlar tushuniladi.

**Aksiyadorlar** – aksiyadorlik jamiyatining a’zosi bo‘lib, bunga bir yoki bir necha aksiyalarni sotib olish orqali erishadi. Aksiyadorlarning huquq va burchlari mavjud. Uning huquqlariga quyidagilar kiradi: umumiy yig‘ilishlarda qatnashish, aksiyadorlik jamiyati rahbariyatini saqlash va saqlanish, dividend ko‘rinishida jamiyat foydasidan olish, aksiyadorlik jamiyati tugatilsa, aksiya qiymati hajmida mulkning bir qismini olish. Aksiyadorlar burchi - aksiya qiymati hajmida o‘zining hissasini jamiyat kapitaliga qo‘shishidir.

**Aksiyadorlar jamiyati** – ishlab chiqarish fondlari aksiyadorlarning aksiyalarni sotib olish yo‘li bilan qo‘shgan ulushlari hisobiga tashkil topadigan korxonadir. Aksiyalarni chiqarish va sotish orqali individual (yakka) kapitallar birlashadi. AJ foydasi uning qatnashchilari o‘rtasida olgan aksiyalarining summalariga mos ravishda taqsimlanadi. AJ nizom asosida tashkil

topadi va faoliyat yuritadi, davlat ro'yxatidan o'tgandan boshlab esa, yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi.

**Asosiy vositalar** – ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga taalluqli mehnat vositalari (binolar, imoratlar, mashinalar, dastgohlar va h.k.) Buxgalteriya hisobida asosiy vositalar guruhlarga ajratiladi va hisob olib boriladi. Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida ko'p davr mobaynida ishtirok etib, (bir necha ishlab chiqarish bosqichida) o'zining dastlabki ko'rinishi va shaklini o'zgartirmaydi va qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazadi.

**Audit** – lotincha “audio” so'zidan olingan “u eshitadi” degan ma'noni bildiradi. Audit mustaqil tashqi moliyaviy nazorat bo'lib, ushbu korxonada ishlaydigan mustaqil hamda diplomli auditorlar tomonidan olib boriladi.

**Auksion** – ba'zi tovarlarni belgilangan muddatda va tayinlangan joyda sotish usuli (kim oshdi savdosi). O'ziga xos xususiyati oldindan tovarlar namoyish etilishi va mas'ul sotuvchining ishtirok etmasligi. Xalqaro savdoda ham keng tarqalgan (paxta, oltin, choy, neft mahsulotlari kim oshdi savdosi).

**Balansdagi schyotlar** – buxgalteriya ko'rsatkichlari balansida aks ettiriladigan buxgalteriya schyotlaridir. Bunda balans moddasi nomi balansdagi schyotlar nomi bilan mos kelishi shart degan ma'no kelib chiqadi. Birgina balans schyotining ko'rsatkichi balans moddalarining bir nechtasida aks ettirilishi mumkin.

**Balansdan tashqari schyotlar** – shunday schyotlarki, ularning qoldiqlari buxgalteriya balansida aks ettirilmaydi. Bu schyotlar boshqa korxonalarga tegishli va korxonada mavjud bo'lgan tovar-moddiy boyliklarni vaqtincha hisobga olish uchun mo'ljallangan. Balansdan tashqari schyotlarda hisob oddiy, ya'ni ikki yoqlama yozuvsiz amalga oshiriladi. Bu schyotlar o'zaro, hamda balans schyotlari bilan ham korrespondensiyaga kirishmaydi.

**Baho** – tovar qiymatining pul ko'rinishida ifodalanishi. Tovarning bahosini belgilash uchun asos ushbu tovarning ishlab chiqarish tannarxi hisoblanadi. Tovarning bahosi qiymatdan farq

qilishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baho tovar uchun talab va taklifdan kelib chiqib belgilanadi.

**Birlamchi hujjatlar** – buxgalteriya hujjatlari bo‘lib, xo‘jalik jarayoni sodir bo‘lgan vaqtda tuziladi va ularning sodir etilganligi haqida birlamchi guvohnoma hisoblanadi.

To‘ldirilgan birlamchi hujjatlar xo‘jalik jarayonlarining hisobda aks ettirishning boshlanishidir. Birlamchi hujjatlarga kassaning kirim va chiqim orderlari, yuk xatlari, qabul qilish va topshirish dalolatnomalari, naryadlar, pattalar va boshqalar misol bo‘ladi.

**Blanka (fr. Blanc-varaqalar)** – zaruriy belgilari mavjud bo‘lgan bosma ko‘rinishidagi hujjat shakli. Blankalardan buxgalteriya hujjatlarini to‘ldirishda foydalaniladi. Bunda bosma ko‘rinishidagi namunada yoki qo‘l yozuvida hujjatlar to‘ldiriladi. Blankalardan foydalanish hujjatlarni to‘ldirishni osonlashtiradi va tezlashtiradi, ularni yagona ko‘rinishiga olib keladi. Ma‘lum bir blankalar isrof qilinishining oldini olish maqsadida qat’iy hisobga olinadi va har biriga tartib raqamlari qo‘yib chiqiladi. Masalan, kassa kitobi, bosh kitob shunday blankalardan hisoblanadi.

**Bosh pudratchi tashkilot** – bu buyurtmachi bilan qurilish, qurilish-montaj va boshqa ishlarni olib borish bo‘yicha asosiy shartnomani tuzgan hamda uning bajarilishini to‘liq o‘z zimmasiga olgan qurilish tashkiloti.

**Brutto (ital. brutto-sopol)** – tovarlarning idishi yoki o‘rovi bilan birgalikdagi og‘irligi. Tovarlarning bunday og‘irligi ba’zi hollarda zarur bo‘lsa-da, lekin tovarning sof og‘irligi haqida aniq ma‘lumot bera olmaydi. Buning uchun tovarning sof og‘irligi (netto)ni aniqlash lozim.

**Buxgalter**- buxgalteriya hisobi bo‘yicha mutaxassis, “buxgalter” so‘zi birinchi marta XV asrda paydo bo‘lgan. Buxgalter mutaxassisligiga birinchi marta “Insbrug” hisob palatasi ish yurituvchisi Kristofor Shtexer ega bo‘lgan. Umuman, buxgalter ma‘lum bir huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan xodim hisoblanadi. Buxgalter aniq bir ish va ma‘lum xo‘jalik faoliyatining hisobi va nazoratini olib boradi. Lavozimi va bajarayotgan ishiga

ko‘ra, buxgalter katta va bosh buxgalter bo‘lishi mumkin. Katta buxgalter buxgalteriyaning bir bo‘limini boshqarsa, bosh buxgalter xo‘jalik yurituvchi subyektning buxgalteriyasi faoliyatini boshqaradi.

**Buxgalteriya** – buxgalteriya hisobini tashkil etadigan va olib boruvchi apparat. Buxgalteriya mustaqil bo‘lim bo‘lib, korxonaning boshqa bo‘limlari tarkibiga kirmaydi. Buxgalteriyani bosh buxgalter, agar bosh buxgalter lavozimi belgilanmagan bo‘lsa, katta buxgalter boshqaradi.

Buxgalteriya bo‘limi buxgalteriya hisobini tashkil etishi va olib borishi lozim, xo‘jalik jarayonlarining qonuniyligi va maqsadlilikini nazorat qilish, hisobot tuzish, moliyaviy qonunlarga bo‘ysunishini ta‘minlashi va boshqa vazifalarni bajarishi lozim.

**Buxgalteriya hisobi** – xo‘jalik hisobining hisob turlaridan biridir. Buxgalteriya korxonada, tashkilot, muassasa va birlashmalar xo‘jalik faoliyatini to‘liq, hamma jarayonlarini uzluksiz hujjatlashtirish va nazorat qilishdir. Buxgalteriya hisobi korxonada, tashkilot, muassasa, vazirlik va boshqarmalarning faoliyat ko‘rsatish vaqtidan tugatilish vaqtigacha bo‘lgan faoliyatini hujjatlarda aks ettirib boradi. Buxgalteriya hisobi yozuvlari har tomondan tekshirilgan hujjatlar asosida olib boriladi, bu buxgalteriya hisobining nazorat ahamiyatini, ma‘lumotlar to‘g‘riligini, hisob ko‘rsatkichlari aniqligini ta‘minlaydi.

**Buxgalteriya hisobi schyotlari** – xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalarining alohida moddalari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni olish usuli. Xo‘jalik jarayoni natijasida mablag‘lar va ularni tashkil topish manbalarida o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu o‘zgarishlarni o‘rganish, hisobda aks ettirish uchun buxgalteriya hisobining schyotlaridan foydalaniladi. Schyotlar soni va nomlanishi buxgalteriya schyotlarining rejasida belgilanadi. Buxgalteriya hisobi qanday tashkil etilganligi, qaysi usuldan foydalanilayotganligi va obyektning turiga qarab, schyotning tuzilishi va tashqi ko‘rinishi turlicha bo‘ladi.

**Valyuta schyotlari** – jumhuriyat hududida va chet el valyutalarining holati va ularning harakati uchun mo‘ljallangan.

Valyuta hisobi bo'yicha jara-yonlarni amalga oshirish va hujjatlashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining nizomlari asosida olib boriladi.

**Vasiqa** – qat'iy belgilangan shakldagi yozma qarz majburiyati bo'lib, majburiyat muddati tugaganida qarzdordan vasiqada ko'rsatilgan summani tor-tishuvlarsiz talab etish huquqini beradi. Vasiqa qat'iy rasmiy hujjat bo'lib, qonunchilikda belgilangan majburiy rekvizitlardan birining bo'lmasligi, vasiqa kuchini yo'qotishiga olib keladi. Shakl nuqtai nazaridan vasiqalar oddiy va o'tkazuvchan bo'ladi.

**Vedomost** – birlamchi hujjat yoki hisob registri. Vedomost yig'ma hujjat bo'lishi ham mumkin. Vedomostdan buxgalteriya hisobining hamma shakllarida ham foydalaniladi.

Xo'jalik jarayoni sodir bo'lgan vaqtda tuzilgan vedomost birlamchi hujjat hisoblanadi. Yig'ma vedomost esa, bir nechta birlamchi hujjatlar asosida tuziladi. Unda birlamchi hujjatlarning ma'lumotlari yig'iladi va hisob registrlarida keyingi yozuvlarni amalga oshirishni yengillashtiradi. Yig'ma vedomostlarni hisoblash mashinalari yordamida tuzish samaralidir. Buxgalteriya hisobida jamg'arma vedomostlari, to'lov qaydnomasi, hisob-to'lov vedomostlari, qolishtirma vedomostlardan foydalaniladi.

**Da'vo** – da'vo qo'zg'atuvchining talabi. Korxonalar ularga qarzdorlarga (debitorlarga) o'z vaqtida to'lanmagan qarzlik summalar uchun da'vo qo'zg'atishlari lozim. Da'vo moddiy zarar keltirganlarga nisbatan asosli ravishda qo'zg'atilishi zarur.

**Debet (lat. debet - u majbur)** – buxgalteriya hisobining bir qismi. Aktiv schyotlarning debetiga summalarning ko'payishi yozilsa, passiv schyotlarda esa, summaning kamayishi yoziladi. Hisoblashish schyotlarining debetida esa, boshqa korxonaga va shaxslarning shu korxonaga qarzlari aks ettiriladi va debetorlik qarzlari deyiladi. Debet qoldiqlari esa, aktiv va aktiv-passiv schyotlarda bo'ladi.

**Debitorlar (lat. debitor - љarzdor)** – ushbu subyektga qarzdor bo‘lgan boshqa korxonalar, tashkilot, muassasa yoki shaxslar bo‘lib, ular debitorlik qarzlarni to‘lashlari lozim.

**Deklaratsiya** – (lotinchadan, ariza, e‘lon) Deklaratsiyaning quyidagi turlari mavjud. Bojxona deklaratsiyasi, aloqa deklaratsiyasi, soliq deklaratsiyasi va h.k.

– Bojxona deklaratsiyasi – boyliklar va tovarlarni chegaradan olib o‘tishda ularning nomi, miqdori, bahosi, o‘rov turi va boshqalarni aks ettirgan holdagi bojxonaga taqdim etiladigan ariza;

– Aloqa deklaratsiyasi – xorijga jo‘natilayotgan pulli yoki qimmatli paketlarga ularning mazmuni va qiymati aks ettirilib birlashtiriladigan aloqa hujjati;

– Soliq deklaratsiyasi – shaxsning soliq to‘lash bilan bog‘liq daromadlari, mulki va boshqalari hajmi haqidagi arizasi.

**Deponent (lat. depono – yig‘aman)** -korxonalar, tashkilot, muassasa yoki jismoniy shaxsning korxonalar, tashkilot, muassasada vaqtincha saqlayotgan mablag‘i. Deponent summasi ishchi va xizmatchilarni mehnat haqini o‘z vaqtida olinmagan summalaridir. Mehnat haqini to‘lash uchun muddat asosan 3 kun qilib belgilanadi. Muddat tugagandan so‘ng, olinmagan mehnat haqi summalarini vedomostga yoki deponentlar kitobiga xodimning ismi, familiyasi, otasining ismi, qabul raqami, hisob-to‘lov qaydnomasi raqami va oy, hamda summa yoziladi va deponentlangan deb belgilab qo‘yiladi. O‘z vaqtida to‘lanmagan pullar korxonaning bankdagi hisob-kitobiga qaytariladi.

**Depozit sertifikat** – ma‘lum bir muddatga pul mablag‘larini bankka qo‘ygan shaxslarga bu haqda tasdiqlovchi qimmatbaho qog‘oz bo‘lib, uning egasi daromad manbai hisoblanadi. D.s. boshqa shaxslarga beriladigan va berilmaydigan bo‘lishi mumkin.

**Dividend** – aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismi bo‘lib, aksiyadorlar o‘rtasida soliqlarni, ishlab chiqarishni kengaytirishga ajratmalarni, zaxiralarni tashkil etish, obligatsiyalar bo‘yicha foizlarni va boshqa to‘lovlarni amalga oshirilganidan so‘nggina taqsimlanadi.

**Diler (dallol)** – fond birjasining aʼzosi (alohida shaxs, firma) va banklar. Diler qimmatbaho qogʻoz, valyuta, qimmatbaho metallar savdosi bilan shugʻullanib, oʻz nomi va oʻz hisobidan harakat qiladi. Dilerlar oʻzaro, hamda brokerlar va bevosita mijozlar bilan (mijozlar bilan London fond birjasi dilerlari - djobberlar) kelishuvni amalga oshiradilar. D. foydasi xaridor va sotuvchi kurslarining farqi hisobiga, shuningdek, qimmatbaho qogʻozlar, valyuta kurslari oʻzgarishi hisobiga vujudga keladi. Koʻpgina fond birjalarining dilerlari brokerlik jarayonlarini amalga oshiradi.

**Diskont** – 1) vasiqa hisobi; 2) hisob foizi - vasiqa hisobida banklarga toʻlanadigan foiz; 3) birja va valyuta ishlarida - tovar katiral bahosidan ustama (masalan, agar tovar sifati standartdan past boʻlsa) valyuta.

**Ijara** (polyak. - аренда va lat. arrendare - qarzga foydalanishga berish) – Shartnoma asosida buyumlarning vaqtinchalik foydalanishga belgilangan ijara haqi toʻlovi asosida berilishi.

Buyumni vaqtinchalik foydalanishga beruvchi tomon ijaraga beruvchi, qabul qilib oluvchi esa, ijarachi deb ataladi. Ijara munosabatlarida asosan asosiy vositalar ijaraga berilishi mumkin. Ijara joriy va uzoq muddatli moliyalangan boʻlishi mumkin. Buxgalteriya yozuvi ham shu ijaraning qaysi turda olib borilishiga qarab yuritiladi.

**Investitsiya** – soʻzi nemischa investition, lotincha investio soʻzlaridan olingan boʻlib, u kapitalni uzoq muddatli qoʻyilmalar tariqasida sanoat, qishloq xoʻjaligi, transport va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar summasidir.

**Investor** – mablagʻini moliyaviy qoʻyilma sifatida foyda olish maqsadida sarflovchi shaxs.

**Inflyatsiya** – haqiqatda taklif etilayotgan tovarlarga nisbatan ancha koʻp miqdorda qogʻoz pullarning muomalaga chiqarilishi. Baholarning umumiy uzoq vaqt oshib borishi va haqiqiy mehnat haqining oshib borishi bilan kuzatiladi. Oltin bozor bahosini oshishi, hayot qiymati, valyuta kursining oʻzgarishlari ham inflyatsiya oqibatidir.

**Inventarizatsiya** – korxonaga tegishli bo‘lgan barcha asosiy vositalar, inventarlar, mablag‘lar va boshqa moddiy boyliklarning haqiqatda mavjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma‘lumotlarini solishtirish va tekshirish usuli. Inventarizatsiya o‘tkazilishidan asosiy maqsad buxgalteriya hisobi ko‘rsatkichlarining haqqoniyligini va mulkning saqlanishini ta‘minlashdir. Inventarizatsiya obyekti bo‘lib quyidagilar hisoblanadi.

**Inventar kartochkalar** – asosiy vositalar (fondlar)ning hisobi uchun mo‘ljallangan hisob registrining shakli. Inventar kartochkalar har bir obyekt xo‘jalikka keltirilganda tuziladi. Inventar kartochkalar obyektlarning har bir turi bo‘yicha alohida olinishi mumkin. Kartochkada inventar obyekti to‘g‘risidagi hamma kerakli ma‘lumotlar aks ettiriladi: uning nomi, amortizatsiya ajratmasi miqdori, shuningdek, kapital tiklash, jihozlar, butlash va hisobdan chiqarishlar ham aks ettiriladi.

**Inkassa (lat. incasso)** – to‘lov hujjatlarini ko‘rsatib pul olish. To‘lov hujjatlari asosan, bank tomonidan ko‘rsatiladi. Xaridor va mol yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi hisob-kitob naqd pulsiz olib boriladi, demak, bank pulni inkassa orqali olar ekan, ular o‘rtasidagi hisob-kitobni (schyotdan hisobga mablag‘ o‘tkazish) bajarish vazifasini oladi.

**Imtiyoz** – ma‘lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman ozod etish. Masalan, soliqlar bo‘yicha beriladigan imtiyozlar hozirgi kunda respublikamizda xususiy korxonalar, hunarmandchilik bilan shug‘ullanadigan shaxslar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarga belgilangan tartibda daromad solig‘i to‘lash bo‘yicha imtiyozlar berilgan. Imtiyozlarning berilishidan asosiy maqsad shu sohalarni rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoyalash hisoblanadi.

**Import** – davlatning ichki bozoriga xorijdan, texnologiya va kapitallarni sotish va ulardan foydalanish uchun tovarlarning keltirilishi, shuningdek, xorijiy hamkorlardan ishlab chiqarish yoki iste‘mol xarakteridagi xizmatlarning bepul olinishi.

**Ipoteka** – qarzdorning ko‘chmas mulki bilan ta‘minlangan, qarz majburiyatini aks ettiruvchi qimmatbaho qog‘oz.



**Kalkulyatsiya (lat. calculatio - hisoblash)** – bajarilgan ish, tayyorlangan mahsulot, qabul qilingan moddiy boyliklar qiymatini aniqlash, xarajatlarini guruhlash usuli. Kalkulyatsiya yordamida rejalangan va haqiqiy qiymat solishtiriladi, uning natijasida iqtisodiy tejamkorlik ishlari maqsadli amalga oshiriladi. Kalkulyatsiya o‘tkazilishi va maqsadligiga qarab (rejali, me‘yoriy) va hisobot turlariga bo‘linadi. Rejali kalkulyatsiya - reja davrining boshidagi xarajatlar me‘yori va boshqa rejali ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda tuziladi. Bu kalkulyatsiyaning vazifasi qiymat bo‘yicha reja topshiriqlarini belgilash hisoblanadi.

**Kapital qo‘yilmalar** – bu xo‘jalikning takror ishlab chiqarishini kengaytirish hamda uning sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuidir. Kapital qo‘yilmalar xajmi korxonalarini qurish, kengaytirish, texnik qayta jixozlash va uning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlash, shuningdek, ishlab chiqarish maqsadlaridagi asbob-uskuna, transport vositalari va boshqa asosiy fondlarni xarid qilishning barcha moliyalashtirish manbalari hisobiga qilingan xarajatlarning umumiy summasiga nisbatan belgilanadi.

**Kassa limiti** – korxonada kassasida doim bo‘lishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘larining summasi. Bu summa kunlik mayda xarajatlar uchun ishlatiladi. Uni bank korxonasi bilan kelishgan holda shu korxonasi sharoitini hisobga olib belgilaydi. Limitdan ortiq summadagi mehnat haqini to‘lash uchun bankdan olingan kundan tashqari uch kungacha bo‘lgan muddatda bo‘lishi mumkin. Nazorat vaqtida kassada sababsiz limitdan ortiqcha pul mablag‘i aniqlansa, 80-schyotning kreditiga yoziladi va kassir qoidani buzgan hisoblanadi.

**Kassir** – kassa pulini qabul qilish, saqlash va berish majburiyati yuklatilgan javobgar shaxs. Kassir yozma ravishda moddiy javobgarlik haqida majburiyatni o‘zining bo‘yniga oladi. Kassir o‘z ishi jarayonida kassa jarayonlari haqidagi nizomga amal qilishi zarur. Pulni qabul qilish va berishda kassir korxonasi rahbari va bosh buxgalterning imzolari bilan tasdiqlangan hujjatlarga asoslanadi.

Kassadagi pul mablag‘lari hisobini kassir kassaning kitobida olib boradi.

**Konsignator** – tovarlarning egasi bo‘lmasada, tovarlari mavjud bo‘lib, asosan, komission boshlang‘ich bosqichida faoliyat yuritadi. O‘z idorasi, shuningdek, qabul qilish, qayta ishlash va tovarlarni sotish binosiga ega bo‘ladi.

**Konsignatsiya** – tovarlarni xorijga sotishning komission shakli bo‘lib, unga ko‘ra tovarlarning egasi (konsignant) u yerdagi o‘z komissioneriga (konsignatoriga) tovarlar partiyasini sotish uchun jo‘natadi.

**Kredit (lat. creditum -qarz)** – pul mablag‘lari yoki tovarni qarzga berish. Korxonalar va tashkilotlar mablag‘larining aylanma harakatining bir xilda emasligi natijasida vujudga kreditga bo‘lgan sharoit va talabini banklar qondiradi. Asosiy prinsiplari esa, o‘z vaqtida qaytarilishi, maqsadli mo‘ljallanganligi, moddiy boylik bilan ta‘minlanganligidir. Kredit 2 xil bo‘ladi: qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlarga bo‘linadi (qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlarga qarang). Korxonalar olgan kreditlar 90, 92 schyotlarda hisobga olinadi. Bu schyotlarning kreditida olingan kredit summasi, debetida esa shu summaning qaytarilishi aks ettiriladi.

**Kreditorlik qarzlari** – ma‘lum bir korxonaning boshqa bir korxonalar (tashkilot, muassasa)ga va alohida jismoniy shaxslarga bo‘lgan qarz summalari. Bu korxonalar va shaxslar kreditor hisoblanadi. Kreditorlik qarzlarning vujudga kelishi sababi, xaridor va mol yetkazib beruvchi o‘rtasidagi hisob-kitoblar usuliga (xaridor tomonidan to‘lov tovarlar kelib tushgandan so‘ng amalga oshirilganda) yoki korxonalar tomonidan to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilmasligidir. Korxonada bir vaqtning o‘zida ham kreditorlik, ham debitorlik qarzlari hisobiga kelishi mumkin. Biroq kreditorlik qarzlari debitorlik qarzlardan oshib ketmasligi lozim.

**Qishloq xo‘jaligi** – xalq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xom ashyo bilan ta‘minlash vazifasini bajaruvchi agrosanoat kompleksining asosidir.

**Lizing** – lizing beruvchi bilan lizing oluvchi o‘rtasida lizing oluvchiga xo‘jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish maqsadida ko‘char va ko‘chmas mulkni vaqtinchalik foydalanish uchun berish to‘g‘risida lizing bitimi (shartnomasi, kontrakt)ni tuzish natijasida vujudga kelgan xo‘jalik qarz munosabatlari.

**Litsenziya** – (lotinchadan - uchun, ruxsat) rasmiy ruxsat. Tijorat ama-liyotida uning ikki asosiy turi uchraydi: eksport va importga litsenziya, hamda patentli litsenziya. Ma’lum bir miqdordagi u yoki bu tovar guruhlarining eksport yoki importiga litsenziya davlat boshqaruvi tashkilotlari tomonidan berilib, tashqi savdo faoliyatini nazorat qilish shartlaridan biri hisoblanadi.

